



Tadqiqot.uz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TALIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

DAVRIYLIGI: 2018-2024

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: 2024

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI

SENTYABR
№68
QASHQADARYO



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
II-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-II**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-II**

ТОШКЕНТ-2024

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2024]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 68-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2024 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2024. - 107 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, нагизалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар -

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Воҳидова Меҳри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Таҳировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б. доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



14.Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар -

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналлов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ЭКСПЕРТИЗА ТАЙИНЛАШ ВА ЭКСПЕРТИЗА О'ТКАЗИШ БО'ЙИЧА ЭКСПЕРТ OLDIGA QO'YILADIGAN SAVOLLARNI SHAKLLANTIRISH

Xusanov Anvar Djumabayevich O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Kriminalistik ekspertizalar
kafedrasini boshlig'i, y.f.b.f.d. (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish davomida jinoyat uchun ahamiyatli bo'lgan hamda bevosita jinoyatning fosh etilishi uchun ko'maklashadigan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi tomonidan ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etilgan ashyoviy dalillarga ekspertiza tayinlash, ekspertiza o'tkazish tartibi hamda ekspert oldiga qo'yiladigan savollar, shuningdek bugungi kundagi ekspert-kriminalistika faoliyatining zamonaviy ko'rinishi to'g'risida mavzu yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish, jinoyat joyidagi izlar, ashyoviy dalillarni topish, izlar va dalillarni protsessual tartibda rasmiylashtirish, ashyoviy dalillarni qadoqlash, ekspertiza tayinlash tartibi, ekspertiza o'tkazish, hamda namunaviy savollar.

Hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar, asosan, Jinoyat-protsessual kodeksida yoritilgan bo'lib, ushbu kodeksning 135-moddasida jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo'lgan joyini, murdani, hayvonlarni, o'simliklarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko'zdan kechirishi mumkinligi ko'rsatilib o'tilgan. Ushbu moddaning matniga ko'ra, ko'zdan kechirishning asosiy vazifalari qatorida mazkur tergov harakati ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida

o'tkazilishi ham nazarda tutilgan [1]. Ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar deganda, o'rganilayotgan hodisaga yoki tergov qilinayotgan jinoyat ishiga oydinlik kiritishi mumkin bo'lgan har qanday holat, shu jumladan, keyinchalik boshqa dalillarni topish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash ham tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabr kunidagi "Sud-tergov faoliyaida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5268-son, 2020-yil 10-

avgust kunidagi "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6041-son, shuningdek 2010-yilgi "Sud ekspertizasini o'tkazish to'g'risida" gi qonunning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda bugungi kundagi tergov harakatlarini hamda zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan holda sud ekspertizalarini o'tkazish bo'yicha qator protsessual harakatlar yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, hodisa sodir bo'lgan joydan jinoyat uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni to'plash va mustahkamlash, ularga baho berish, shaxsning huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, ashyoviy dalillarga





tegishli ekspertizalar tayinlash, ekspertiza o'tkazish tartibi, shuningdek ekspertiza yuzasidan ekspert oldiga qo'yiladigan savollar alohida ko'rsatilib o'tilgan [2]. Jamiyatda turli xildagi fuqarolar birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishishadi. Mana shu ijtimoiy jarayonda fuqarolar o'rtasida turli xildagi vaziyatlar vujudga keladi. Bu vaziyat shaxslarning kuchli emotsional his-tug'ulari hamda birlariga bo'lgan shaxsiy munosabatlari asosida shakllanadi. Bu vaziyat ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin: ijobiy yoki salbiy. Ijobiy vaziyatlarda fuqarolar hech qanday muammoli vaziyatga hamda konfliktga duch kelmaydilar, aksincha, salbiy vaziyatlarda esa, albatta, fuqarolar qandaydir g'ayrioddiy va muammoli vaziyatga kelib qoladilar. Bu muammoli vaziyatda fuqarolar o'rtasida qonunga zid bo'lgan, shuningdek inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli holat kelib chiqishi mumkin. Eng achinarlisi shundan iboratki, salbiy vaziyatlar oqali jinoyatlar kelib chiqishi muqarrar. Bunday hollarda jinoyatning qaysi turi yuz berishidan qat'iy nazar, fuqarolar huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qiladilar. IIO FMB ga kelib tushgan murojaatga ko'ra, tezkor guruh navbatchilik qismidan hodisa va uning joyi hamda ko'zdan kechirish sharoitlari haqida ma'lumotlar olish, hodisani 1-shakl kitobida yoki 2-shakl jurnalida ro'yxatdan o'tgan tartib raqamini qayd etib olish, hodisa sodir bo'lgan joyning qo'riqlanishini ta'minlash choralari ko'rish, ko'zdan kechirishda ishtirok etuvchilarni belgilab olish va ularning hodisa joyida hozir bo'lishini ta'minlash, eng asosiysi, kriminalistik vositalar chemodanini tayyorlash muhim zaruriy choralar hisoblanadi [3]. Hodisa sodir bo'lgan joydagi izlar, ashyoviy dalillar va jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa narsalarni asl holida saqlashni ta'minlash, ularning buzilishi, yaroqsiz holga keltirilishi, yo'qotilishi, ularga shikast yetkazilishi yoki hodisa sodir bo'lgan joyda protsess ishtirokchilari tomonidan biron-bir iz qoldirilishining oldini olish maqsadida ko'zdan kechirish jarayoni ishtirokchilari maxsus qo'lqop va oyoq baxilasi kiygan holda ko'zdan kechirish harakatlarini o'tkazish lozim. Umumiy ko'zdan kechirish jarayonida hodisa shart-sharoitlar o'rganiladi, buyum va ashyolar, shuningdek izlarning joyi o'zgartirilmay umumiy tarzda ko'zdan kechiriladi. Hodisa joyining chegaralari belgilab olinadi. Ashyo va buyumlarning birlamchi holati hamda ularning bir-biriga nisbatan jolashuvi qad qilinadi. Hodisa joyidagi vaziyat o'zgartirilmay foto tasvir va videoyozuv vositalari yordamida qayd qilib olinadi. Hodisa joyidagi har bir ashyo va buyum tanlangan ketma-ketlikda sinchkovlik bilan o'rganiladi. Iz va ashyoviy dalillar hodisa sodir bo'lgan joydan topiladi, o'rganib, tadqiq qilinadi va qayd etiladi. Hodisa joyidagi jinoyat sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, jinoiy harakatga oid va boshqa holatlarni, yuz bergan vaziyatni aniq aks ettiruvchi detallar qayd etiladi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari O'zbekiston Respublikasi JPK ning 141-moddasi talablariga ko'ra bayonnomada yozma ta'riflash yo'li bilan qayd etiladi. Ushbu jarayonning o'zida bayonnomada ko'zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ularning qanday tartibda ko'zdan kechirilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda, ko'zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo'lsa, xuddi shu holatda qayd etilishi, topilgan va olingan barcha izlar, ashyoviy dalillar va hujjatlarning alohida belgi hamda xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lishi zarur. Ushbu qoidalarga doimiy va qat'iy amal qilgan holda ish ko'rilsa, ko'zdan kechirishning samaradorligi ham, albatta, yuqori bo'ladi. Vaziyatni bayonnomada yozma ta'riflash kuzatishlar hamda o'rganishlar jarayoni nihoyasiga yetgandan so'ng amalga oshiriladi. Ko'zdan kechirish bayonnomasi bevosita hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish vaqtida yoki





ushbu tergov harakati o'tkazilishi bilanoq tuzilishi mumkin. Hodisa sodir etilgan joyni ko'zdan kechirishda mavjud vaziyatdan, ya'ni obyektlarning o'zaro joylashuvidan, qo'l, oyoq, poyabzal, transport, buzish qurollaridan qolgan izlar va shu kabilarning xususiyatidan, ularning paydo bo'lish mexanizmlaridan kelib chiqib, hodisaning qanday vaziyatda, qanday sharoitlarda yuz berganligi to'g'risida xulosalar chiqarish mumkin. Hozirgi kunda hodisa sodir bo'lgan joyni ilmiy-texnika vositalarisiz ko'zdan kechirishning iloji yo'q. Masalan, trasologik izlarni ultranur, kimyoviy reaktivlar yordamida ko'zga ko'rinmaydigan izlarni topish, ularning xususiyatlari hamda maxsus belgilari asosida aniqlab olish imkoniyatlari mavjud [4]. Albatta, bu kabi zamonaviy ilmiy-texnikaviy vositalardan foydalangan holda ish olib borish ko'zdan kechirishning sifat ko'rsatgichiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning yakuniy bosqichida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi tuziladi, dalilarni qayd etishda ularning obektiv xususiatlarini inobatga olgan holda ko'rsatilib o'tiladi, nusxalar olinadi, turli xildagi jarayon uchun zarur bo'lgan qoliqlar tayyorlanadi, rejalar, sxemalar tuziladi. Olingan obyektlar va izlar belgilangan tartibda qadoqlanadi, olishning iloji bo'lmagan ashyolarning saqlanishi ta'minlanadi. Qonuniylik prinsiplariga qat'iy amal qilgan holda, ko'zdan kechirish ishtirokchilarining hamda boshqa fuqarolarning iltimosnomalari, shikoyatlari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi JPK ning 137, 161, 163, 175, 193 va 194-moddalarida belgilab o'tilgan protsessual talablarga ko'ra, hodisa sodir bo'lgan hamda tintuv o'tkazilgan joydan, namunalar olish davrida olingan ashoviy dalillar va izlar belgilangan tartib va qoidalarga amal qilgan holda o'ralishi va muhrlanishi lozim. Olinayotgan ashoviy dalillar va izlarni qadoqlash jarayonida bir narsaga e'tibor berish nihoyatda muhimdir.



Hodisa sodir bo'lgan joydan topilgan ashoviy dalillarni, qanday turdagi iz bo'lishidan qat'iy nazar, ularning oziga xos xususiyatlarini o'zgartirmaslik, asl holda saqlanishi uchun zaruriy choralar ko'rilishi, ekspertizaga yuborish uchun qadoqlanayotgan har qanday ashoviy dalillarda jinoyat izlarining jinoyat ochilishida muhimligini anglab yetgan holda qadoqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqoridagi talablarning belgilangan taribda bajarilmasligi, tabiiyki, jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan ashoviy dalillarning yo'qolishiga yoki ularning nomaqbul deb topilishiga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan, sodir etilgan jinoyatlarning tez va to'la ochilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shundan kelib chiqqan holda, hodisa sodir bo'lgan joyga chiqayotgan surishtiruvchi, tergovchining ixtiyorida voqea joyidan topilgan ashoviy dalillarni o'rash, muhrlash hamda qadoqlash uchun zaruriy zamonaviy barcha vositalar bo'lishi lozim. Ular jumlasiga birqancha maxsus vositalarni keltirishimiz mumkin. Misol uchun: Qog'oz paket yoki konvertlar. Bu kabi vositalardan turli hujjatlar va boshqa yozuvlar, o'qotar qurollardan otilgan o'qlar yoki gilzalar, yog'och va boshqa material bo'laklari, sigareta qoldiqlari va shu kabi boshqa kichik obyektlarni o'rab qadoqlashda foydalaniladi; tibbiy probirkalar va mayda polietilen qutilar. Voqea joyidan topilgan soch tolalari, qon, biologik ajratmalar va boshqa dog'lardan olingan surtmalar, buzish qurollaridan qolgan bo'yoq zarrachalari, avtotransport vositalarining bo'yoq namunalari va shunga o'xshash boshqa mikroobyektlarni qadoqlashda fodalaniyadi; hajmli polietilen paketlar. Bu turdagi vositalardan jinoyat sodir etilganlikda hamda voqea joyidan topilgan qurol-yarog'lar, turli xildagi kiyimlar, poyabzal, o'qotar qurollarning ta'sirini o'zida saqlab qolgan ashyolar va boshqa shu turdagi ashyolarni o'rashda ishlatiladi. Qadoqlash jarayonida shunday obyektlar uchrab qoladiki, ularni joydan joyga ko'chirishda buzilishi yoki o'z xususiyatlarini yo'qotilishi mumkin bo'lgan paytda ularning bu kabi oqibatlarini oldini olish



maqsadga muvofiqdir. Bunday paytlarda ashyoviy dalillarni alohida yog'och, karton yoki boshqa materiallardan yasalgan qutilarga joylashtirish zarur. Yoxud barmoq izlari mavjud bo'lgan shisha bo'laklarining hajmini kichraytirish maqsadida shisha kesuvchi olmos yordamida kichraytirib, undan so'ng qadoqlash kerak bo'ladi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish davomida topilgan ashyoviy dalillar qanday ko'rinishda topilgan bo'lsa, shundayligicha olinib, o'ralib, qadoqlanadi. Ularni o'rab joylashtirishda boshqa izlarning hosil bo'lishini va undagi mavjud izlarning yo'q bo'lib ketmaslik choralari ko'rilgan holda jarayon davom ettiriladi. Olinayotgan obyektlarning har biri tartib raqami bilan raqamlanadi, har bir raqamdagi izlarning qayerdan olinganligi aniq ko'rsatilib o'tiladi. Obyektning xususiyatidan kelib chiqqan holda, ular qog'oz yoki polietilen paketlarga yoxud qutilarga joylashtiriladi. Paketlar va qutilar yelimlanadi va ularning yuzasiga yorliq yopishtiriladi. Yorliqda olingan obyektning nomi, qaysi ish bo'yicha, aynan qayerdan olinganligi hamda tergovchi, xolislar va mutaxassisning (agar u tergov harakatida ishtirok etgan bo'lsa) familiyalari, ism-shariflari ko'rsatilib, ular tomonidan imzolanadi. Shu bilan birga ushbu yorliqning yuqori chet qismida obyektning tartib raqami belgilab qo'yiladi. Hodisa sodir bo'lgan joydan aniqlangan ashyoviy dalillarga ekspertiza o'tkazish "Sud ekspertizasini tayinlash haqidagi qaror" asosida amalga oshiriladi. Ushbu qarorning tarkibiy elementlari quyidagicha: ekspertiza tayinlash haqidagi qarorning nomi; qaror chiqarilgan sana va joyi; qaror chiqarayotgan mansabdor shaxsning lavozimi, unvoni, familiyasi va ism-shariflarining bosh harflari; qaror chiqarilayotgan tergovga qadar tekshiruv hujjatlari haqida ma'lumot yoki jinoyat ishi raqami; ushbu hujjaning qaror qismida muayyan ekspertizaning tayinlanayotganligi va uning qaysi ekspertiza muassasasi yoki ekspertga topshirilayotganligi, ekspert tadqiqotlarini o'tkazishda hal qilinishi lozim bo'lgan savollar, ekspert ixtiyoriga topshirilayotgan obyektlar, ularning holati kabi asosiy ma'lumotlar qayd etilgan bo'lishi zarur.

Qaysi turdagi an'anaviy ekspertiza tayinlash nimaga bog'liq? Bu voqea sodir bo'lgan joydan aniqlangan ashyoviy dalillar hamda izlarning qanday turdagi obyekt hisoblanishi va o'zining umumiy hamda maxsus belgi-xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekspertizaning turi aniqlanadi. Zamonaviy kriminalistik ekspertizalarning yetti (7) ta an'anaviy turlari mavjud. Ular quyidagicha: daktiloskopik, trasologik, ballistik, xatshunoslik, portret, hujjatlarning texnik ekspertizasi, sovuq qurollar ekspertizalari. Daktiloskopik ekspertizaning tadqiqod obyektlari barmoq izlari, ularning hosil bo'lish mexanizmlari, voqea joyidan olingan iz bo'lagining kaft yoki barmoq qismidan ekanligini aniqlash hisoblanadi; voqea sodir etilgan joydan topilgan oyoq izlari, kiyim parchalari, plombalar bo'yicha, buzish qurollari, qulf, ochqichlar kabi obyektlar trasologik ekspertizaning tadqiqod obyektlari sanaladi; o'qotar qurollar, ularning gilza hamda o'qlari, patronlar ballistik ekspertizaning tadqiqod obyektidir; turli xildagi yozuvlar, imzolar, harflarning umumiy va xususiy belgilari kabi qator elementlar xatshunoslik ekspertizasining muhim tadqiqod obyektlari sanaladi; fotosuratlardagi shaxslarning tasvirlari, ularning yuz tuzilishlarning o'ziga xos belgilari portret ekspertizasining tadqiqod obyektidir; turli xildagi hujjatlarning qanday usulda tayyorlanganligi, pasport, haydovchilik guvohnomasi va hokazolarning tayyorlanish yoki qalbakilashtirish, o'zgartirishlar kiritish, kesuvchi chiziqlar, matn, imzo yoki muhr izlari qanday tartibda bajarilganligi, ko'rinmayotgan yoki sust ko'rinayotgan yozuvlarni aniqlash, hujjatni tayyorlash uchun ishlatilgan buyum va materiallarning





identifikatsiyasi kabilar hujjatlarning texnik ekspertizasining tadqiqod obyekti hisoblanadi; sovuq qurollar turkumiga kiruvchi barcha buumlar, ya'ni pichoq, kaset, qilich va boshqalar sovuq qurollar ekspertizasining tadqiqod obyektlari sanaladi. Sud ekspertiga hal qilish uchun berilgan savollar [5]. Ushbu tarkibiy qism bilan tanishish tergovchi va sudga baholash jarayonida ekspert o'z xulosasida berilgan barcha savollarni ko'rsatganmi, ularni to'g'ri tushunganmi, ularga javoblar berilganmi, sud eksperti bu savollarga javob berishda o'z vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqan yoki chiqmaganligini, ekspertning xulosasida ekspertning maxsus bilimlari doirasidan tashqari savollarga javob berilgan yoki berilmaganligini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, tergovchi tomonidan sud-ekspertizasini o'tkazish bo'yicha ma'lum bir ekspertiza turi doirasida ekspert oldiga hal qilish uchun qo'yilgan savollarning dolzarbligi shundan iboratki, ushbu savollar taqdim etilgan tadqiqot obyektlarining umumiy xususiyatlari, belgilari, shaxs yoki narsaga tegishliligi bo'yicha aniq



ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladi. Ekspert oldiga qo'yilgan savollarning qanchalik aniq hamda to'liqligi jinoyatlarning tez va to'la ochilishi uchun xizmat qiladi. Bu tabiiyki, tadqiqot o'tkazayotgan sud ekspertining malaka hamda kasbiy ko'nikmalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish davomida jinoyat uchun ahamiyatli bo'gan hamda bevosita jinoyatning fosh eilishi uchun ko'maklashadigan, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi tomonidan ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etilgan ashyoviy dalillarga ekspertiza tayinlash, ekspertiza o'tkazish tartibi hamda ekspert oldiga qo'yiladigan savollar, ekspert xulosasining qonun chiqaruvchi tomonidan belgilangan tuzilishi tergovchiga, dalil sifatidagi yakuniy hujjatda aks ettirilgan, ekspertiza tadqiqotlarining kirish, tadqiqot va xulosalar (yakunlovchi) qismlarini ketma-ketlikda va tizimli ravishda tahlil qilish va baholashga imkon beradi [5]. Ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish va natijalarni rasmiylashtirish faoliyatini nazorat qilish esa quyidagi tadbirlar orqali amalga oshirilishi lozim: ekspertiza o'tkazishning muddati va sifatini nazorat qilish; sud ekspertizasi muassasalari xodimlariga boshqa vazirliklar va organlarning ekspertiza muassasalarida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislari tomonidan maslahatlar va davra suhbatlari, trening mashg'ulotlari o'tkazilishini tashkil qilish; ichki ishlar organlari hamda boshqa organlarning yetakchi muxatassislari, amaliy va nazariy xodimlari ishtirokida, ekspertiza natijalari va ekspert xulosasini rasmiylashtirish faoliyatini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan davra suhbatlari, ilmiy-amaliy anjumanlar va yig'ilishlar o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6256-son Farmoni. / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021 y., 06/21/6256/0636-son; 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son.
2. Kriminalistika va ekspertiza. Darslik. Y.f.n., prof. v.b. D.Bazarova, yu.f.d. dos. I.R.Astanov. – Toshkent: TDYuU, 2019. – 618 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 73-son qarori / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.02.2023 y., 09/23/73/0098-son.



4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – T., 2022.186-m. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 2017 y., 1-son, 1-modda, 13-son, 194-modda, 24-son, 487-modda, 36-son, 943-modda, 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.02.2021-y., 03/21/673/0112-son; 18.02.2021 y., 03/21/675/0126-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabr kunidagi “Sud-tergov faoliyaida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5268-son;

6. 2020-yil 10-avgust kunidagi “Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchayirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6041-son, shuningdek 2010-yilgi “Sud ekspertizasini o'tkazish to'g'risida” gi qonun.

SHARTNOMALARNING HAQIQIY EMASLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING XALQARO HUQUQ DOKTRINASIDA O'ZIGA XOS HUQUQIY JIHATLARI

Jamshid Ismoilovich Safarov

TDYU doktoranti

jamshidmbi@gmail.com

ORCID: 0009-0006-0630-9748

Annotatsiya: Xalqaro shartnomaning haqiqiyliги uning yuridik tomondan majburiyligini belgilovchi eng muhim jihatlardan biridir. Qoida tariqasida, xalqaro huquq doktrinasiga binoan shartnoma xalqaro huquqning zaruriy talablariga, masalan, manfaatdor tomonlarning roziligini ixtiyoriy ifodalashda, tomonlarning shartnoma tuzish vakolati (qobiliyati), shartnoma tuzishda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillariga rioya qilinishi kabi zaruriy talablariga javob bersa, haqiqiy hisoblanadi. Shartnomaning haqiqiyliги ishtirok etuvchi tomonlar shartnoma shartlariga rioya qilishlarini va shartnomaning bajarilishi va xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, shartnomaning haqiqiyliги uning qonuniyligi va majburiyligini belgilashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, shartnoma, xalqaro shartnomalar huquqi, haqiqiylik, qonuniylik, majburiylik, haqiqiy emaslik, xato, firibgarlik, majburlash, jus cogens.

Xalqaro shartnomalar xalqaro huquqda juda muhim o'rin egallaganligi sababli, shartnoma tuzish jarayonini to'liq tasavvur qilish uchun birinchi navbatda “shartnoma” tushunchasining qisqacha tavsifini tahlil qilish lozim.

Bundan tashqari, xalqaro shartnomaning haqiqiyliги masalasini muhokama qilishda, uning qonuniyligi va autentifikatsiyasiga ta'sir qiluvchi muhim omillarning, jumladan, “haqiqiylik” va “shartnomaning majburiyligiga rozilikni ifodalash” kabi huquq institutlarining huquqiy xarakterini o'rganish kerak.

Ma'lumki, davlatlar xalqaro huquq manbalarini yaratadilar, ular faqat o'zlarining tegishli tarzda va to'liq holda ifodalangan roziligi bilan qoidalar tizimi sifatida amal qiladi. Shu munosabat bilan, ushbu tushunchalarni aniqroq tushunish uchun ushbu o'rganishda shartnomalarning haqiqiyliги tahlil qilinadi. Shuning uchun xalqaro hujjatning haqiqiyliğini tadqiq qilish, birinchi navbatda, Vena konvensiyasi va 1986 yildagi Konvensiya prizmasi orqali tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969 yilgi Vena konvensiyasining 42-moddasi, 1-bandida aytilishicha, shartnomaning haqiqiyliги yoki davlatning shartnoma bilan bog'lanishiga roziligiga faqatgina Konvensiyani qoidalarini qo'llash orqali e'tiroz bildirilishi mumkin.

Xalqaro shartnomalarning haqiqiyliги kontseptsiyasi muhokama qilinar ekan, A.N. Talalayev, xalqaro shartnomaning haqiqiyliğini uning xalqaro huquqiy to'liqligi, birinchi navbatda, qonuniyligi



sifatida belgilaydi, unga ko'ra shartnoma kontragentlar tomonidan bajarilishi majburiy va xalqaro huquqning barcha boshqa sub'ektlari tomonidan hurmat qilinadi.

Xalqaro shartnomani haqiqiy emas deb topish uchun zarur bo'lgan muayyan elementlarning tahlil qilinishi muhimdir. Bunday elementlar qatoriga xalqaro shartnoma tuzish vakolati, shartnomada ishtirok etuvchi barcha tomonlarning roziligi, shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va e'lon qilish talablari kiradi. Ushbu komponentlarni o'rganish orqali biz xalqaro hujjatning haqiqiyliги institutini yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Masalan, xalqaro shartnoma tuzish vakolati davlatlarga (Vena konvensiyasining 6-moddasi) va xalqaro tashkilotlarga (1986 yilgi Vena Konvensiyaning 6-moddasi) berilgan. Bundan tashqari, xalqaro shartnomani tuzish vakolati "to'liq vakolatlar" institutiga tegishli bo'lib, ushbu tadqiqotda batafsilroq tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, yuqorida aytib o'tilgan boshqa element bu shartnoma ishtirokchisining shartnoma o'zi uchun majburiy kuchga ega bo'lishiga roziligini ifodalashidir. Vena konvensiyasining 11-17-moddalari talablaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ishtirokchining shartnoma o'zi uchun majburiy kuchga ega bo'lishiga roziligini ifodalashi shartnoma tuzish qobiliyatining muhim omili bo'lib, har qanday xalqaro hujjatning haqiqiyligiga bevosita ta'sir qiluvchi alohida mustaqil institut sifatida e'tirof etish joizdir.

Bizning tahlilimiz doirasidagi yakuniy element shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va nashr etish uchun talablardir. Vena konvensiyasining 80-moddasi xalqaro hujjatlarni ro'yxatga olish va nashr etishga bag'ishlangan bo'lib, unda xalqaro hujjatlar kuchga kirgandan keyin ro'yxatdan o'tkazish va e'lon qilish uchun depozitariyga yuborilishi nazarda tutilgan.

Shunday qilib, birinchidan, agar xalqaro hujjat allaqachon kuchga kirgan bo'lsa, shartnoma o'z-o'zidan kuchga kirgan deb belgilanishi mumkin. Ikkinchidan, xalqaro hujjatning nashr etilishi ba'zi hollarda uning qoidalarida nazarda tutilmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va e'lon qilish talablari xalqaro huquq nazariyasining alohida instituti sifatida qabul qilinishi mumkin, bu shartnomaning muayyan hollarda haqiqiyliгiga ta'sir qiladi.

Shuning uchun shartnomaning majburiylikiga haqiqiylik (haqiqiy emasligi) haqidagi tushunchalar, shuningdek, boshqa fikrlar ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, shartnoma uning haqiqiyliгiga asoslangan kamchiliklar tufayli hech qachon kuchga kirmasligi va qonuniy kuchga ega bo'lmasligi mumkin emas. Aksincha, hujjat tugatilishi mumkin va o'z kuchini yo'qotadi hamda o'zining haqiqiyliгini yo'qotadi, shunga qaramay, uning majburiylik uning amal qilish muddatini buzish bilan to'xtatilmaydi.

Xalqaro shartnomalarning "yuridik jihatdan majburiylik" va "qonuniy kuchga egaligi" tushunchalari haqidagi yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, ushbu tadqiqotda biz xalqaro shartnoma yuridik kuchga ega bo'lsa, uni tuzishda shartnoma tuzilgunga qadar qandaydir maqsadlarga erishish uchun unga amal qilingan bo'lishi kerak degan fikrdan kelib chiqamiz.

Shunday qilib, bu belgilangan vazifalar va maqsadlar qandaydir normalar, qoidalar yoki tavsiyalarni ro'yobga chiqarish orqali amalga oshiriladi. Ushbu normalar yoki qoidalar yuridik faktlarni aniqlash, o'zgartirish yoki bekor qilish uchun majburiy kuchga ega bo'lishi kerak. Xalqaro shartnoma haqiqiy bo'lishi mumkin, lekin ayni paytda huquqiy jihatdan majburiy kuchga ega emasligi haqidagi bayonot, agar xalqaro hujjat boshidanoq majburiy xususiyatga ega bo'lmagan taqdirdagina to'g'ri bo'lishi mumkin. Masalan, deklaratsiyalar yoki o'zaro anglashuv memorandumlari ko'p hollarda tavsiyaviy xususiyat kasb etadi yoki huquqiy jihatdan majburiy kuchga ega bo'lgan qoidalarni o'z ichiga olmaydi.

Shu sababli, xalqaro shartnomalar nuqtai nazaridan "huquqiy jihatdan majburiy" va "huquqiy kuchga ega" tushunchalari o'rtasidagi munosabatni tahlil qilar ekanmiz, ushbu tadqiqot doirasida xulosa shuki, agar xalqaro shartnoma yuridik jihatdan kuchga kirgan bo'lsa, u yuridik jihatdan majburiydir. Shartnoma uning ishtirokchilari tomonidan, oldindan yuridik jihatdan majburiy xususiyatga ega bo'lmasligi maqsadida tuzilgan xalqaro shartnomalar bundan mustasno.

Biroq, ba'zi mualliflar yuqorida qayd etilgan omillarga qo'shimcha ravishda, bir-biriga zid bo'lgan shartnoma qoidalarini bugungi kunda shartnomalarning haqiqiy emasligi uchun asos sifatida ta'kidlaydilar.



Shunga qaramay, bizning fikrimizcha ushbu tadqiqotda shartnomalarning bir-biriga zid ekanligi tushunchasi ko'proq shartnomalar ierarxiyasi, shu jumladan bir xil mavzuga oid ketma-ket shartnomalarning implementatsiyasi bilan ko'proq bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni e'tirof etish joizki, xalqaro shartnomalarning amal qilish institutiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin, jumladan (lekin kamida) xalqaro shartnoma tuzish vakolati, ishtirokchilarning roziligi, shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va e'lon qilish uchun talablar, ammo xulosa: bu jihatlar haqiqiylik institutini tashkil etuvchi komponentlar emas, ular xalqaro huquq doktrinasining alohida tushunchalaridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ige F. Dekker Making sense of accountability in international institutional law, Netherlands Yearbook of International Law, Cambridge University Press, 2005.
2. Jan B. Mus Conflicts between Treaties in International Law, Netherlands International Law Review, Volume 45, Issue 2, August 1998.
3. Malgosia Fitzmaurice International law, ed. M.D. Evans, Oxford, 2004.
4. Marcelo G. Kohen Article 42 – Convention de 1969. Olivier Corten and Pierre Klein (eds.), Les Conventions de Vienne sur le droit des traités: Commentaire article par article, Leiden Journal of International Law, 3 volumes, Brussels, Bruylant, 2006.
5. Vienna Convention on the Law of Treaties: a commentary, edited by Oliver Dörr and Kirsten Schmalenbach, 2nd edition. Springer-Verlag, Berlin, 2018.
6. А.Н.Талалаев Право международных договоров: Договоры с участием международных организаций / А.Н.Талалаев. – Москва: Международные отношения, 1989.

ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШ ШАРТНОМАСИНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ

Исломқулова Шохсанам Ваҳобжон қизи,

ТДЮУ таянч докторанти

E-mail: shoxsanams85@gmail.com

Тел: (91) 010-98-16

Аннотация. Ушбу тезисда врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталаш шартномасининг аҳамияти, унинг мажбурий ёки ихтиёрий тузилишининг афзалликлари ва Россия Федерацияси мисолидаги қиёсий таҳлиллар ўз аксини топган.

Калит сўзлар. врач, касб, жавобгарлик, касбий жавобгарлик, суғурта, врачнинг касбий жавобгарлигини суғурта қилиш шартномаси, суғурта таърифлари.

Тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлигини суғурта қилиш кўплаб хорижий мамлакатларда фаол амалга оширилмоқда. Мазкур суғурта юқори ижтимоий аҳамиятга эгадир, чунки у фуқароларга самарали тиббий хизмат кўрсатиш, муайян тиббий ёрдам кўрсатиш усуллари ва технологияларини ишлаб чиқиш имкониятини беради. Ушбу суғурта тизими тиббий ташкилотлар ва даволаниш вақтида соғлиғига зарар етказилган беморларнинг манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган.

Тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлигини суғурталаш беморларга етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш сифатида суғурта тўловларини тез ва тўлиқ олиш имконини беради. Ушбу суғурта тури тиббий ташкилотларнинг жабрланувчилар билан низоларни мустақил ҳал қилишда кўрган харажатларини камайтириш ва қоплашга қаратилган. Суғуртанинг ушбу тури билан низоларни судгача ҳал қилиш судларнинг иш юкини камайтиради. Бу тиббиёт ходимларида ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилишга бўлган ишончни таъминлайди, уларга



ўзларининг кундалик касбий фаолияти доирасида, муайян беморнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, замонавий тиббий технологиялар ютуқларидан фойдаланган ҳолда энг самарали қарорлар қабул қилиш имконини беради.

Афсуски, ушбу ҳуқуқий муносабатларнинг етарли даражада қонуний тартибга солинмаганлиги сабабли, Ўзбекистон Республикасида тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлигини суғурталаш билан боғлиқ муносабатлар кенг авж олмаган. Суғурталанган шахсни ва шартнома шартларини белгилаш билан боғлиқ барча масалалар томонларнинг келишувига қолдирилади, бу ҳар доим ҳам ушбу ҳуқуқий муносабатларнинг барча иштирокчиларининг манфаатларига жавоб бермайди.

Россия Федерациясида асосан юридик шахс бўлган тиббиёт ташкилотлари ўзларининг касбий жавобгарлигини суғурталайди. Аммо рус олими В.Я.Геистнинг фикрича, касбий жавобгарликни суғурталашнинг ўзига хос хусусиятлари ва моҳиятига кўра, юридик шахс бундай шартнома бўйича суғурталанган бўла олмайди, чунки у “касбга эга” эмас [1]. Яна бир рус олими В.Ермаков ҳам В.Я.Геистнинг фикрларини қўллаб-қувватлаган [2]. Яна айрим фикрларга кўра, юридик шахс ҳақиқатан ҳам касбга эга бўлмаслигига қарамай, у ўз ходимлари томонидан етказилган зарар учун жавобгар бўлади, улар ўз навбатида меҳнат шартномаси доирасида касбий фаолиятни амалга оширадilar. Шунинг учун юридик шахс ўз тиббиёт ходимларининг касбий фаолияти давомида етказилган зарар учун жавобгарликни суғурта қилиш ҳуқуқига эга.

Ушбу масаланинг долзарблиги юридик шахснинг ўз ходимларининг жавобгарлигини суғурта қилиш қобилияти ушбу шартнома бўйича моддий харажатларни ўз зиммасига оладиган суғурта қилдирувчини танлаш муаммоси билан бевосита боғлиқ. Бир томондан, тиббий хизматлар кўрсатиш пайтида беморга етказилган зарар ушбу хизматни ёки унинг бир қисмини кўрсатувчи тиббиёт ходимининг ҳаракатлари билан узвий боғлиқдир. Бошқа томондан, ўрнатилган амалиётга кўра, юридик шахс ўз ходими томонидан меҳнат вазибаларини бажаришда етказилган зарарни қоплайди.

Бизнингча, бугунги кунда давлат барча тиббиёт муассасаларидаги тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлигини суғурта қилиш имкониятига эга эмас.

Жумладан Россия Федерациясида тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлик суғуртасига нисбатан қўлланиладиган тарифлар давлат томонидан тартибга солинмайди. Суғурта ташкилотлари ушбу масалага мустақил равишда ёндашадilar, тегишли тариф йўриқномаларини ишлаб чиқадilar ва уларни ваколатли мансабдор шахс ёки бошқарув органи томонидан келгусида фойдаланиш учун тасдиқлайдилар.

Шунингдек, Россияда таъриф ставкаси келиб чиқадиган суғурта ҳодисасининг ҳолатига қараб ҳам фарқланади. Масалан беморга ташхис қўйиш, даволанишни ўтказишда хатолик туфайли зарар қўрган етказилганда асосий тариф миқдори қолганлардан сезиларли даражада фарқ қилади. Афтидан, бу ёндашув тиббий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятлари ва инсон танаси - ушбу фаолият объекти билан боғлиқ хавфларга асосланган. Ахир, ҳар бир тананинг ўзини қандай ўзига хос хусусиятлари борлигини тўлиқ ишонч билан олдиндан айтиб бўлмайди.

Суғурта таърифлари мутахассис томонидан мустақил равишда белгиланади ва қуйидаги ҳолатларга боғлиқ бўлади [3]:

тиббий ташкилотнинг ихтисослашувига;

тиббиёт ходимларининг касбий тажрибасига;

ходимлар сони ва уларнинг малакасига;

кўрсатилган тиббий хизматлар ҳажми ва ўтган йилдаги беморлар сонига.

Бундан ташқари, тиббий фаолият учун жавобгарликни суғурта қилиш шартномасини тайёрлаш доирасида суғурта суммаси ва жавобгарлик чегаралари белгиланиши керак. Суғурта суммасининг миқдори тиббиёт муассасасининг ихтисослигига, тиббиёт ходимларининг сонига ва зарар етказиши мумкин бўлган беморларнинг сонига боғлиқ. Суғурта суммасининг миқдорига, шунингдек, маълум харажатлар (юридик, экспертиза ва бошқалар) ва (ёки) маънавий зарар қопланиши керакми ёки йўқлиги таъсир қилади.



Иш берувчи ўз ходимлари учун ҳақиқатан ҳам жавобгар бўлса-да, беморнинг ҳаёти ва соғлиғига зарар етказиш эҳтимоли бевосита ҳар бир тиббиёт ходими ва унинг касбий фаолияти доирасига боғлиқ.

Бу унинг фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ хавфлар бевосита тиббиёт ходимининг ихтисослигига, шунингдек унинг касбий тажрибасига боғлиқлиги билан изоҳланади. Суғурталовчининг ҳам, суғурта қилдирувчининг ҳам манфаатларини таъминлаш учун ушбу шартлар ҳисобга олиниши керак.

Хулоса сифатида ушбу мақолада таклиф қилинган ташаббуслар Ўзбекистон Республикасида тиббиёт ходимларининг касбий жавобгарлигини суғурталашни янада фаол ривожлантириш ва самарали фаолият юритиш имконини беради. Мазкур таклифларнинг ҳаётга татбиқ этилиши мазкур тизимда кўриб чиқиладиган ҳуқуқий муносабатларнинг барча иштирокчилари манфаатларини таъминловчи ўзининг муҳим ижтимоий-иқтисодий вазифаларини намоён этиш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Гайст В.Я. Страхование профессиональной ответственности // Советник юриста. 2010. № 1.
2. Ермаков В. Страхование гражданской ответственности медицинских работников // Финансовая газета. 2003. Региональный выпуск. № 6–7.
3. Коробейникова Т.С. Договор страхования профессиональной ответственности медицинских работников: Актуальные вопросы практики // <https://cyberleninka.ru/article/n/dogovor-strahovaniya-professionalnoy-otvetstvennosti-meditsinskih-rabotnikov-aktualnye-voprosy-praktiki>

ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУГУРТАЛАШДА ЖАВОБГАРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Исломулова Шохсанам Ваҳобжон қизи,
ТДЮУ таянч докторанти
E-mail: shoxsanams85@gmail.com
Тел: (91) 010-98-16

Аннотация. Ушбу тезисда врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталашда ушбу жавобгарликнинг ўзига хос жиҳатлари, тиббий муассаса жавобгарлигидан фарқли томонлари, иккала жавобгарликни аниқ ажратишнинг врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталашдаги аҳамияти ўз аксини топган.

Калит сўзлар. врач, касб, жавобгарлик, касбий жавобгарлик, суғурта, врачнинг касбий жавобгарлигини суғурта қилиш, тиббий муассаса.

Врачнинг касбий жавобгарлиги ва тиббий муассаса жавобгарлигини аниқ фарқлаш ва ажратиш олиш врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталашда муҳим аҳамият касб этади. Чунки ушбу суғуртада суғурта ҳодисаси айнан врачнинг эҳтиётсизлик ва бепарволик оқибатидаги тиббий хатоси натижасида беморнинг соғлиғига зарар етказиш хавфи ҳисобланади.

Аммо ҳар доим ҳам беморнинг ҳаётига етказилган зарар врачнинг тиббий хатоси, айнан унинг айби натижасида келиб чиқмаслиги мумкин.

Ж.Т.Асқаровнинг фикрига кўра, “тиббий жавобгарлик” тушунчаси турли ҳолатларни камраб олади ва у шифокор жавобгарлигидан кенгроқ. Тиббий жавобгарлик, шунингдек,



стоматогларнинг жавобгарлиги, шифохоналарнинг юридик шахс сифатидаги жавобгарлиги, ҳамшираларнинг жавобгарлиги ва бошқа категорияларга нисбатан татбиқ этилади. Миллий қонунчилигимизга кўра, тиббий жавобгарлик ва унинг ҳуқуқий асослари “аралаш” тиббий-ҳуқуқий/юридик тиббиёт мавзусини ифода қилиши мумкин бўлса-да, тиббий жавобгарлик асосан ҳуқуқий маъно касб этади [1].

Тиббиёт муассасасининг жавобгарлиги дунёга машҳур “respondent superior” доктринасига асосланади. Ушбу доктринанинг моҳияти шундан иборатки, бу лотинча ибора бўлиб, сўзма-сўз таржимаси “уста жавоб беради” деган маънони англатади. Доктрина АҚШда пайдо бўлган ва у ўз ходими томонидан бепарволик ёки эҳтиётсизлик оқибатида содир этилган ҳуқуқбузарлиги учун иш берувчининг жавобгарликка тортилишини назарда тутди [2].

Respondent superior доктринаси қуйидаги талабларни ўзида ифодалайди:

доктринада, албатта, хўжайин-хизматчи ва иш берувчи-ходим муносабатлари бўлиши керак;

хизматчи ва ходимнинг ҳуқуқбузарлик ҳаракати унинг бевосита меҳнат фаолияти доирасида амалга оширилган бўлиши керак.

айбланувчи бепарволик ёки эҳтиётсизлик оқибатида ҳуқуқбузарликни содир этган пайтда ўз вазифалари доирасида ва (ёки) иш берувчининг манфаати учун ҳаракат қилиши керак.

Ушбу доктринанинг ифодасини Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 989-моддасида кўришимиз мумкин. Яъни моддага кўра, юридик шахс ёхуд фуқаро ўз ходими меҳнат (хизмат, лавозим) мажбуриятларини бажариб турган вақтида етказган зарарни қоплайди [3].

Аммо амалиётда кўп ҳолларда тиббиёт муассасаси ходимининг тиббий хатоси учун жавобгар бўлиб зарар қоплаган тақдирда ҳам ушбу зарарни тиббиёт ходимидан ундириб олгани бўйича ишлар талайгина. Шунинг учун ҳам тиббиёт муассасаси ва врачнинг тиббий жавобгарлигини аниқ ажратиш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз. Тиббиёт муассасасининг ўз ходимлари учун ҳар қандай ҳолатда ҳам жавобгар бўлавериши қуйидаги салбий оқибатларга олиб келиши мумкин:

тиббиёт муассасасини мулкӣ жиҳатдан заиф аҳволга олиб келиши;

тиббиёт ходимининг фуқаровий жавобгарликдан хавфсирамаслиги ва натижада унинг ўз касбига нисбатан масъулиятсиз муносабатда бўлиши;

врачнинг касбий жавобгарлигини суғурталашнинг қийинлашиши.

Ходимларнинг айби учун ҳам тиббий муассаса жавобгарлигининг асослиги шундан иборатки, врач ўзининг кабий фаолиятини айнан иш берувчининг манфаати юзасидан ва хизмат вазифасидан келиб чиқиб амалга оширади, бунда у тасдиқланган тиббий диагностика ва даъволаш стандартларига, шифокорлик тиббий касбий қоидаларига амал қилади.

Юқоридагиларда четга чиққан ҳолда хизмат вазифасини амалга оширган тақдирда врачнинг шахсан жавобгарлиги масаласи юзага чиқа бошлайди.

Ф.А.Ваитованинг таъкидлашича, тиббий хизмат кўрсатувчи шахс беморга қонунда назарда тутилган тартибда лозим даражадаги тиббий хизматни кўрсатиши лозим. Унинг мажбурияти қонунда назарда тутилган бўлсада, тиббий хизмат кўрсатиш ҳақидаги ҳар қандай шартномага нисбатан қўлланилади. Бинобарин, тиббий хизмат кўрсатиш ҳақида шартномавий муносабатга киришаётган вақтда тарафлар ушбу муносабатларни ҳуқуқий тартибга солувчи қонун нормаларига риоя қилиши, қонунда назарда тутилган талабларни (масалан, тиббий муассасалар учун белгиланган муайян даражадаги стандарт талаблар, зарур асбоб усқуналар, тиббий жиҳозларга, лаборатория ташхис хоналарига эга бўлиш ҳақидаги талабни) бажаришни ўз зиммаларига олади [4].

Юқорида врачнинг касбий жавобгарлиги ва тиббий муассаса жавобгарлигини аниқ ажратиш жавобгарликни суғурталашда муҳимлигини таъкидладик. Чунки бунда суғурта пули бевосита врачнинг айбли хатти-ҳаракати натижасидаги жавобгарлиги юзага келган ва суғурта ходисаси деб топилган тақдирдагина тўлаб берилади.



Бундан ташқари кейинчалик суғурталовчининг регресс талаб қилиш ҳуқуқи ҳам вужудга келиши мумкин. Хорижий давлатлар амалиётини умумлаштирган ҳолда суғурталовчи қуйидаги ҳолларда регресс ҳуқуқидан фойдаланиши лозимлиги ҳақидаги таклифларни илгари суриш мумин:

тиббиёт ходими томонидан жабрланувчининг ҳаёти ёки соғлиғига зарар қасддан содир этилган жиноий ҳаракат оқибатида етказилган бўлса;

тиббиёт ходими томонидан жабрланувчининг ҳаёти ёки соғлиғига етказилган зарар бепарволик оқибатида бўлишига қарамай, агар у тиббий хатоликни олдини олиш имкониятига эга бўлган ҳолда, бундай ҳаракатни амалга оширмаганлиги ёки тиббий ёрдамнинг сифати ва хавфсизлиги билан боғлиқ барча зарур стандартларга риоя қилиш учун ўз ваколатлари доирасида зарур чораларни кўрмаганлиги аниқланса;

тиббиёт ходими томонидан жабрланувчининг ҳаёти ёки соғлиғига зарар маст ҳолда (алкогол, гиёҳванд моддалар ёки бошқалар таъсирида) тиббий ёрдам кўрсатиш оқибатида етказилган бўлса.

Бундай ҳолда суғурталовчининг регресс талаб қилиш ҳуқуқи тиббиёт муассасасига қаратиладими ёки врачгами деган масала юзага келади.

Агар талаб қилиш ҳуқуқи иш берувчига қратилиши керак, деб оладиган бўлсак, бу келгусида бир қатор муаммоларга сабаб бўлиши мумкин. Масалан ўзининг касбий жавобгарлигини суғурталаган ҳар битта тиббиёт ходими ҳам муайян иш берувчида ишламаётган бўлиши, меҳнат таътилида, ҳомиладорлик таътилида бўлиши ёки шунга ўхшаш бошқа ҳолатлар юзага келиши мумкин. Амалиётда тиббиёт ходими фақат иш жойида эмас, уйда, кўчада ҳам беморга ташхис қўйишга ёки уни даволашга тўғри келадиган ҳолатлар мавжуд. Шундай ҳолларда агар тиббиёт ходими муайян иш берувчида фаолият олиб бормаса, бундай ҳолатда суғурталовчининг талаб қилиш ҳуқуқи чекланиб қолади. Қолаверса, аксарият ҳолларда амалиётда иш берувчилар ўзларининг ходимлари томонидан етказилган зарарни қоплаган тақдирда ҳам ушбу пулларни регресс тартибида айбдор ходимдан ундириб олиш ҳолатлари кўплаб учрайди. Шундай экан суғурталовчининг регресс ҳуқуқи бевосита тиббиёт ходимига қартилиши мақсадга мувофиқ. Аммо тиббиёт ходими етказилган зарар ҳақиқатда иш жойидаги аҳвол, иш берувчининг топшириғи ва шунга ўхшаш иш берувчинингайби билан содир этилганлигини исботлай олса бундай ҳолларда ФКнинг 989-моддаси қоидаларини қўллаш тўғри бўлади.

Демак, агар тиббиёт ходими ўзи томонидан юқоридаги ҳолатлар бўйича етказилган зарар тиббиёт муассасасининг айби билан содир бўлганлигини исботлай олса Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 989-моддаси қоидалари қўлланилади.

Хулоса қиладиган бўлсак, врачнинг тиббий-касбий жавобгарлигининг қуйидаги ўзига хос хусусиятлари мавжуд экан:

жавобгарлик шахсий номулкий манфаатлар (беморнинг соғлиғи ва ҳаёти)га зарар етказилиши оқибатида келиб чиқади;

қонунда назарда тутилган ҳолларда зарарни тўлаш бошқа шахслар (жумладан юридик шахс)га ҳам юклатилиши мумкин;

тиббий хизмат натижасида зарар қандай етказилган ва зарарни қоплаш усуллари катъи назар, зарар тўлиқ қопланиши назарда тутилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Асқаров Ж.Т. Тиббий хизмат кўрсатиш соҳасида тадбиркорлик субъектлари фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш: юридик фанлар бўйича фалсафа доктори. ... дисс. – Тошкент, 2023. 97-б.

2. <https://www.drishtijudiciary.com/doctrines/indian-contract-act-doct/doctrine-of-respondeat-superior>

3. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси иккинчи қисм // збекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 11-12-сон, 1-модда.



4. Вайтова Ф.А. Тиббий хизмат кўрсатишга оид муносабатларни фукаролик-хукукий тартибга солинишини. Монография. – Т.: ЎзМУ, 2012. 108-б.

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ В КАЧЕСТВЕ ОДНОЙ ИЗ ФОРМЫ ПРОМЫШЛЕННОГО ОБРАЗЦА

Сатвалдиева Юлдузхон Хатамжан кизи

Старший преподаватель кафедры

«Гражданское право»

Ташкентского государственного

юридического университета

E-mail: Yulduz178@mail.ru

Тел: +998909009717

Аннотация

В данной статье анализируются способы защиты дизайнов одежды, рассматривая их в контексте авторского и патентного права. Автор обсуждает важность правовой защиты для узбекских дизайнеров, чтобы они могли успешно конкурировать на международной арене. Основное внимание уделяется регистрации дизайнов в качестве промышленных образцов, что позволяет защитить уникальные визуальные характеристики изделий. Автор отмечает, что, несмотря на сложности и длительность процесса получения патента, такая защита эффективна в условиях глобальной конкуренции. В статье также упоминается возможность защиты дизайна путем регистрации его в качестве товарного знака, особенно для крупных модных домов. В целом, правовая охрана рассматривается как ключевой фактор, стимулирующий инновации и защищающий финансовые интересы дизайнеров.

Phrases are vital not only as a means of communication but also as a source of varied socially valuable information since they are the result of long-term development, reflect the experience of society, and pass it on from generation to generation. In this way, historical development-which also takes into account cultural history-is what gives rise to a nation's national cultural semantics. The more colourful and varied the content of a nation's linguistic units, the richer its history. Comparative research on the phraseology of various languages contributes to a deeper comprehension of the structures of both languages as well as an enrichment of our knowledge of the literature, history, behaviour, and customs of the speakers of these languages.

There is a uniqueness of vision of the universe via the mirror of language and national culture in any phraseological unit. While the study of vocabulary as a source of country-specific information has a long history, phraseology in this regard is still understudied, despite the fact that many linguists acknowledge individual national, cultural semantics of phraseological units today. Simultaneously, it is noted that a major layer of a language's phraseology emerges precisely on a national basis. V. V. Vinogradov's contributions to the formation of many works on the phraseology of various languages are noteworthy. One of the criteria for the development of phraseology as a linguistic science is the accumulation of systematized information. Phraseology has evolved into an independent linguistic field with its own purpose and methods of research over the last few decades, outgrowing the framework of one of the divisions of lexicology.

The well-known works of V. V. Vinogradov dedicated to Russian phraseology marked a significant milestone in the study of phraseology in various languages.¹ The fact that these works filled a gap explains the huge influence of this scientist's works on practically all research in the field of phraseology. It appeared as a result of a lack of understanding of the semantics of stable word combinations. The idea of V. V. Vinogradov was a special stage in the development of the theory of indecomposable combinations.² Three types of phraseological units were identified by V. V. Vinogradov:

1. Phraseological fusions - unmotivated units that function as synonyms for words, that is, they are semantically invisible phraseological units, and the meaning of their constituents has no

¹ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. // Академик А.А. Шахматов (1864-1920). -М.,1974.-р45-69

² Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.- Л., 1963. – р5



bearing on their meaning.³ Furthermore, phraseological fusions are the most advanced step of blending. For example: “a flower of the flock”- “the best person in a group or family”, “to kick the bucket”-“to die”, “a mare’s nest”-“a difficult, complicated, or confusing situation”.

2. Phraseological unities are motivated units that combine the meanings of lexical components to form a single integral meaning³, for example: “to throw dust in someone’s eyes”-“to mislead someone”, “to be a red rag to the bull”- “to be certain to produce an angry or violent reaction”.

3. Phraseological combination or collocation is that turns in which one of the components has a phraseologically linked meaning. It only appears in relation to a narrowly restricted set of concepts and their linguistic identifiers³, for instance: “to play a prank” – “to do a trick”, “to play gigs”-“to be given small, informal performance”.

Phraseological expressions are phrases that are stable in their formation and use, consisting solely of words with a free meaning. They are not just semantically articulated. We can add to phraseological expressions proverbs, sayings or quotes, such as: “drink, as you brew, so you must”- “O’zing pishirgan osh aylanib ham o’rgilib ham ozing ich”, “One swallow does not make a summer”- “Bir qarg’a bilan qish kelmas”, “Never try to prove what nobody doubts”-“Befoyda so’zni aytma. Foydali so’zdan qaytma”.

In conclusion, the characteristics of phraseological units, their distinctions from variable combinations of words, examination of the types of their meanings, structure, component dependencies, and regular and irregular use necessitate the employment of specialized research methodologies. Even though phraseology is so versatile, no single system can claim to have a stranglehold.

References:

1. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. // Академик А.А. Шахматов (1864-1920). -М.,1974.-p45-
2. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.- Л., 1963. – p5
3. Кочерган М.П. Вступ до мовознавства: Підручник для студентів філологічних спеціальностей вищих навчальних закладів освіти. – К.: Видавничий центр «Академія», 2002
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: учеб. пособие / А.В. Кунин. – 3-е изд. – Дубна: Феникс+,2005. – 488 стр. – ISBN 5-9279-0047-X.

«ALISHER NAVOIY ASARLARI IZOHLI LUG‘ATI» DA UZUMCHILIKKA SOHASIGA OID LEKSIKANING IFODALANISHI

Nuriddinova Nafisa Muxiddin qizi
SamDCHTI akademik litsey bosh o‘qituvchisi
Tel: 939987428

Annotatsiya: Alisher Navoiy asarlari tilida sohaviy terminologiya, xususan, uzumchilik sohasiga oid leksikaning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonini aniqlash uchun ularni tarixiy-etimologik, geneologik jihatdan o‘rganish, semantik xususiyatlarini yoritish zarur. Ushbu maqolada «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» dan o‘rin olgan sohaviy terminlar, shuningdek, uzumchilikka oid leksik birliklarning leksik-semantik mazmuniga diqqatni qaratganmiz.

Kalit so‘zlar: lug‘atlar, qishloq xo‘jaligi leksikasi, Navoiy asarlari lug‘ati, sohaviy terminlar.

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarini, jumladan, ilmiy merosimizni tadqiq qilishga katta yo‘l ochib berildi. Shu kunning til, tarix, madaniyat bilan bog‘liq muammolarini

³ Кочерган М.П. Вступ до мовознавства: Підручник для студентів філологічних спеціальностей вищих навчальних закладів освіти. – К.: Видавничий центр «Академія», 2002



hal qilishda yozma yodgorliklarga murojaat qilish muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Bunday asarlarni o'rganish, jumladan, til tarixini o'rganish millatning shakllanish tarixi, merosi, madaniyati haqida zarur ma'lumotlar beradi. Ma'lumki, har qanday til hodisasini tarixiy jihatdan o'rganishning yagona ilmiy yo'li birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdir. Ko'p davrlardan buyon e'tibor berib kelinayotgan tilshunoslik va uning asosiy sohalaridan biri bo'lgan lug'atchilikka oid izlanishlar, albatta, til taraqqiyotining asosiy aspektlardandir. Bu borada, o'tmishda va hozirda Alisher Navoiy asarlari yuzasidan bir qancha lug'atlar yaratilganligi bizga ma'lum. Xususan, «Badoye-ul-lug'at», «Xamsa bo halli lug'at», «Abushqa», «Sangloh», «Lug'ati atrokiya», «Lug'ati turkiy», «Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy», «Halli lug'ati «Xamsa» yi Navoiy», «Halli lug'oti chig'atoyi «Xamsa» yi Navoiy», «Nisobi Navoiy», «Lug'ati Amir Navoiy», «Dar bayoni lug'ati Navoiy, «Halli lug'ati chig'atoyi» hamda Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan «O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at» (1953) va yana shu mualliflar tomonidan 1972-yilda tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari lug'ati», 1983-1985-yillarda tuzilgan «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» (4 tomli), shuningdek, «Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at (1993, B.Hasanov) kabilar shular jumlasidandir. Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan turkiy, forsiy, arabiy so'z va iboralar mazkur lug'atlarda izohlangan. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining leksikologiya va leksikografiya bo'limida tayyorlanib, nashr etilgan 4 jildlik «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati» nisbatan to'liqligi bilan e'tiborni tortadi. Tadqiqotchilar boy faktik materiallarni aynan shu lug'atlardan to'laqonli o'rganishi mumkin. Zero, «Alisher Navoiy merosi mangulikka daxldor so'z maxzanidir».⁴ Shundan kelib chiqib, ANATILda qo'llangan so'z boyligini, jumladan, sohaga oid leksikaning ma'nolarini semantik jihatdan tadqiq etamiz.

Turli sohalarga oid so'z va terminlar o'zbek tilshunosligida o'rganilgan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanish davri hisoblangan Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq mukammal, umumlashtirilgan leksikologik tadqiqotlar ko'p emas. Navoiy asarlari tili leksik boyligining ma'lum qismini qishloq xo'jaligi dunyosini aks ettirgan so'zlar tashkil etadi. Tadqiqotda Alisher Navoiy asarlari tilidagi ba'zi uzumchilik sohasiga oid so'zlar to'planib, ular qiyosiy, geneologik, leksik va semantik yo'nalishlarda tadqiq etildi. Bunday dolzarb masalalarning ijobiy hal etilishi Navoiy asarlari leksik boyligi haqidagi ilmiy, nazariy bilimlarni to'ldiradi, o'zbek tili leksikasi taraqqiyot yo'lini to'g'ri belgilashda ulush bo'lib qo'shilishi shubhasizdir. «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati»da keltirilgan tadqiqotimizga oid bir qancha leksik birliklarning bugungi «Qishloq xo'jaligi terminlarining izohli lug'ati»dagi ma'nolarini qiyoslagan holda nozik qirralarini tahlil etgan holda e'tiboringizga havola etamiz:

Kahgil- somonli loy. Mohvash vasl ichra bo'lg'och komyob, Dedikim, kahgilg'a urdilar gulob. Bugungi kunda somonli loy uzumchilik sohasida ham keng ishlatiluvchi unsurlardan biridir. Chunki areal jihatdan O'zbekistonning ba'zi viloyatlarida, xususan, Samarqandning Urgut, Tayloq tumanlarida somonli loy asosida mayjo deb ataluvchi joy hozirlanadi va bunda uzumlarning g'ujala qismi shu yerda yoyilib quritiladi. «Mayjo» leksikasining QXTILda keltirilmaganligini inobatga olib, xalq leksikidan unumli foydalangan holda lug'atni boytishimiz mumkin. Jo'ya- jo'yak, ariq. Toki bir jo'ya aro kesmakta tok, Ayladi oni yilon sanchib halok. Navoiyning «Lisonut-tayr» asarida keltirilgan yuqoridagi misralaridagi jo'ya so'zi aynan tokning jo'yasi ma'nosida qo'llanilgan.⁵ «QXTIL» da ham jo'ya terminiga quyidagicha izoh berilgan: Jo'ya //jo'yak – ekin arig'i, ikki pushta o'rtasidagi ariq.⁶Demak, bugungi kunda tilimizda faol iste'molda bo'lgan bunday leksikalar XIII-XIV asrlarda ham keng muomalada bo'lganligini ko'rsatadi. Mavizob- mayiz suvi, sharbat.: Ravotib ro'za oyida har kecha o'n besh botmon bug'doy, besh botmon poludai dushobdin yo mavizobdin

⁴ Тожибоева М. Алишер Навоийнинг «Илк девонида арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини»: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021. – Б. 10

⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. IV жилдлик. I жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.1. – 1983. – 110 б.

⁶ Jabborov X. Qishloq xo'jalik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Qarshi, 2020. 46-b.



o'ttuz tabaq ulcha ehtiyoj bo'lg'ay. QXTILda sharbat- yangi uzilgan va terilgan meva, rezavor mevalar hamda sabzavotlardan siqib olinadigan shirali suyuqlik, meva suvi. Demak, Navoiy asarida keltirilgan mavizob so'zi o'rnida bugungi kunda sharbat muqobili qo'llanilmoqda. Bunday leksikalarni arxaik variant sifatida baholashimiz mumkin. Tok – o'simlik nomi, uzum toki: Chu men bir jom uchun dehqon asirimen, ajab ermas libosim tok bargi rishtai bel bog'larg'a tok o'lmoq. (Xazoyin ul-maoniy"). QXTILda tok – uzum novdasi. Uzum o'simligi. Ushbu leksika uzoq davrlardan beri o'z ma'no ottenkasini saqlab, xalq orasida keng iste'molda qo'llanilmoqda. Mul – may, sharob. Qon yutub bir gul g'amidin o'lganim yod aylasun, Gul chog'I har kimki bir gulrux elidin ichsa mul. Shuningdek, mul – may – boda so'zlari Navoiy asarlarida sinonim tarzda qo'llanganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan leksikalar fors-tojik tilidan mast qiluvchi ichimlik ma'nosida ayni shu davr umumiste'molida qo'llangan bo'lsa, bugungi kunda qishloq xo'jaligida lotincha so'zdan olingan vino termini bilan qo'llanilmoqda: Vino - aylanuvchi, o'raluvchi. Uzum va mevalar sharbati yoki turpini achitqilar ishtirokida bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan ichimlik. Uzum – uzum, tok: Jahon g'ami-yu uzum bodasi gumon qilmang, Ki zohir ahlig'a bu ma'ni etti bo'yla zuhur. QXTIL da uzum – tok o'simligining g'ujumlaridan iborat mevasi deb izohlangan. Umuman olganda,

Umuman olganda, Navoiy asarlaridagi sohaviy leksika, jumladan, bog'dorchilikning uzumchilik sohasiga oid birliklar tilimizning asriy tarixidan so'zlashi bilan qiziqarlidir. Ularni leksik, stilistik, tematik, geneologik, terminologik va ayrim o'rinlarda leksik-grammatik tomondan tahlil etish eski o'zbek adabiy poetic tilining qirralarini ochib berishga katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. I жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.1. – 1983. – 662 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдлик. II жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985. Т.2. – 1983. – 642 б.
3. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. – Б.87.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 187
5. Тожибоева М. Алишер Навоийнинг «Илк девонида арабча сўзларнинг лексик-семантик талқини»: Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021.

GENDER LEKSIKASI TARJIMASIDA MUQOBILLIKKA ERISHISH OMILLARI

Abdullayeva Nargiza Axmadjonovna
Namangan davlat universiteti
Ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi
email:nargiza3967757@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada gender leksik birliklari tarjimasida muqobillikka erishishda tarjimonning reseptor sifatida asliyatni to'liq anglab yetishi va keyingi bosqichda o'zining bilim va tajribalariga tayangan holda genderlik ifodalovchilarni qayta yaratish borasida fikrlar bayon qilingan. Bundan tashqari muqobillikning asosiy omillari sifatida bevosita va bilvosita tarjimaning ahamiyati hamda tarjimoni qiyoslash muhimligi tahliliy misollar bilan ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: muqobillik mezonlari, reseptor, produktivlik, bevosita va bilvosita tarjima, qiyoslash mezonlari, tarjima muvofiqligi.

Ma'lumki, asar reseptorligi iborasini kitobxon yoki o'quvchi so'zlariga sinonim shaklda olishimiz mumkin. Tarjimon ham ayni vaqtda asliyatni tarjima qilishdan avval kitobxonlik vazifasini bajarishi lozim. Tarjimon asarni boshqa tilga o'girish mobaynida bir necha bosqichlardan o'tadi va



shulardan eng avvali bu reseptor bo'lishdir. Reseptor sifatida tarjimondan asliyat yaratilgan til, xalq, davlatning tarixi, madaniyati, adabiyoti, urf-odati va marosimlari, o'tmish va bugungi ma'naviy qiyofasi, xullas barcha tarjima uchun kerakli jihatlaridan boxabar bo'lish talab etiladi. I.G'ofurovning ta'biri bilan aytganda, tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to'g'risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo'lgandagina, qobiliyat teran bilimlar bilan quvvatlangandagina uning ijodi ishonchli, tushunarli, yuksak badiiy ifodaviylik va ta'sirchanlik kasb etadi.[1] Aksincha, hayotiy bilimlarning kamligi, asliyat asari va uni yaratgan adibning tarjimai holi, badiiy uslubi ijodiy-hayotiy qarashlarini tugal o'rganmaslik va bilmaslik, asliyat asari atrofidagi fikr-mulohazalar, bahslardan bexabarlik - hech shubhasizki, tarjimaning umumiy badiiy sifat darajasiga qattiq salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, mukammal resseptivlik zaminida samarali produktivlik o'z nishonasini ko'rsatadi. Yaratuvchi sifatida tarjima qilinayotgan badiiy asarning asosiy goyasi, unda qo'llanilayotga so'z va iboralarning konteksti, ya'ni ular qaysi joyda, kim tomonidan va qanday sharoitda ishlatilayotgani hamda o'g'irilgan asar kimlar tomonidan o'qilishi kabi omillar natijasida tarjimon asar muqobilligiga erishadi. Bu borada gender leksikasi tarjimasida ham aynan mukammal reseptorlik erkak va ayol o'rtasidagi munosabat, ularning o'zaro muloqot leksemalari, gender birliklarining lengvokognitiv hususiyatlari, gender leksikasining verbal va noverbal ifodasi kabi bir qator bilimlar tarjimondan talab etiladi. Masalan "Kerri erkaklar bilan qizlarning ana shunday beadab valaqlashlarini eshitib o'tirarkan hurpayibroq oldi. U bunday gaplarni eshitib yurmaganidan ular zamirida qandaydir berahmlik va qopollik yashiringanligini sezar, hozirgi damda tag'in bitta-yarimta menga shunday gap qilib qolmasin deb yuragi po'killab turardi." [2] Mana shu parchani ingliz tilidan tarjima qilish uchun tarjimondan 1890 yillarda Chikagoning ishchilar sinfi vakillarining madaniy saviyasi, erkaklarning ayollar bilan gaplashish etikasi, 18 soatlab tik oyoqda ishlashdek og'ir mehnat bilan shug'ullangan, hayotning go'zalliklaridan bebahra bo'lgan, qo'pol va manaviy qoloq yoshlarning ijtimoiy turmush tarzi xaqida xabardor bo'lishi talab qilingan. Ko'rinib turibdiki, "Ko'p ko'rgan ko'p bilar" [3] maqoliga amal qilgan holda tarjima jarayonida avvalo reseptivlik va so'ngra produktivlikni muqobillikka erishish mezonini sifatida qabul qilish mumkin.

Badiiy asar bu yaxlit bir matn hisoblanadi va tarjimaga qo'l urishdan oldin tarjimon qaysi matn ustida ish olib borishi ya'ni bevosita va bilvosita tarjimadan birini tanlab, aniqlashtirib olishi muhimdir. Asliyatni o'zga tilga tarjima qilishda, to'g'ridan-to'g'ri muallif tilidan foydalanib o'girilsa bu bevosita tarjima sanaladi. Agar tarjima vositali til negizida olib borilsa, bilvosita amalga oshirilgan bo'ladi [4]. Bu mezon orqali tarjimon bevosita asl nusxa yordamida muallifning genderga xos leksik birliklar orqali nima demoqchiligini anglab yetishi va uni kitobxonga havola qilishi bilvosita tarjimaga qaraganda osonroq kechadi. Bilvosita tarjima ham bevosita tarjimaning vazifalarini bajara oladi, faqat tarjimadan qilingan tarjima natijasida vositachi til tarjimadasidagi ayrim kamchilik va nuqsonlar keyingi tarjimaga ham o'tishi muqarrar. [5] Masalan, "He took Carrie's **little hand, and a current of feeling swept from one to the other.** "I'm so tired," said Carrie, leaning back in the car when Drouet began to talk. "Well, you rest a little while I smoke," **he said, rising, and then he foolishly went to the forward platform of the car and left the game as it stood.**" [6] "Он взял маленькую ручку Керри, и их обоих словно пронзил электрический ток. – Я так устала, – ответила Керри, когда Друэ заговорил было с ней в вагоне конки, и откинулась на спинку сиденья. – Тогда посиди, а я пойду покурю. Он встал и вышел на площадку, беспечно предоставив игре идти своим чередом." [7] "U Kerrining latif qo'lidan tutgandi, ikkovlariga ham elektr toki o'tganday bo'ldi. – Juda charchadim-a,-Kerri shunday deya o'rindiqning suyanchig'iga o'zini tashladi. Nega deganda, Drué konkaning vagonida gap boshlamoqchi bo'lib turgan edi-da.- Unday bo'lsa, sen dam olib o'tir, men chiqib chekib kelay,- **Drue qo'yni bo'riga topshirib, vagon maydonchasi tomon yurdi.**" [8] Rus tilidan bilvosita o'zbek tiliga o'girilgan ushbu parchaning asl nusxasidagi erkak va ayol munosabatlarini ko'rsatuvchi "a current of feeling swept from one to the other" jumlasini o'zbek tiliga "elektr toki o'tganday bo'ldi" tarzida berilishi bilan, m'ano tomonidan asl nusxadan chetlab ketish kuzatilgan, chunki aynan rus tilidagi "их обоих словно пронзил электрический ток" jumlasini so'zma so'z tarjima qilingan. Lekin keyingi o'rinlarda ruscha tarjimadagi "предоставив игре идти своим чередом" iborasini "qo'yni bo'riga topshirib" gendrologik zoomorfizm orqali berilishida asliyatning tagma'nosi o'zbek oquvchisiga



to'laqonli yetkazib berilgan. Shu sababli, bilvosita tarjimada ba'zi o'rinlarda asliyatga ham murojaat qilish, agar vositali til tarjima variantlari bir nechta bo'lsa, asl nusxaga eng yaqin bo'lgan shaklini vositachi sifatida tanlab olish o'rinlidir.

Tarjima ustida ishlash jarayonida u bir necha marta asl nusxa bilan batafsil solishtirib chiqiladi. Avval bo'laklab keyin esa butun asar tarjimasi so'ngida to'liq qiyoslanadi va buning asosiy maqsadi, asliyat va tarjimadagi berilayotgan ma'lumotning muqobilligini aniqlashdan iboratdir. Mutarjim o'z ishini qayta-qayta solishtirish orqali asliyatda berilgan biror axborotning tushib qolmasligiga yoki aksincha muallif tomonidan berilgan mazmunga putur yetkazuvchi ma'lumotlarni qo'shib ketmasligiga ishonch hosil qiladi. Qiyoslash orqali tarjimon erishishi mumkin bo'lgan yutuqlarni G'.Salomov quyidagilarda deb biladi. Ular mukammal tarjima yaratish jarayonini o'rganish; muallif uslubini qayta tiklash jarayonini kuzatish; turli davrlarda tilning leksik qatlamlarining tarkib topishi va boyishini tahlil qilish; tilda sifat o'zgarishlarini aniqlash; jamiyat va til munosabatlari muammosini yoritish; ikki tilli, ko'p tilli universal hamda regional terminologik va izohli lug'atlarni tashkillashdan iboratdir.[9] So'nggi tanlov qilib qiyoslash mezonini olishimizdan maqsad, mutarjim asar tarjimasi davomiyligida yuqoridagi barcha mezonlarni qo'llab ish yuritadi va nihoyat qayta-qayta solishtirishlar natijasida so'nggi nuqtani qo'yadi. Masalan, Gi de Mopassanning "Azizim" asarini bilvosita rus tilidan tarjima qilish jarayonida tarjimon asardagi bosh qahramon Dyuraga de Marel xonim ta'rifi uchun "**bogema**" so'zi tanlanganiga duch keladi va bu genderni ifodalovchi so'zni birinchi bor tarjimasida "**antiqa xotin**", "**topilmas xotin**" deb, asarning ikkinchi nashrida "**parivash**" so'zi bilan o'giradi, lekin tarjimonning o'z tanlovlaridan ko'ngli to'lmaganligi sababli uzoq qidirishlar natijasida, uchunchi nashrda yuqoridagilarning barchasini "**ofatijon**" so'zi bilan almashtiradi. Ko'rinib turibdiki, gender leksikasini qiyoslash orqali muqobil shaklga olib kelish mumkin.

Yuqoridagi gender leksik birliklari tarjimasida muqobillikka eltuvchi mezonlar ketma-ket uzviylikda bir-birini to'ldirib, tarjima mukammalligiga erishishda tarjimonga qo'l keladi va gender leksikasining badiiy asar tarjimasi muqobilligida ham samarali yordan beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ofurov.I. Mo'minov.O. Qambarov.N. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.-B.117
2. Drayzer. T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasi. -T.: "Yangi nashr", 2019.- B.45
3. Mirzayev.T. Musoqulov.A. Sarimsoqov. B. O'zbek xalq maqollari.- T.: "Sharq", 2005. - B.284.
4. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-B.29
5. Sharipova.B. Ziyodullayeva. Sh. Badiiy matn tarjimasida bilvosita tarjima va bevosita tarjimaning ustunlik tomonlari//Miasto Przyszłości. Impact Factor: 9.2. Kielce, 2023.-B.31-33
6. https://en.wikisource.org/wiki/Sister_Carrie/Chapter_11
7. Драйзер.Т. Сестра Керри. 100 лучших книг всех времен: www.100bestbooks.ru. С.57
8. Drayzer. T. Baxtiqaro Kerri. Ruschadan Erkin Nosirov tarjimasi. -T.: "Yangi nashr", 2019.- B.119
9. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari.- Toshkent: O'qituvchi,1983.-B. 88



UNDERSTANDING OF LANGUAGE VARIATION AND CHANGE

Meylinorova Feruza Baxtiyor qizi

“Profii University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi

Ingliz tili fani o’qituvchisi

feruzam623@gmail.com

Annotatsiya: Language variation and change is an integrated branch of linguistics that encompasses dialectology, historical linguistics, and sociolinguistics. A brief outline of the fields involved is that dialectology investigates regional variations in language, historical linguistics examines how languages evolve over time, and sociolinguistics investigates language variation in social contexts. This classification represents the belief that all three fields are connected by the fundamental idea of variation: change happens as a result of social and regional variation, and a great deal of variation thus represents ongoing change.

Kalit soʻzlar: Language variation and change, historical linguistics, sociolinguistics, dialectology.

Understanding the difference between language variation and language change is necessary to come to terms with the diversity and complexity of language as a dynamic system that evolves over both space and time. That is to say, language change and variation are closely related phenomena because change frequently results from and is caused by variation [1]. As speakers adopt or invent new forms of language to convey their identity, attitude, or preference, variation offers the possibility of transformation. Variation leads to change, with certain languages becoming more common, dominating, or standard while others become less common, restricted, or outmoded over time. The pronunciation of the word "bath" in British English, for instance, varies depending on the location and represents the historical shift from a short to a long vowel in some words. In other words, let us consider language as a breathing, living organism. Variations are the styles and peculiarities in speech that people use in different contexts or social groupings, such as accents or regional slang. Variations are similar to the various clothes it is wearing at the moment. On the other hand, language change is similar to witnessing the language develop and change throughout time. It's the slow change in the way we write and talk; consider how, in contemporary English, "thou" and "thee" have become "you." This is about significant shifts in language usage and structure over generations, not merely about style [2].

In addition, the term "language variation" describes the various ways that various social groups utilize language, including diverse regional dialects, social registers, and speaking elocutions. Many variables, including location, socioeconomic status, ethnicity, age, gender, education, employment, and situation, might have an impact on language variety [3]. For instance, depending on where they reside, who they engage with, and the context, English speakers may employ different accents, vocabulary, syntax, and idioms. Language variation encompasses several forms such as dialects, accents, registers, styles, and genres. Phonological, morphological, syntactic, semantic, pragmatic, and phonetic variations in language can all be investigated at various levels.

In contrast, language change describes how a language changes over time as new words, phrases, and grammatical structures are added and older ones become less common. A few instances of linguistic changes are sound alterations, grammaticalization, lexical invention, and borrowing. Linguistic innovation, analogy, simplification, regularization, and diffusion are examples of internal causes that can lead to language change. External forces that can also cause language change include language contact, borrowing, diffusion, and shift. For instance, from its beginnings as a Germanic language to its current position as a worldwide language, English has undergone tremendous change, impacted by a variety of languages including Latin, French, and Arabic. Language change can be tracked using a variety of sources, including historical records, comparative analysis, and reconstruction strategies.

Language change and variation are inevitable outcomes of people speaking and using different languages in various circumstances. As Berry (2002) pointed out, for the purpose of conversing about



new topics, people frequently need to expand their language's vocabulary [4]. If they go somewhere new, there might be new discoveries, thoughts, surroundings, and adventures. Alternatively, individuals might come into touch with languages that differ from their own in some way, bringing with them new vocabulary, pronunciations, or sentence structures. This exchange can occur as a result of immigration, invasion, or regular border interactions, such those that occur between the US and Mexico. According to Berry (2002), language systems are not completely stable, meaning that certain aspects of any language are always subject to modification because they are excessively complicated or difficult. For instance, if we consider the past tense of English verbs, many of them have evolved over time. It used to be frequent in English, as in "sing-sang" and "write-wrote" as in modern English, for a verb's past tense to be produced by changing its vowel. The regular past tense with the suffix "-ed" has gradually replaced many of these irregular verbs. Because they no longer need to be learnt one by one in their past tense forms, this regularization helps these verbs become easier to recall. As an example, "holp" has become "helped," while "low" has become "laughed." Naturally, this replacement occurs gradually over a number of generations. Since a new form is formed by analogy to an existing pattern, this transition from irregular to regular morphology is commonly referred to as analogic change or analogic leveling.

Not only this, English irregular plurals have likewise undergone regularization over time, such as "eyes" used to be "eyen," while "shoes" was once "shoon". It is also possible that a language can also pick up irregular forms from other languages. Latin is where the plurals "fungi" and "syllabi" originated. In contrast, the plurals "criteria" and "phenomena" were formed according to the Ancient Greek pluralization pattern. Additionally, simplification processes can be observed in a language's phonology since pronouncing certain sound combinations—often consonant clusters—can be challenging. Although they are tolerated by languages, speakers of that language may still find them simpler, which could eventually result in a shift in the language itself. The spellings of words like "limb," "drought," "bomb," "knight," and "gnat" give us an idea of word pronunciations that are no longer in use.

Languages can also change by accident, or at least without apparent cause, in the same way that trends shift yearly. Vowel pronunciations can change, for instance, becoming higher, more fronted, or more backed. It is also possible for stress to shift between syllables. As we will discover in a moment, these modifications have played a significant part in shaping English as it is now. Some words in English used to have an "l" followed by a consonant, but the "l" has been dropped from pronunciation like in words "walk", "talk", "half", etc. Occasionally, consonants that have been lost in pronunciation can be restored to spelling, such as the pronunciation "of-t-en". The word "often" pronounced with [t]. In actuality, this is a return to the pronunciation of the fifteenth century, although most American and British speakers still prefer the pronunciation without the [t]. This phenomenon refers to as a spelling pronunciation.

As we have previously stated, language change occurs gradually but unavoidably. The regulations that govern each generation alter slightly from those of the previous generation. Words are inserted and removed, morphological elements are simplified, pronunciations are altered, and forms from other languages are added. Despite the passionate wishes of many grammarians of the eighteenth century and their contemporary successors, all languages are dynamic, living systems that cannot remain stable. In any particular society, there are always opposing forces at play: those using their power to prevent language changes and those introducing innovations in response to speakers' innate need to maintain a suitably broad vocabulary while getting rid of superfluous complexity. The conflict between the two forces in question permits language to evolve, yet slowly enough to preserve intergenerational communication. The key takeaway from studying language history is that no language is ever truly fixed, that languages always evolve to meet the needs of their users, and that these changes lead to variations in how people use languages.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Breitbarth, Anne, Miriam Bouzouita, Lieven Danckaert & Elisabeth Witzenhausen (eds.). 2019. Cycles in language change. Oxford: Oxford University Press.



2. Fuß, Eric. 2017. Language change. In Ian Roberts (ed.), The Oxford handbook of universal grammar, 459–485. Oxford: Oxford University Press.
3. Gelderen, Elly van (ed.). 2013. The linguistic cycle: Language change and the language faculty. New York: Oxford University Press.
4. Barry, A. K. (2002). Linguistic perspectives on language and education. Greenwood Publishing Group.

KASB-KOR VA ULARNING EGALARINI IFODALOVCHI KASHTACHILIK TERMINLARI XUSUSIDA

Umarova Shaxlo Baxridin qizi-

A. Qodiriy nomidagi JDPU akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada milliy hunarmandchilikning qadimiy bir turi bo'lgan kashtachilik terminlari tahlilga tortilgan. Unda kashtachilik bilan shug'ullanuvchi kasb-kor egalari nomlari Samarqand viloyati materiallari asosida bayon etilgan. Unda ayrim kashtachilik terminlarining etimologiyasi hamda ularning boshqa hududlarga oid faktlar bilan qiyoslab berilishiga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: hunar, kashta, kashtachilik, kasb-kor egasi, termin, adabiy til, sheva, amaliy san'at, zardo'zlik, lug'at boyligi.

Ma'lumki, asrlar davomida jilolanib kelgan milliy hunarchiligimizdan biri kashtachilik san'atidir. Amaliy san'atning kashtachilik terminologiyasida kashta turlari, naqshlari, hajmi, tayyorlanish usuli, to'qilgan joyi hamda u bilan bog'liq kasb-kor egalari nomlarini ifodalovchi singari bir qator leksik-semantik guruhlar mavjud. Shunday guruhlardan bir kashtachilik bilan bog'liq kasb-kor va ularning nomlarini ifodalovchi leksik-semantik guruh hisoblanadi. Shu bois biz ishimizda mazkur lug'aviy birliklar haqida so'z yuritishning lozim, -deb topdik. Chunki ular ham umumlug'at boyligining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

O'zbek adabiy tilida hamda uning shevalari, xususan, Samarqand shevalarida ham qayd etilgan amaliy san'at turida asosiy kasb-kor egasining nomi kashtachi yoxud kashtado'z so'z/terminlari orqali ifodalanadi: mahalliy kashtachilar dekorativ kashta tayyorlashda iroqi chok bilan birga O'zbekistonga ma'lum bo'lgan boshqa choklardan ham foydalanadilar (Худоёрова, 2000, 21) // Enälärimizäm, momälärimizäm käshtächi bop otkän (Qo'shrabot); Har xonaga zeb beradi kashtado'zlari, Mehnatiday orombaxshdir shirin so'zlari (N.Narzullaev) // Käshtädozlärimiz tikkan käshtälä uyimizni chirayini achädu (Urgut).

Shu bilan birga, adabiy tilda va tadqiqot ob'ektimizda mazkur tushuncha yoyiq, ya'ni birikma shaklida ham qullanishi uchraydi: kashta tikuvchining o'rindig'i yumshoq, keng, suyanchig'i bo'lishi kerak (Худоёрова, 2000, 15) // Käshtä tikuvchinin miynäti äncä avir (Bulung'ur).

T. Tursunova shunday deb yozgan: «Chevarlik leksikasida kashta tikish ishi bilan shug'ullanuvchi kishi-kashtachi; badiiy tikish, naqsh tikish bilan shug'ullanadigan amaliy san'at tarmog'i kashtachilik (kashta-chi-lik) deb yuritiladi. Kashtachi va kashtachilik terminlarining kashtado'z (kashta-do'z), kashtado'zlik (kashta-do'z-lik) kabi leksik variantlari ham qo'llanadi. Kashtado'zlik kashta tikish ishi bilan shug'ullanuvchi shaxs (-kashtado'zlik emas, kashtado'z-Sh.U.) nomini, kashtado'zi (kashta+do'z+i) naqshi igna bilan to'qilgan gulli buyumlarni anglatadi» (Турсунова, 1978, 50). Muallifning mazkur ishida kashtado'zlik termini 4 marta (49, 50, 51, 83-betlar) gina ishlatilgan. Monografiyaning boshqa o'rinlarida esa faqat kashtachi va kashtachilik so'z/terminlaridan foydalanilgan. Yana bir ishda faqat bir marta kashtado'z ishlatilganligini ko'rish mumkin: O'zbekistonda badiiy kashtachilik san'ati o'z mahalliy xususiyatlariga ko'ra tarkib topgan bo'lib, turli shahar va tuman kashtado'zlari tikkan kashtalar va ularning gullari tavsifida aniq farqlanishlar mavjuddir (Qarang: Худоёрова, 2000, 9). Biz esa kashtachilik so'z/terminining kasb-hunar nomi sifatida qo'llanishining tarafdori bo'lib, ishimizda faqat shu termindan foydalandik:



Birinchiidan, garchi kashta asosi forsiy (كشند tortmoq, tortib olmoq, chizmoq, rasm chizmoq so'zidan) bo'lsa-da, unga -chi+lik affikslarining qo'shiluvidan rostmana o'zbekcha termin hosil qilingan⁷.

Ikkinchiidan, «O'zbek ensiklopediyasi»da kashtado'zlik emas, balki kashtachilik bosh maqola nomi qilib olingan va uning izohida faqat shu so'z/ terminidan foydalanilgan (ЎЗМЭ, VI).

Uchinchiidan, O'TILda kashtachi va kashtachilik asosiy lug'at maqolasi qilib olingan, kashtado'z, kashtado'zlik so'z/ terminlari ayn. (aynan) pometalari bilan ularga havola etilgan (I, 374).

To'rtinchiidan, hozirgi o'zbek matbuotida, asosan, kashtachi va kashtachilik so'z/ terminlari ishlatilayotganligini ham e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi. Misollar keltiramiz: Ammo ba'zi kashtalarda kashtachining butun diqqati hoshiyani bezatishga qaratilgan bo'lib, unga turli jilvali ranglar berilgan (Xudoyorova, 13): O'zbek kashtachiligida qo'llaniladigan choklar ham turlicha bo'lgan («Samarqand», 2020, 36).

Fikrimizni tasdiqlovchi muhim dalillardan yana birini keltiramiz. «O'zbek kashtachilik san'ati» (tuzuvchi O.Xudoyorova) nomli risolada 79 marta kashtachilik terminidan foydalanilgan. Kashtado'zlik esa faqat bir marta ishlatilgan, xolos (9-bet).

Beshinchiidan, Bulung'ur, Nurobod, Qo'shrabot, Payariq, Paxtachi, Narpay kabi tumanlar aholisi nutqida, asosan, kashtachi, kashtachilik so'z/ terminlari ishlatib kelinayotir. Samarqand shahri va uning atrofidagi ayrim qishloqlar hamda Urgut, Samarqand, Tayloq singari tumanlarda kashtado'z, kashtado'zlik so'z/ terminlarining ustun darajada ishlatilayotganligi bundan mustasnodir.

Nihoyat, oltinchiidan, T.Tursunovanning o'zi ham (Турсунова, 1978, 1987) ayni kashtachilik terminidan foydalangan.

Yo'rma kashtachilikda qo'llaniladigan chok turlaridan biri ma'nosini ifodalaydi va kashtachilikning o'ziga xos bir sohasi hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs yo'rmachi/jo'rmachi/yo'rmado'z/ jo'rmado'z kabilar orqali ifodalanadi: E boläm, nimä diysän, säpsim aräläshib ketkän. Jo'rmä tikuvchini jormächiyam diymiz, jormädozäm diymiz (Nurobod)//Samarqand shahrida o'tkazilgan yo'rmado'zlarning ko'rik-tanlovida urgutlik Oliy Maqsudova g'olib deb topildi («Zarafshon», 2022, 15.05).

T.Tursunovanning ta'kidlashicha, «Buxorada yo'rmado'zning leksik varianti sifatida zehdo'z so'z/ termini ham qo'llanadi. Zehdo'z fors-tojikcha zeh-«jiyak»-do'z «do'xtan»-tikmoq fe'liidan olingan bo'lib, «jiyak tikuvchi» ma'nosini anglatadi» (Турсунова, 1978, 51). Xuddi shu variant Urgut tumanining Omonqo'ton qishlog'ida ham qo'llanadi (Äpäm ze(h)dozgä shagird tushkän).

«Chizmakash, –deb yozadi L.G.Chepelevetskaya, –matoni bo'yiga, eniga va diagonal bo'ylab, kompozitsiyaning asosiy nuqtasi–markazni hamda hoshiyasi qaerdan o'tishini belgilab oladi» (Чепелевецкая, 1961, 21). Bundan kashtachilik sohasidagi maxsus kasb egasi chizmakash so'z/ termini bilan atalganligi ma'lum bo'ladi. Mazkur termin Bulung'ur, Qo'shrabot, Nurobod kabi tumanlarda keng qo'llanayotganligi qayd etildi: Qishläg'imizdä Närbuvi chizmäkashtän otäri jöq (yo'q) (Bulung'ur). Tadqiqot obyektimizda uning qalamkash sinonimi ham qo'llanishda ekanligi kuzatildi: Kashta tikishni endi o'rganayotgan qizlarimizga avval qalamkashlar gul chizib beradi, undan so'ng kashta tikish boshlanadi (Kattaqo'rg'on).

Kashtachilikning yana bir turi zardo'zlik⁸ deb ataladi. Zardo'zlik, ayniqsa, Buxoro va Samarqandda keng tarqalgan kasb-hunar turlaridan biridir. Shu kasb bilan shug'ullanuvchi shaxslar (asosan, ayollar) ona tilimizda zardo'z/termini bilan ifodalangan. Samarqandda ham mazkur termin shu ma'nosida ishlatib kelinayotir. Masalan: Yoshlarga kashtado'z va zardo'zlarimiz o'z hunarini o'rgatmoqdalar («Samarqand», 2019, 16.05).

Xalq hunarmandligida «guli tikib choklangan zardo'zi to'nlarining yoqasi, eng uchi va etaklariga jiyak o'rnatish bilan shug'ullanish ishi» zehdo'zlik deb ataladi. SHu kasb adabiy tilda ham,

⁷. Bu kabi leksemalarning o'z qatlamga tegishli ekanligiga qaralsin (Берматов, 1985).

⁸ Ta'kidlash joizki, zardo'zlik kashtachilikning o'ziga xos kattagina bir guruhchadir. *Shuning uchun ham zardo'zlik leksikasi Buxoro shahri va G'ijduvon tumani materiallari asosida maxsus tadqiqotda o'rganilib chiqilgan* (Бакаева, 1971). Shuningdek T. Tursunovanning monografiyasida ham zardo'lik leksikasiga o'rin ajratilgan (1978, 52-62). Shu tufayli Buxoro va Samarqand zardo'zligileksikasida unchalik farq bo'lmaganligi bois bu masalaga alohida to'xtalishni joiz, deb topmadik.



shevalarda ham zehdo'zlik deb nomlangan bo'lib, u kashtachilikning zardo'zlik turi bilan aloqadordir. Bu kasb bilan shug'ullanuvchi shaxs esa zehdo'z deb atalib kelinmoqda. Masalan: Samarqand zehdo'zlari tikkan buyumlar ko'zni qamashtiradi («Zarafshon», 2023, 15.06).

Kezi kelganda, shuni ta'kidlash lozimki, zehdo'z va zehdo'zlik kabi so'z/ terminlar ham kelajakda tuziladigan lug'atlarda o'z ifodasini topsa, ayni muddao bo'lar edi.

XIX asrning 90-yillarida kashtachilikda bir yangilik ro'y berdi: «matolarga ilma igna bilan kashta tikadigan mashina» paydo bo'ldi. Mazkur mashina rus ixtirochisi A.Popov tomonidan yaratilgan edi. Bu mashinada to'qilgan kashta esa «popop» deb atala boshlandi.

A.S.Morozovaning uqtirishicha, popop so'z/ termini mashinada tikish vaqtidagi ovoz (pop-pop)ga taqlidan paydo bo'lgan (Morozova, 1960, 112). T.Tursunova ham mazkur fikrga qo'shilib shunday deb yozgan: «...popop mashinasi nomi haqiqatan ham tovushga taqlidan paydo bo'lgan so'z bo'lishi mumkin. Chunki xalq tilida mototsikl ham «pat-pat arava» yoki «pop-pop» mashina deb yuritiladi» (Tursunova, 1978, 52). Ikkala muallifning ham fikriga qo'shilish qiyin. Haqiqatda popop so'z/ termini mashina ixtirochisi A.Popov nomi bilan bog'liqdir. Darvoqe, «O'zbek tilining izohli lug'ati» da ayni shunday dalil qayd etilgan: popop [. Popov nomidan] ... (O'TIL, I, 508).

Shunday qilib, o'zbek tilida va uning shevalarida popop mashinasida kashta tikuvchi usta ma'nosini anglatuvchi popopchi termini paydo bo'ldi. Bu tushuncha Samarqandda popurchi yoxud popurdo'z tarzida qo'llanadi. Misollar keltiramiz: samarqandlik mashhur popurchi Salima Luqmonova har doim o'z hamkasblariga o'rnak bo'lib kelgan chevarlardan biri edi («Zarafshon», 2012, 18.05)//Man ma'ktabni bitirib popurdoz bolmoqchi (Samarqand shahri).

T.Tursunovaning guvohlik berishicha, mazkur shaxs nomi Buxoroda patdo'z, Toshkent va Farg'onada popopchi shakllarida qo'llanadi (Tурсунова, 1978, 52).

Adabiy tilda ham, Samarqand vohasida ham kashtachi/kashtado'z so'z/ terminlari safiga chokchi ham qo'shilib, sinonimik qatorni tashkil etadi: Keshtachilik artilimiz achilgandän keyin chäk (chok) tikuvchi ayäl-lärimizdi chäkchi (chokchi) diydigän boldiq (Qo'shrabot).

Kashtachilik sohasidagi yuqorida qayd etilgan shaxs nomlariga -lik affiksini qo'shish yo'li bilan kasb-kor nomlari ham yasalgan: kashtachilik /kashtado'zlik/kashta tikuvchilik, yo'rmado'zlik/jo'rmado'zlik, zehdo'zlik, zardo'zlik, chizmakashlik/qalamkashlik, popopchilik/popurchilik/popurdo'zlik /patdo'zlik, chokchilik.

Xulosa qilib aytganda, milliy hunarmandchilikning muhim tarmog'i bo'lgan kashtachilik terminlarining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, soha bilan bog'liq kasb-kor egalari nomlarining lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish tilshunosligimiz oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa yosh avlodning milliy hunarmandchilik sirlarini egallashga bo'lgan qiziqishlarini ham orttirishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ўзбек каштачилик санъати(Тузувчи С. Худоёрова). –Тошкент, 2000.

Турсунова Т. ўзбек тили амалий санъат лексикаси. –Тошкент: Фан, 1978.

Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. -130 б

Морозова А.С. Машинная вышивка. –Ташкент, 1960.

Чепелевецкая Г.Л. Ўзбекистон сўзанази (Сузани Ўзбекистана). –Ташкент: Гос.лит.издат Уз-а, 1961.

Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985.

Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.VI том.- Тошкент: ЎзМДЭ,2004.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1- жилд.-Тошкент, 2005.



THE DIFFERENCE BETWEEN PERSUASIVE DISCOURSE AND ORDINARY CONVERSATION

Zaure Kertaeva,

PhD Student of Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Abstract: This article defines persuasive discourse, its aim and rhetorical strategies comparing with ordinary conversation. Also, it discusses the difference between persuasive discourse and ordinary conversation on the examples of advertisements.

Keywords: persuasive discourse, ordinary conversation, rhetorical moves, advertisement

Аннотация: В этой статье определяется убеждающий дискурс, его цель и риторические стратегии в сравнении с обычным разговором. Также обсуждается разница между убеждающим дискурсом и обычным разговором на примерах рекламы.

Ключевые слова: убеждающий дискурс, обычный разговор, риторические ходы, реклама

We communicate constantly through persuasive discourse and everyday conversation in our community. Even though both persuasive discourse and everyday conversation involve sharing information, however they have distinct purposes and structures. Persuasive discourse aims at seeking to impact beliefs, attitudes, or actions, while everyday conversation typically revolves around sharing information, building social connections, or casual interaction in social contexts. An interesting way to examine these forms is by analyzing advertisements, which we can easily understand persuasive discourse is integrated into everyday discussions.

Persuasive discourse is strategically designed to influence an audience's thinking or decision-making. It is characterized by rhetoric techniques with a clear intent to convince or persuade. This type of discourse is mostly used in the fields such as marketing, politics, education, and law. Advertisements are good examples of persuasive discourse in action, as they aim to convince the consumers to buy a product or adopt a service (Fairclough, 1995). For example, a luxury car brand Lexus or Mercedes-Benz might say: "Compared to the Mercedes-Benz score of 218 PP100, Lexus is the clear winner in terms of dependability, trusted by experts"⁹. This sentence appeals to the authority and trustworthiness of the brand. The advertisement assumes that the audience will believe in the credibility of experts, so their endorsement is likely to persuade them to purchase the product.

Another example, an emotional appeal is often seen in advertisements for products like insurance or family-oriented services: "Protect what matters most: your family"¹⁰. This simple sentence appeals emotions of the customer by suggesting that their family's well-being. This advertisement persuades the customer to invest in the insurance being offered.

To compare persuasive discourse with ordinary conversation, ordinary conversation is more casual and does not necessarily aim to persuade. In everyday dialogue, people exchange information, build rapport, or maintain social relationships without a clear agenda to influence others' decisions or beliefs. However, this does not mean ordinary conversations are devoid of persuasion. Persuasive elements can appear, particularly when the conversational goal involves sharing recommendations or opinions. For example, a dialogue between friends about a new coffee shop:

John: "Have you tried that new café down the street?"

Sue: "No, not yet. Is it good?"

John: "Oh, you have to try it. Their espresso is amazing better than anywhere else I've been!" (Tannen, 2005).

In this casual exchange, John uses a recommendation to persuade Sue to visit the café. While the language is informal, it still includes an element of persuasion, especially in the positive

⁹ Retrieved from <https://www.lexusofakron-canton.com/lexus-vs-mercedes-benz.html>

¹⁰ Retrieved from <https://lifehappens.org/blog/protecting-what-matters-most-your-loved-ones/>



evaluation ("amazing") and comparative assertion ("better than anywhere else"). Modern advertisements often mimic ordinary conversations to make persuasive discourse feel more authentic and relatable.

There are several linguistic and rhetorical techniques that are used in persuasive discourse and in ordinary conversations:

1. Repetition: Repeating certain phrases or words to reinforce a message is common in both advertisement slogans and everyday speech. For instance, "Just do it" (Nike) capitalizes on this technique in a simple but highly effective manner, which could easily be echoed in daily conversation.
2. Storytelling: Stories create a narrative that engages the listener emotionally, making the message more compelling. Advertisements often tell short stories about a character's experience with a product, which mirrors how we might naturally share personal anecdotes in ordinary conversation.
3. Questions: Rhetorical questions are widely used in advertisements to engage the audience: "Why pay more for less?"

In ordinary conversation, rhetorical questions are also common and can subtly persuade someone without seeming confrontational. Both persuasive discourse and ordinary conversation shape the way we communicate and influence each other. Advertisements in terms of being good examples of persuasive discourse, demonstrate how language can be used to achieve specific goals whereas everyday dialogue seem more personal and believable. Whether in an advertisement or a casual dialogue between friends, language is a powerful tool for influencing thought and behavior, and understanding the mechanics of persuasive discourse can help us navigate both worlds with greater awareness.

References:

1. Tannen, D. (2005). *Conversational Style: Analyzing Talk Among Friends*. 2nd ed. Oxford University Press.
2. Fairclough, N. (1995). *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. Longman.

ERKALASH VA OVUTISH QO'SHIQLARINING EMOTSIONAL RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Fayzulloyev Otabek Muhamadovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
BuxDU, "Fakultetlararo xorijiy tillar" kafedrasini professori
Email: roginraz2015@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek bolalar folklorida erkalash va ovutish qo'shiqlarining bolalarning emotsional, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishidagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan. Qo'shiqlarning bolalar hayotida qulaylik va xavfsizlik tuyg'usini yaratishda, ularni tinchlantirish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi o'rni batafsil yoritilgan. Maqolada ushbu qo'shiqlar orqali bolalarga milliy madaniyatning yetkazilishi va ularning til qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, erkalash qo'shiqlari, ovutish qo'shiqlari, emotsional rivojlanish, ruhiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, til qobiliyati, milliy madaniyat.

Bolalar folklori milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi va milliy an'analarni saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Xalqning an'anaviy madaniyati, jumladan, bolalar uchun mo'ljallangan folklor asarlari har bir millatning tarixiy tajribasi,



hayotiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini ifoda etadi. Bolalar folklori orqali milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan til, musiqa, adabiyot va san'at elementlari avlodlarga yetkaziladi. Bolalar folkloridagi erkalash va ovutish qo'shiqlari esa bolalarning emotsional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Erkalash va ovutish qo'shiqlari bolalar folklorida keng tarqalgan bo'lib, ular bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu qo'shiqlar bolalarga qulaylik va xavfsizlik tuyg'usini yaratishga yordam beradi, ularni tinchlantiradi va ularda sevgi va ishonch hissini uyg'otadi. Masalan, ingliz bolalar folkloridagi mashhur "Twinkle, Twinkle, Little Star" qo'shig'i bolani tinchlantirish va uni ertangi kun uchun tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu qo'shiqda kichik yulduzning miltillashi orqali bolaning qulaylik va xavfsizlik hissi uyg'otiladi.

O'zbek bolalar folklorida esa erkalash va ovutish qo'shiqlari bolalarning tinchlanishiga, uyquga tayyorlanishiga katta hissa qo'shadi. Misol uchun, "Alla-yo, alla" kabi o'zbek allalarida bola qush obraziga qiyoslanadi, bu orqali bolaning xotirjamligi ta'minlanadi va u uxlab qoladi. Bu qo'shiqlarda onalar bolalarini tinchlantirish uchun ritmik ohang va melodiyalarni qo'llaydi. O'zbek allalarida alla so'zi har satrda yoki satr osha uzvli shaklda takrorlanib keladi, bu esa bolaning ongi va ruhiyati uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ingliz bolalar folklorida erkalash va ovutish qo'shiqlarining yana bir namunasi "Hush, Little Baby" qo'shig'idir. Ushbu qo'shiqda bola tinchlanishi uchun unga turli xil sovg'alar va'da qilinadi. Bu qo'shiq orqali bolaning e'tibori chalg'itiladi, uning emotsional holati barqarorlashadi va tinchlanadi. Bu qo'shiq bolalar uchun qulaylik va xavfsizlik tuyg'usini yaratishga xizmat qiladi, ularni sevgi va ishonch hissi bilan to'ldiradi.

O'zbek bolalar folklorida erkalash va ovutish qo'shiqlarining yana bir muhim xususiyati – ularning ko'pincha onalar tomonidan kuylanadigan bo'lishidir. Bu qo'shiqlar orqali ona bolaga o'z mehrini, e'tiborini va g'amxo'rligini ifodalaydi. Misol uchun, o'zbek folkloridagi "Bulbulginam, alla qilgin" qo'shig'i bolani tinchlantirish, uni sevgiga o'rab olish uchun kuylanadi. Bu qo'shiqda ona bolaning osoyishta uxlab qolishi uchun unga qulay muhit yaratishga harakat qiladi.

Erkalash va ovutish qo'shiqlarining pedagogik ahamiyati ham katta. Bu qo'shiqlar bolalarning til rivojlanishiga, ularning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ingliz bolalar folklorida "Rock-a-bye, Baby" kabi qo'shiqlar orqali bolalar so'zlarni eshitib, ularni takrorlashga intiladi, bu esa ularning til qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbek bolalar folklorida esa "Alla-yo, alla" kabi qo'shiqlar bolalar uchun so'zlarni o'zlashtirish, ularni takrorlash orqali til o'rganish jarayonini tezlashtiradi.

Erkalash va ovutish qo'shiqlari bolalarning ijtimoiy rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. Bu qo'shiqlar orqali bolalar atrof-muhit bilan bog'lanadi, jamiyatdagi o'z o'rnini anglaydi va ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi. Misol uchun, "Bordi-bordi" kabi o'zbek qo'shiqlari orqali bolalar o'yinlar davomida bir-biri bilan muloqotga kirishadi, ularning ijtimoiy qobiliyatlari rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, erkalash va ovutish qo'shiqlari bolalar folklorining ajralmas qismi bo'lib, ularning emotsional, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu qo'shiqlar bolalarning tinchlanishi, qulaylik va xavfsizlik tuyg'usini his qilishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Ular bolalarga milliy madaniyatni o'rgatish, til qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy munosabatlarni o'rganish uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu sababli, erkalash va ovutish qo'shiqlari har bir millatning bolalar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi va milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida saqlanib qoladi.

Adabiyotlar:

1. Opie, Iona, and Peter Opie. «The Oxford Dictionary of Nursery Rhymes». Oxford University Press, 1951, pp. 23-45.
2. Safarov, O. «O'zbek Bolalar Poetik Folklori». Fan nashriyoti, 1985, pp. 34-67.
3. Jahongirov, G'. «O'zbek Bolalar Folklori». Sharq nashriyoti, 1975, pp. 45-78.
4. Roud, Steve. «The Lore of the Playground: One Hundred Years of Children's Games, Rhymes, and Traditions». Random House, 2010, pp. 89-112.
5. Bronner, Simon J. «American Children's Folklore». August House, 1988, pp. 56-83.



6. Narzullayeva, N. «O‘zbek Xalq Og‘zaki Ijodida Bolalar Folklori». O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020, pp. 112-154.
7. Turg‘unov, Sh. «O‘zbek Bolalar Folklori: Nazariy Masalalar va Janrlar Xususiyatlari». Fan nashriyoti, 2005, pp. 89-120.
8. Sutton-Smith, Brian. «The Folkstories of Children». University of Pennsylvania Press, 1981, pp. 34-58.
9. Bekmuratov, M. «O‘zbek Xalq Pedagogikasida Bolalar Folklorining O‘rni». Sharq Noshriyoti, 2017, pp. 78-134.
10. Ismatullayev, A. «O‘zbek Xalq Ertaklari: Janr va Vazifalar». O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 2004, pp. 56-98.
11. Fayzullayev M. B., Fayzulloyev O. M., Saidova M. M. Images of animals in the Legends of Haji Nasretidin //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10.
12. Fayzulloyev O. M., Rakhimov M. M. THE WOMAN HAS BEEN IN HIS POWER (ABOUT THE WORKS OF WILKIE COLLINS) //IEJRD-International Multidisciplinary Journal. – 2021. – Т. 6.
13. Fayzullayev M. B., Sadullayeva M. G., Fayzulloyev O. M. National-cultural values of the east in fables of muhammad shariff gulhani //ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (82). – 2020. – С. 528-532.
14. Fayzulloyev O. Tarjimaning mahsulli usullari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
15. Файзуллоев О. М. ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ИНТЕРПРЕТАЦИИ УЗБЕКСКИХ СКАЗОК //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 12. – С. 212-215.
16. Файзуллаев О. М. Культура, отраженная во фразеологизмах //Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2016. – №. 9. – С. 72-77.
17. Fayzulloyev O. LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI, RIVOJLANISH BOSQICHI VA SOHANI O‘RGANISHGA DOIR YONDASHUVLAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 43. – №. 43.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

“МА’НАВИЙ МАСНАВИЙ” ASARIDA JALOLIDDIN RUMIYNING FALSAFIY VA ILMIY
QARASHLARI

Vafoqulova Go‘zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Telefon +998(97)9252885

Annotatsiya: Maqolada «Ma’naviy masnaviy» asaridagi hikoyatlar tahlili bilan birga asar mazmun-mohiyatiga to‘xtaladi.

Kalit so‘zlar: Ajab, tarab, maxmur – xumorlik, fikr, ruh erkinligi, ifoda erkinligi, «Forsiy Qur‘on», «masnaviyxon».

Rumiyning musulmon olamida mashhur asari «Masnaviy» oldindan o‘ylangan rejaga ega emas. Uning yagona nizomi — erkinlik. Fikr, ruh erkinligi, ifoda erkinligi, holat-kayfiyat erkinligi. Avlodlar «Forsiy Qur‘on» deb atagan bu kitobni u oddiygina qilib «Masnaviy» deb atadi. «Masnaviy» — olamni egallashga va o‘z-o‘zini anglashga intilgan inson ruhining taronasi. Asar yozilib, nihoyasiga yetishi bilan uni yodlashga kirishilgan, uni yod bilganlar «masnaviyxon» nomini olgan. «Masnaviy» asosida o‘nlab to‘plamlar, arab, fors, turk tillarida yuzlab jild tahlil va talqinlar bitilgan. Rumiyning «Masnaviy» asaridagi murakkab falsafiy muhokama va mushohadalarni «Ichingdagi ichingdadir» asarida ravshan va sodda shaklda tushuntirib bergan. «Masnaviy»da syujet yaxlitligi yo‘q; ammo barcha asarlari yagona kayfiyatda; uning shakli — bir xil ohangdagi qofiyali baytlar.

Masnaviy sharq klassik adabiyotida bir she‘r usulining nomidir. Lug‘at ma‘nosi «ikkilik», «ikkitan» demakdir. Adabiyotda bir xil vaznda va har bayti o‘zaro alohida-alohida qofiyalanib kelgan nazm shakliga masnaviy deyilgan. Masnaviy sharq she‘riyatining bir she‘riy yo‘nalishi bo‘lsada, masnaviy deyilganda odatda Mavlononing «Masnaviy»si ko‘z oldimizga keladi.

Parvardigori olamga sig‘inish, Undan madad olish, U sari intilish mavjud. Rumiyning «Ichindagi ichindadir» («Fiyhi ma fiyhi») asarida keltiriladi: «Bir kun bir yig‘inda va‘z o‘qilardi. Musulmonu kofir hamma yig‘lar, turli ahvolga tushardi. Birov: «Kofirlar nega yig‘lashadi, ustiga ustak tilni bilishmaydi. Musulmonlarning ham mingdan biri arang tushungan va‘zdan ular nimani angelayaptiki, bu qadar yig‘lab siqtashadi? —deb so‘radi. Mavlonon buyurdiki: «So‘zning o‘zini tushunishga hojat yo‘q. Ular mohiyatini, maqsadni anglashmoqda. Ular ham Ollohning birligini e‘tirof etishadi. Uning Yaratguvchi, Razzoq, hamma narsani o‘z tasarrufida tutuvchi ekanini, nihoyat hamma Unga qaytajagini, avfu jazo undan bo‘lajagini anglashadi».

Mohiyatni tushunmasdan so‘zdagi farqqa qarab o‘zaro ixtilof qilishni Rumiyning quyidagi rivoyati bilan tushuntirgan: To‘rt millatdan to‘rt kishi— turk, fors, arab va yunon yo‘lda birga ketayotganlarida ularga birov bir dirham pul beradi. To‘rtovlon bir-birining tilini tushunmagani sababli pulga nima sotib olish kerakligi ustida janjallashib qoladilar. Fors «angur» (uzum) olamiz desa, arab «man angur yemayman, «inab» (uzum) istayman deydi. Turk «uzum» olamiz deb turib olsa, yunonlik «Yo‘q, istofil (uzum) yemoqchiman» deb musht o‘qtaladi. Natijada, ular bir-birini tushunmay, yoqalashib ketadilar. Shu payt «yuz tilni biladigan sirlar sohibi» bir odam yo‘liqib, ularning nizosiga quloq solib, pulni qo‘llaridan olib, bozordan uzum sotib olib berganida, to‘rtalasi ham bir narsani xohlaganini ko‘rib hayron qolishadi, istaklari amalga oshib, yarashib ketadilar.

Rumiyning ushbu rivoyati bilan nafaqat nomlar, ifodalarning xilma-xilligi ma‘no-mohiyatini yashirib, odamlarni adashtirishini anglatish barobarida muhim bir g‘oya—Xudoning mohiyatini anglashda insonlarning hushyorligi, aqliy va ma‘rifiy kamolotiga asosiy e‘tiborni qaratadi.



Shu o'rinda Rumiyan yana bir rivoyatni naql etmoqchimiz. "Ma'naviy Masnaviy"da keltiriladiki, Muso payg'ambar bir yaylovdan o'tayotganida bir cho'ponga duch keladi. Cho'pon Xudoga nola qilib der edi: "Ey Xudojon, sen qayerdasan, kel, sochlaringni tarayin, chorig'laringni tikayin, naki o'z jonim, balki qo'ylarim, farzandlarim ham senga fido bo'lsin. Qayerdasan, borib dastyoring bo'lsam, sut qaymog'im bilan qorningni to'ydirayin, boshing og'risa, boshingni silayin, yuzqo'lingdan o'payin, oyoqlaringni uqalayin..."

Muso buni eshitib, cho'ponni koyiydi: "Ey ahmoq, kofir bo'lding, Xudoning chorig'i ham, to'ni ham yo'q, u yemaydi, ichmaydi, Uni o'zingga o'xshatma. U go'yo quyosh, sen bir chivin..." Cho'pon Musoning bu gapidan qattiq xafa bo'ladi va jimib qoladi. Shunda Parvardigori olamdan Musoga vahiy keladi: "Ey Muso, nima qilding, bandamizni bizdan ayirding, qo'y aytsin, sen bandalarning dilini Parvardigorga ulash uchun yuborilgansan, ajratib tashlash uchun emas. Biz har odamga, har bir elga o'z darajasida, o'z tilida muhabbat izhor etish uchun imkon berdik. Hindlarni hind tilida, sindlarni sind istilohida so'zlatdik."

Bu rivoyatda ham Rumiyan tashqi belgilar, so'zlar shakliga e'tibor qilmaslik, balki so'zning ma'nosiga, samimiyligiga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi. Cho'ponning so'zlari juda to'pori, sodda. Cho'pon Xudoni o'ziga o'xshatib tasavvur etadi. Ammo uning so'zlari, muhabbati soxta emas, tama'g'arazga asoslanmagan. U bor budini Xudo yo'lida sarflashga tayyor. Albatta yurakdan aytilgan gaplar qanday tilda bo'lmasin aytuvchining sadoqatini ifodalaydi.

Mavlono o'lim kunini ham yangidan tug'ilgan kun sifatida qabul qilardi. U o'lgan zahoti sevganiga, ya'ni, Allohga yetishishini bilardi. Shuning uchun Mavlono o'lim kunini to'y kuni yoki kelin kechasi ma'nosida kelgan so'z «Shabi aruo derdi va do'stlariga o'limi orqasidan *E, voh* deya yig'lamasliklarini vasiyat qilgandi. «O'lganimizdan so'ng mozorimizni yerdan axtarmang! Bizning mazorimiz oriflar ko'ngillaridadir!» Rumiyan shaxsiyati va buyuk asari bilan nafaqat Sharq, balki G'arb uchun ham o'lmas yodgorlik yarata oldi. Zero, "Masnaviy" — musulmon olamidagi eng ko'p o'qiluvchi va hurmatga sazovor kitobdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жалолоддин Румий, "Ичиндаги ичиндадур". Бешинчи нашри, "Янги аср авлоди", Тошкент. 2016 йил
2. Rafiyev A va boshq. Ona tili va adabiyot. – T.: 2013. 186-197-betlar

“YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR RUHIYATI TALQINI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada «Yulduzli tunlar» romanida Zahiriddin Muhammad Boburning hayotdan o'z shaxsiyatiga munosib o'rin topish yo'lida chekkan aziyatlari, hayot-mamot kurashlarida ko'rsatgan shaxsiy qahramonliklari tahlil etilgan

Kalit so'zlar: tarixiy-biografik romanchilik, Javoharlal Neru, ichki kolliziya, ichki drammatizm.

«Yulduzli tunlar» romani Pirmqul Qodirov ijodida faxrli o'rinni egallaydi. Adib bu romanni yaratish bilan tarixiy mavzuni badiiy o'zlashtirishning yangi bir namunasini ko'rsatdi. O'zbek adabiyotidagi tarixiy-biografik romanchilikni yangi bosqichga ko'tardi. Asarda ulug' o'zbek shoiri, adibi va mashhur podshoh Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatli hayoti, dolg'ali faoliyati, hayotdan o'z shaxsiyatiga munosib o'rin topish yo'lida chekkan aziyatlari, hayot-mamot kurashlarida ko'rsatgan shaxsiy qahramonliklari keng ko'lamda tasvirlab berilgan.

Pirmqul Qodirov romanda Bobur obrazini yaratar ekan, bu benazir insonning jahoniy shuhrati va buyuk ahamiyatini, hind xalqining unga bo'lgan mehr-muhabbatini chuqur idrok etgan.



Darhaqiqat, hind xalqining buyuk yo'lboshchisi Javoharlal Neru Bobur shaxsiga va faoliyatiga yuqori baho berib: «Bobur dilbar shaxs, uyg'onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan. Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi, san'atda, hayotda, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi»– deb yozgan edi. «Yulduzli tunlar» romani Javoharlal Neru so'zlarining naqadar to'g'ri va asosli ekaniga jonli dalildir. Bobur Hindistonda saltanatni boshqarganda hukmdor bo'lishning shon-shavkati bilan bir qatorda, adadsiz pushaymonliklarini, iztiroblarni, «xatolig'»-u, «yuzi qarolig'»larni boshidan kechirgan. Vatan sog'inchi bilan o'rtangan. Bu yo'nalishda uning ajoyib, dilbar she'rlari ham bor. Yozuvchi qahramoni tabiatiga doir ana shunday tarixiy gavhar dalillarni saralab, badiiy yaxlitlik bilan nurlantiradi. Natijada, yozuvchining mahoratidan nurlangan harorat badiiy jozibaga aylanadi va butun asar hujayralariga ilqlik baxsh etadi.

Shu ma'noda romanda Bobur ruhi, ichki dunyosi, xayollari, orzu- armonlarining yuksak mahorat bilan tasvirlanganini ta'kidlash zarur. Onasi Qutlug' Nigorxonim bilan Boburning nafas olishdayoq bir-birlarini tushunishlari, inining Xonzodabegimni nainki so'z, balki yurak bilan anglay bilishi, shoirning havo emas ilhom bilan nafas olayotgan betakror sohir holatlardagi his-hayajonlar tasviri Pirimqul Qodirovning ruhiyat mazmunlarini ko'rsatishdagi ustaligidan dalolat beradi. Yozuvchi Boburni ko'p hollarda ichki kolliziya, ichki drammatizm, azobli, iztirobli, vaziyatlarda ko'rsatadi. Qahramon o'z-o'zini ichdan tahlil etadi, qiynayotgan savollarga shu yo'sinda javob izlaydi va topadi. O'zga qahramonlar bilan ba'zan so'z orqali emas, ichdan, vujud tili orqali muloqotda bo'ladi. Bu esa qahramon ruhiyatini teran yoritish imkonini beradi.

«Yulduzli tunlar» romanida Boburning shaxsiy hayoti tasviriga keragicha o'rin berilgan. Binobarin, Bobur asarda haqiqiy inson sifatida jonlanadi. Yozuvchi uning insoniy fazilatlarini onasi Qutlug' Nigorxonim, opasi Xonzodabegim, suyukli xotini Mohimbegim va farzandi Humoyunga bo'lgan mehr-muhabbati misolida yaqqol ochib bergan. Natijada, Bobur kitobxon ko'z o'ngida pok qalbli oqil inson sifatida gavdalanadi. «Humoyun, jigarim, – deydi Bobur og'ir kasal bo'lib yotgan o'g'liga qarab, – sening betoqatligingga men toqat keltiray! Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin».

Asarda Boburning xotin-qizlarga munosabati ham jonli va ishonarli aks etgan. U xotini Mohimbegimning aql-u farosati, farzandlarini mehr-oqibatli qilib tarbiyalayotganiga tan berib: «Mohim, Siz mening benazir malagimsiz! Men shoh bo'lsam ham ulug' qalbingiz o'trusida qulmen!» – deydi. Bobur ajoyib me'mor Fazliddin bilan suhbatda: «Men... Samarqanddagi Bibixonim madrasasidek ulug' bir madrasaning tarxini sizga chizdirmoqchi edim. Opa-singillarimizning qadrini boshimizga ko'tarsak arzigay...», – deydi.

Shunday qilib, romanda voqealar davomida Bobur obrazining turli qirralari birin-ketin ochila boradi. Asarda tasvirlanishicha, Bobur zo'r bir davlat tuzib, yurtni farovon, mamlakatni obod qilish yo'lida harakat qilgan ekan, ilm-fan, san'at va adabiyot ahliga har jihatdan yordam beradi. U aqlning qudratiga ishonadi.

Shu ma'noda «Yulduzli tunlar» yozuvchi burchini namoyon etgan yulduzli onlardir. Roman yuqorida e'tirof etilgan jihatlari va buyuk bir tarixiy siymoni qaytadan kashf etilishi bilan o'zbek adabiyotida mustahkam o'rin egalladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov P. Yulduzli tunlar. –G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, Toshkent-2018.



АБДУЛЛА ОРИПОВ ШЕЪРИЯТИДА ОНА ОБРАЗИ

Ҳафизова Мухлиса Абдигани кизи

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Инглиз тили 2-факултети

Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси

Катта ўқитувчиси (PhD)

Телефон +998977389394

muxlisah@gmail.com

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада Ўзбекистон Қаҳрамони Абдулла Орипов ижоди таҳлилга тортилган. Хусусан, шоир шеъриятида Она образи талқини ҳақида сўз боради.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Образ, тафаккур, қадрият, шеър, шеърият, эстетик идеал, жанр, бадиий тафаккур.

Ёшларни миллий-маънавий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашда бадиий адабиётнинг ўрни беқиёсдир. Чунки ҳар қандай бадиий асарда ҳаёт сабоғи, ижодкор қалб кечинмалари ўз ифодасини топади. Бадиий адабиёт, хусусан, шеърият асрлар давомида инсоннинг қалб кечинмаларини, ички оламини кашф этишга интилиб келган. Зеро, ҳар қандай бадиий асарда инсон орзу-истаклари, мақсад интилишлари ижодкорнинг эстетик идеали асосида ёритилади.

Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Орипов ижодий мероси жанр ва мавзулар ранг-баранглиги билан эътиборга моликдир. Шоирнинг шеърий намуналарида инсонни чуқур мушоҳадага ундовчи тасвирий ифодалар, рамзий-фалсафий маънолар мужассамлашган. Шоир шеърларида табиат, жамият, наботот ва ҳайвонот олами, инсон ва унинг турфа хил кечинмалари билан боғлиқ мавзулар кенг ёритилади. Шоир ижодидаги шундай мавзулардан бири ОНА мавзусидир. Шоирнинг “Она” шеърида бу улуг сиймо шундай улугланади:

Каъба қопқасида турган, эй посбон,
Аввал оналарнинг очгин йўлларин.
Оналар пойига тиз чўк ўшал он,
Тавоф қил, кўзга сурт, ўпгин кўлларин [1.189].

Дунё адабиётида онани куйламаган, уни мадҳ этмаган шоир топилмаса керак. Аммо бу қадимий ва мангу мавзу ҳар бир шоир талқинида ўзига хос қиррасини намоён этади. А.Орипов ҳам ушбу шеърда ўзига хос йўл тутди. Мумтоз адабиётимиздаги нидо санъати воситасида поспонга мурожаат қилиш орқали таъсирчан лирик лавҳа яратган.

Нидо санъати орқали лирик қаҳрамон бирор шахсга, нарсага, мавҳум тушунчаларга мурожаат этган ҳолда ўзининг ички кечинмалари, тилаклари, мулоҳазаларини баён қилади. Шоир поспонга мурожаат қилиш орқали лирик қаҳрамоннинг онага бўлган самимий эхтиромини, ҳурмати ва муҳаббатини ғоятда жозибали ифодалаган [3.46].

Мисралардаги тиз чўк, тавоф қил, кўзга сурт, кўлини ўп сингари ифодалар орқали эса таносуб санъати яратилган.

Ижодкорнинг бу санъатдан қай даражада моҳирона фойдалана олиши унинг билим даражаси ва кузатувчанлигига боғлиқ. Бу ҳақда атоқли адиб М.Шайхзода қуйидагиларни қайд қилади: «Дарҳақиқат, таносуб шоирдан катта кузатувчанликни, ҳаёт ва табиат ҳодисаларини яхши билишни, одамларнинг хислатларини, ашённинг хусусиятларини фаҳмлаб олишни талаб қилади» [4.9].

Демак, сатрларда қўлланилган шеърий санъатлар онага бўлган чексиз эхтиром ва ҳурмат туйғуларини маҳорат билан ифодалашга ёрдам берган.

Шўрлик одамзоднинг толейи учун,
Энг аввал оналар қилсин ибодат.
Зора, гуноҳлардан пок бўлгай очун,



Оналар ўтинчи топиб ижобат [1.189].

Мазкур сатрларда ОНА сиймосининг яна бир бетакрор қирраси ўз ифодасини топган. Зеро, шоир “Шўрлик одамзод”нинг қилган ҳар қандай яхши-ёмон ишлари, феълидаги ўзи англамаган иллатлари учун яратгандан гуноҳларини кечиришини сўраяпти. “Зора гуноҳлардан пок бўлмай очун” мисраларида эса халқимиздаги “Жаннат оналар оёғи остида” деган ҳикмат яна бир бор ўз ифодасини топган дейиш мумкин. Шоир “Она деган ном...” шеърида эса шундай ёзади:

Дунё шоирлари Ватан шаънига
Сифат ахтармишлар қатор ва қатор,
Ниҳоят, келмишлар битта маънига:
Она-Ватан дея битмишлар ашъор [2.76].

Мисраларда А.Орипов ижодининг ўзига хос қирраси намоён бўлади. Унда шоир ҳаёт ҳақиқати билан қалб ҳақиқатининг уйғунлигини бадиий ифода этади. Зеро, ҳаётда ҳар бир инсоннинг камол топишида, унинг келажаги йўлида Она ва Ватан ролини ҳеч нарса билан таққослаб бўлмайди.

А.Орипов шеърятини ҳақида адабиётшунос олим Қ.Йўлдошев шундай мулоҳаза билдиради: “Абдулла Ориф шеърятини билан ўзбек лирикасига кўнгил дардлари сувратлари, орзу-армонлар фожиаси, руҳий изтироблар манзараси кириб келди... Мавзуни шеър эмас, балки шеърни мавзу мукаррам қиларди. Дунё ва ундаги оламшумул ҳодисалар ҳақида ҳайқириш талаб этиларди” [5. 251].

А.Орипов ижодида ҳаёт ҳодисаларини, турмуш реалликларини реалистик йўсинда ифодалаш, инсон феъл-фаолиятини теран таҳлил этиш яққол кўзга ташланади. Бу шоир ижодида ижтимоий фаолликнинг кучлилигини белгилаш билан бирга шеърларидаги бадиий-фалсафий маънолар қуюқлигини ҳам белгилайди.

1966 йилда шоир Онаси Турди Карвон қизи хотирасига бағишлаб “Онажон” шеърини ёзади. Ушбу шеърда шоир туш, хотира, хаёл қоришиқлигида Онасининг ёрқин сиймосини жонлантиради. Унга бўлган самимий туйғуларини, меҳр ва ардоғини, армон ва ўқинчларини чуқур дард билан ифодалайди.

Ахир ўзинг дер эдинг-ку,
Силаб ўксук бошимни:
Энди сенга берсин умр,
Сенга берсин ёшимни [1.106].

Сатрлардан кўринадики, шоир она сиймосида нафақат ўзининг онаси, балки бутун инсоният ОНАси образини ярата олган.

Умуман, А.Орипов шеърятини Она мадҳига бағишланган шеърлар алоҳида ўрин тутаяди. Бундай шеърларида шоир Онани турли жиҳатдан тасвирлаб, ўзининг юксак маҳорат эгаси эканлигини намоён эта олган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Орипов А. Танланган асарлар. Ж.1. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
2. Орипов А. Танланган асарлар. Ж.2. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
3. Ҳожирахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. - Т.: Мерос, 1999.
4. Шайхзода М. Асарлар. VI томлик. Т.V - Т.: Адабиёт ва санъат, 1973
5. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006.



ИҚТИСОД ФАҢЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

TADBIRKORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI

Israilov Rustam Ibragimovich
Namangan muhandislik texnologiya instituti “Buxgalteriya xisobi va audit” kafedrasida dotsenti
Telefon: +998 88 686 86 10
israilov@mail.ru

Annотasiya: Tadbirkorlik har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishining asosidir. Ko'p yillar davomida tadbirkorlik dunyoning turli mamlakatlari vakillari va iqtisodiy maktablarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelgan. Uning mavjudligi davrida “tadbirkorlik” tushunchasi sezilarli o'zgarishlarga duch keldi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, jismoniy shaxs, innovator, innovatsiya, bozor, daromad.

“Tadbirkorlik” atamasi birinchi marta ingliz iqtisodchisi Richard Kantillon tomonidan kiritilgan bo'lib, u o'z asarlarida ilk kapitalistik iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilgan. R.Kantillon 1755-yildayoq bozor munosabatlarining alohida sub'ektlari bozorda talab va taklif o'rtasidagi mavjud tafovut tufayli tovarlarni arzonroq sotib olishlari va qimmatroq sotishlari mumkinligi haqidagi tezisni shakllantirdilar. U bu sub'ektlarni tadbirkorlar deb atagan [1].

Tadbirkor nafaqat jismoniy shaxs, balki bir guruh shaxslar ham bo'lishi mumkin, tadbirkor esa ishlab chiqarish omillarining egasi bo'lishi shart emas, balki boshqaruvchi ham bo'lishi mumkin [2]. Tadbirkor o'z navbatida bozor innovatori sifatida harakat qiladi, ya'ni tadbirkorning faoliyati iqtisodiyotdagi barcha o'zgarishlarning manbai hisoblanadi. Avstriya-amerikalik iqtisodchi va sotsiolog Jozef Shumpeter [3]. tadbirkorlik funksiyasini iqtisodiy yetakchilik va innovatsiya funksiyasi bilan tenglashtirgan: “innovatsiyalar tadbirkorlikning miyasi, tadbirkor esa innovatsiyalar yaratuvchisidir”, uning asosiy vazifasi islohot yoki inqilob qilishdir. ishlab chiqarish usuli “ixtirolardan foydalanish yoki keng tushunish orqali, materiallarni yetkazib berishning yangi manbalarini yoki yangi savdo bozorlarini ochish orqali yangi tovarlar yoki eski tovarlarni yangi usulda ishlab chiqarish uchun sinovdan o'tmagan texnologik imkoniyatlarni amalga oshirish orqali; yoki sanoatni qayta tashkil etish orqali va hokazo” [4].

Neo-avstriya maktabi vakillari L.Mizes, I.Kirzner va F.fon Xaeklarning fikricha, “tadbirkor qandaydir aniqlanmagan shaxs emas, balki insonning ishlab chiqarishda yangi imkoniyatlarni topish va undan foydalanish qat'iyatini aks ettiruvchi ma'lum funksiyadir, jamiyat va boshqalar”. Mualliflar buni “bozor jarayonini raqobat mexanizmidan ajratib bo'lmaydi, uning markazida - natijalarning noaniqligi bilan birga keladigan yangi narsalarni izlash jarayoni sifatida – tadbirkor” ekanligi bilan izohlaydilar [5].

O'zlarining oldingilaridan farqli o'laroq, ular tadbirkorlik daromadi nafaqat tadbirkorlik tavakkalchiligi uchun, balki tadbirkorning innovator sifatidagi tadbirkorlik san'ati uchun mukofotdir va firmaning kutilayotgan (prognoz qilingan) pul daromadlari va uning real daromadlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi, deb hisoblashgan. qiymat, tadbirkor esa innovator bo'lishi shart emas. Tavakkalchilik va noaniqlik kabi toifalar ham chuqur o'rganilib, ularning orasidagi farq isbotlangan, ya'ni risk bu yoki boshqa hodisaning ro'y berishi va miqdoriy jihatdan aniqlanishi mumkin bo'lgan ob'ektiv ehtimollikdir, noaniqlik esa daromad olish mumkinligini bildiradi. bunday hodisani o'lchash va hisoblash mumkin emas.

Neoklassik maktab vakillari bo'lgan M.Dobba va F.Perrining fikricha, tadbirkorning mehnatini ishlab chiqarish jarayonida boshqa qandaydir faol shaxs amalga oshiradigan ishlardan



ajratib bo'lmaydi [6]. Ular zamonaviy davrda tadbirkorning novator sifatidagi roli olimlar, tadqiqotchilar va boshqa mutaxassislariga o'tadi va mulkchilikning boshqaruv funksiyalaridan tobora ortib borayotgan ajralishi bilan bog'liq deb hisoblashdi. F.Perri tadbirkorning ma'lum bir sohada faoliyat yuritishi va davlatning boshqa institutlarga ta'siriga bo'ysunishini ta'kidladi.

Xavf omiliga katta ahamiyat berildi. Moliyaviy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida har doim pul standarti birliklari qiymatining o'zgarishi xavfi mavjud va shuning uchun tadbirkorni hamma joyda xavf kutmoqda. J.M. Keyns va uning izdoshlari tadbirkorni kapitalistik iqtisodiyotning asosiy figurasi deb bilishgan, uning mexanizmini takomillashtirish zarur. Zamonaviy xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlikning bir qancha ta'riflari mavjud.

Shunday qilib, mashhur amerikalik iqtisodchi Piter F.Druker shunday deb hisoblagan edi: "innovatsiyalar tadbirkorlarning maxsus quroli, ular biznes va xizmat ko'rsatish sohasida o'z g'oyalari amalga oshirish uchun qulay imkoniyat sifatida o'zgarishlardan foydalanadigan vositadir. Tadbirkorlarning vazifasi innovatsiyalar manbalarini, shuningdek, muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ko'rsatadigan o'zgarishlar va ularning belgilarini maqsadli izlashni o'z ichiga oladi.

P.Drukerning fikricha, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilarning hammasi ham tadbirkor emas, balki faqat o'z kichik biznesini ochganlargina tadbirkordir. To'liqroq ta'rif, bizning fikrimizcha, amerikalik iqtisodchilar Kempbell R. Makkonnel va Stenli L. Breu tomonidan taklif qilingan. Ularning fikriga ko'ra, korxonalar - bu tadbirkorlar yeri, kapital va mehnat resurslarini yagona mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish jarayoniga birlashtirish tashabbusini ko'rsatadigan, faoliyat yo'nalishini belgilovchi asosiy qarorlarni qabul qiladigan faoliyatning alohida turi. Korxonalar yangi ishlab chiqarish shakllari va biznesni tashkil etish yo'li bilan iste'molchiga yangi tovar va xizmatlarni taklif qilishga intiluvchi, shuningdek, o'z puli, vaqti, ishchanlik obro'sini xavf ostiga qo'yadi.

Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, faoliyati, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va unga davlatning ta'siri masalasi uning rivojlanishi shu kabilarning ilmiy manfaatlari sohasida rossiyalik olimlardan A. Aleynikov, V. Afanasev, D. Aleksandrov, A. Busigin, A. Blinov, V. Gorfinkel, M. Lapusta, Z. Savchenko, A. Rube, O. Shulus va boshqalar ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Tadbirkorlik faoliyati jarayonining xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:
yo'nalishlar, faoliyat sohalari va ularni amalga oshirish usullarini tanlash erkinligi;
tadbirkorlik faoliyati jarayonini yuqoridan pastga boshqarishning yo'qligi;
korxonani yaratish va faoliyat yuritishda hisoblanishi va hisobga olinishi kerak bo'lgan xavf omilining mavjudligi;

qaror qabul qilish va ularning oqibatlari uchun shaxsiy va mulkiy javobgarlik;
tijoriy muvaffaqiyatga erishishga e'tibor qaratish; tadbirkorlik faoliyatining innovatsion tabiati, yangi narsalarni ixtiro qilish va amalga oshirish yoki mavjudini yaxshilash istagi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kredisov V.A. Entrepreneurship is a decisive factor in the development of countries with a transition economy / V.A. Kredisov. - Kyiv: Knowledge of Ukraine, 2003. - 44p.
2. Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х т. / А. Маршалл – Москва: Прогресс, 1993. – Т.2. – 46-49с
3. Shumpeter J.A. The Creative Response in Economic History // Journal of Economic History. – 1947. - № 7. – P. 150-151
4. Shumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. – Third Edition. – N. Y., 1962. - 132 p.
5. Mises L., von. Profit and Loss. - South Holland (ILL), 1951. – 11 p
6. Предпринимательство в конце XX века / Общ ред. А. А. Дынкина, А. Р. Стерлинг, И. В. Тулина и др. – М.: Наука, 1992. – 83 с.



EMPOWERING COMMUNITIES: THE ROLE OF SUSTAINABLE TOURISM IN
POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN

Toshkhujayev Mustafokhon Abduvosi o'g'li

“Silk road” international university of tourism and cultural heritage. Creative Industry. Creative Industry. Master's student. mustafokhon9990199@gmail.com

Abstract. Sustainable tourism in Uzbekistan offers a transforming potential to empower local people and mitigate poverty, especially in rural regions abundant in cultural heritage and natural resources. This article analyzes the effects of sustainable tourism projects in Uzbekistan, emphasizing their potential to produce revenue, offer employment opportunities, and enhance community engagement.

Keywords: cultural heritage, breathtaking landscapes, significant historical monuments, tourist, sustainable tourism.

Annotatsiya. O'zbekistonda barqaror turizm mahalliy aholining imkoniyatlarini kengaytirish va qashshoqlikni yumshatish uchun o'zgaruvchan salohiyatni taqdim etadi, ayniqsa, madaniy meros va tabiiy resurslarga boy qishloq hududlarida. Ushbu maqola O'zbekistonda barqaror turizm loyihalari ta'sirini tahlil qilib, ularning daromad olish, bandlik imkoniyatlarini taklif qilish va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish salohiyatiga urg'u beradi.

Kalit so'zlar: madaniy meros, hayratlanarli landshaftlar, muhim tarixiy obidalar, turistik, barqaror turizm.

Аннотация. Устойчивый туризм в Узбекистане предлагает преобразовательный потенциал для расширения прав и возможностей местного населения и борьбы с бедностью, особенно в сельских районах, богатых культурным наследием и природными ресурсами. В этой статье анализируется влияние проектов устойчивого туризма в Узбекистане, подчеркивая их потенциал для получения дохода, предложения возможностей трудоустройства и расширения участия общественности.

Ключевые слова: культурное наследие, удивительные пейзажи, важные исторические объекты, туризм, устойчивый туризм.

Uzbekistan, located in Central Asia, features a diverse cultural heritage, breathtaking landscapes, and significant historical monuments, positioning it as a promising destination for tourist growth. The nation's distinctive location along the historic Silk Road has bestowed it with varied cultural influences, which may be utilized for sustainable tourism. Nevertheless, several rural villages in Uzbekistan persist in facing economic difficulties, restricted employment prospects, and insufficient infrastructure. Sustainable tourism emerges as a feasible way to empower these communities, giving a means to earn cash, create employment, and promote general well-being.

This article examines the diverse function of sustainable tourism in alleviating poverty in Uzbekistan. Through the analysis of successful programs and theoretical frameworks, we want to underscore the advantages of sustainable tourism for local communities while addressing possible obstacles to its implementation. The main purpose is to establish a blueprint for harnessing sustainable tourism as a tool for community empowerment and economic development.

Literature Review Theoretical Frameworks The Sustainable Livelihoods Approach (SLA) is particularly significant for understanding how sustainable tourism might assist to poverty reduction in Uzbekistan. The SLA emphasizes strengthening local capacities and exploiting community assets to produce resilient livelihoods (Ashley & Haysom, 2006). This approach is vital for understanding the different types of capital-social, human, environmental, and financial-that tourism may strengthen in local communities.

In Uzbekistan, the use of the SLA can assist identify how sustainable tourism efforts may stimulate local enterprise, increase skills, and promote social cohesion. By integrating local



populations in tourist planning and decision-making, communities may create a feeling of ownership and pride in their cultural heritage, which is crucial for sustainable development.

Case Studies Several case studies highlight the good impact of sustainable tourism projects in Uzbekistan: **Rural Tourism Development in Samarkand:** The Rural Tourism Development Program in the Samarkand region has enabled local farmers to offer house stays and guided excursions. This effort not only produces cash for households but also protects local cultural practices and traditions (World Bank, 2018). By integrating local people in tourism, the initiative has expanded awareness of the value of cultural heritage and sustainable practices.

The Silk Road Tourism project: This project encourages local artisans and craftspeople, encouraging them to engage in the tourism sector. By presenting traditional crafts and abilities, local craftsmen receive awareness and revenue while protecting their cultural legacy (UNESCO, 2019). This program illustrates how tourism can assist communities economically while nurturing cultural pride. **Community-Based Ecotourism in the Bukhara Region:** In the Bukhara region, community-based ecotourism programs have been established to attract visitors interested in natural and cultural experiences. Local inhabitants are educated to conduct tours and offer services, thereby increasing job possibilities and strengthening local economies (Zehra & Iqbal, 2021). This methodology not only boosts economic resilience but also encourages environmental conservation.

Barriers to Success Despite the potential given by sustainable tourism, numerous challenges must be overcome to ensure its effectiveness: **Limited Infrastructure:** Many rural locations in Uzbekistan lack necessary infrastructure, such as roads, transportation, and communication systems, which might limit tourist growth. Investments in infrastructure are vital to enabling access to rural sites and boosting the overall visitor experience. **Insufficient Training and Capacity Building:** Local populations frequently lack the essential skills and knowledge to properly engage in tourist operations. Training programs concentrating on hospitality, marketing, and management may empower local citizens and boost the quality of tourism services (Kovalenko, 2020). **Market Access and Promotion:** Small local firms typically struggle to compete with larger tour operators and face obstacles in accessing broader markets. Effective marketing methods that promote local attractions and services are vital for improving visibility and attracting tourists. **Policy Frameworks:** The prominence of huge, international firms in the tourist sector can diminish local voices and interests. Policymakers must prioritize inclusive initiatives that guarantee local populations benefit from tourist growth (Mowforth & Munt, 2016). Collaborative efforts between government, NGOs, and local people are important to develop an equitable tourist landscape.

Conclusion. Sustainable tourism has considerable possibilities for empowering people in Uzbekistan and helping to poverty reduction. By increasing local engagement and ensuring that the advantages of tourism are equally shared, sustainable tourism may support economic growth and community development. The success of programs in Samarkand, Bukhara, and beyond highlights the transformational power of tourism when undertaken with local involvement in mind.

However, fulfilling this promise involves overcoming current constraints, including infrastructural shortfalls, training gaps, and market access issues. Policymakers and stakeholders must work on implementing inclusive policies that amplify local voices and boost capacity building, ensuring that sustainable tourism becomes a viable and successful tool for poverty alleviation in Uzbekistan. Future initiatives should also focus research and monitoring to find best practices and scalable models that can be applied to varied circumstances within the country. By emphasizing sustainable tourist development, Uzbekistan can pave the road for a more egalitarian and prosperous future for its inhabitants.

References

1. Ashley, C., & Haysom, G. (2006). From charity to enterprise: How the tourism sector can help reduce poverty. ODI Briefing Paper.
2. Kovalenko, A. (2020). Building capacity for sustainable tourism in Uzbekistan: Challenges and opportunities. *Central Asian Studies Journal*, 12(4), 215-230.



3. Mowforth, M., & Munt, I. (2016). *Tourism and Sustainability: Development, globalisation and new tourism in the Third World*. Routledge. UNESCO. (2019). *Cultural Heritage and Sustainable Tourism: Lessons from the Silk Road*. Retrieved from [URL].
4. Zehra, A., & Iqbal, N. (2021). The impact of sustainable tourism on local communities in Uzbekistan: Challenges and opportunities. *Journal of Tourism Research*, 14(3), 45-60.

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИК ВА ТУРМУШ
ФАРОВОНЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ЭНГ
МУҲИМ ОМИЛИДИР**

З.И.Усманова - PhD, Маркетинг кафедраси доценти.
Самарқанд иқтисодий ва сервис институти
Ю.К.Хасанова - Туризм кафедраси ассистенти.
Самарқанд иқтисодий ва сервис институти

Аннотация ушбу мақолада олий таълим хизматлари тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари ва устувор йўналишларини амалга ошириш асосида иқтисодий ўсишга эришиш ҳамда аҳоли турмуш даражасини мустаҳкамлашга эришиш мумкинлигига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: таълим муассасаси, ички муҳит, бошқарув, самарадорлик, баҳолаш, эҳтиёж.

Аннотация В данной статье особое внимание уделяется возможности достижения экономического роста и повышения уровня жизни населения на основе реализации стратегических целей и приоритетов развития системы высшего образования.

Ключевые слова: образовательное учреждение, внутренняя среда, управление, эффективность, оценка, потребность.

Abstract This article pays special attention to the possibility of achieving economic growth and improving the standard of living of the population based on the implementation of strategic goals and priorities for the development of the higher education system.

Key words: educational institution, internal environment, management, efficiency, assessment, need.

Ўзбекистон бугунги кунда дунёдаги барча давлатлар орасида такомиллашган олий таълим хизматлари тизими билан ўз мақеига эга бўлиб келмоқда. Кейинги йилларда давлат бошқарув тизими олий таълим хизматлари тизимининг янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратмоқда. Олий таълим хизматлари ҳар бир давлатнинг ўзига хос бўлган муҳим инфраструктураси эканлигидан келиб чиқиб, уни ҳеч бир давлатда тўлалигича бозор муносабатлари назоратига топшириб қўйилмайди. Демографик жипслашиши ва кучли худудий ўқув-илмий тизимнинг ривожлантирилиши истикбол учун режалаштирилаётган стратегик вазифа ҳисобланиб, ечими мақсадли давлат дастурларида акс этган қўшимча бозор механизмларининг киритилиши орқали олиб борилади.

Бугунги кунда мамлакатимизда илгари сурилаётган олий таълим хизматлари тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари ва устувор йўналишларини амалга ошириш асосида иқтисодий ўсишга эришиш ҳамда аҳоли турмуш даражасини оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Ўзбекистан Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузасида мамлакатимизнинг бугунги кундаги ва истикболдаги устувор вазифалари ҳақида тўхталиб, қуйидагиларни таъкидлади: “Биз таълим ва тарбия тизимининг барча бўғинлари



фаолиятини бугунги замон талаблари асосида такомиллаштиришни ўзимизнинг биринчи даражали вазифамиз деб биламиз”¹¹.

Рақобат муҳитининг кучайиб бориши олий таълим муассасаларининг, бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш ва қабул қилишда масъулияти ва мустақиллигини оширади. Бошқарув қарорларининг қанчалик самарали бўлиши кўп жиҳатдан муассасадаги бошқарув жараёнини, унинг натижаларини ўз вақтида, ҳар томонлама объектив баҳолаш билан боғлиқ. Бунинг учун эса, замон талабларидан келиб чиқиб, таълим муассасалари бошқаруви жараёни, унинг самарадорлигини баҳолашда замонавий усул ва услубларни қўллашни тақозо қилади. Ҳозирги вақтда таълим муассасаси ички муҳитида бошқарувнинг турли бўғинларида самарадорликни баҳолашда содда, қулай, эгилувчан услублар етарли бўлмаганлиги учун уларга эҳтиёж мавжуд. Турли характердаги муаммоларни аниқлаш, таҳлил қилиш ва баҳолашга қаратилган ва энг мақбул қарорга келишни таъминлайдиган кўп мезонли комплекс таҳлил қилиш ва баҳолаш методларини таълим муассасалари бошқаруви жараёнида самарали қўллаш ўзининг имкониятлари кенглиги ва истиқболлиги билан ажралиб туради.

Республикамиз мустақиллика эришгач, ривожланишнинг ўзига хос ва мос йўлини танлаб олди ҳамда ҳуқуқий демократик давлат, очиқ фуқаролик жамияти қуришга қаратилган ислохотларни амалга ошира бошлади. Мамлакатимизда жамиятнинг маънавий янгиланиши, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётини шакллантириш, жаҳон ҳамжамиятига уйғунлашиш учун барча шарт-шароитлар яратилди.

Умуминсоний кадрятлар ўзбек халқининг кўп асрлик илмий ва маданий анъаналарини, замонавий маданият, иқтисод, фан, техника ҳамда жамиятнинг ривожланиш истиқболлини эътиборга олган ҳолда, таълим соҳасида олиб борилаётган, аниқ мақсадларга йўналтирилган давлат сиёсати кўзланган мақсадларга эришишнинг муҳим шarti бўлиб ҳисобланади.

Моҳият жиҳатидан мутлақо янги бўлган кадрлар тайёрлашнинг миллий модели Кадрларни қайта тайёрлаш таянч мутахассисликлар ва касбларга мувофиқ бўлган йўналишлар бўйича фаолиятни амалга ошириш учун қўшимча касбий билим, малака ва кўникмаларнинг зарур ҳажми эгалланишини таъминлайди. Кадрлар малакасини ошириш касбий билим, малака ва кўникмаларнинг чуқурлаштирилиши ҳамда янгилаб борилиши, кадрларнинг тоифаси, даражаси, разряди ва лавозими ошишига хизмат қилади. Кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш шакллари ва муддатлари тегишли давлат таълим талаблари билан белгиланади¹². “Таълим тўғрисида”ги Қонун ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастуридан иборат меъриёв-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ва жорий этишга асос бўлади. Бундай ҳужжатлар ижтимоий фаол, маънавий жиҳатдан бой бўлган ижодкор шахсни шакллантириш ҳамда юқори малакали, рақобатбардош кадрларни тайёрлашда белгиланган стратегик мақсадларга эришиш учун назарий ва амалий асос бўлди.

Ҳозирги шароитда олий таълим инсон фаолиятининг барча соҳаларига янги технологияларни тадбиқ этиш, рақобатбардошликни ва турмуш фаровонлиги даражасини оширишнинг энг муҳим омилларидан бири бўлиб ҳисобланади. Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашиб бораётган Ўзбекистон учун меҳнат бозорининг ўзгарувчан талабларига тез мослаша олувчи олий таълим тизими фаолиятини йўлга қўйиш ва уни ривожлантириб бориш ҳам долзарб масаладир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг

¹¹ Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. www.uza.uz. 07.01.2017 й.

¹² Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш. Мирзиёев. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Таълим Тўғрисида. Тошкент ш., 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон.



Ўзбекистон Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. www.uza.uz. 07.01.2017 й.

2. Ахлиддинов и др. “Управление образованием в Узбекистане: проблемы, поиск, решения”. Т. “Ес-ТАСИС”. 1999–214 стр.
3. Исақулова Н., Қосимова З. Хорижий мамлакатларда таълим. – Т. 2011. – 106 бет
4. Исроилов Б.И. Таълим тизимида инновацион корпоратив ҳамкорликни ривожлантиришда иқтисодий механизмлар ролини ошириш. ТМИ, ИАК, 2016 йил., 26 март.

ЛОЙИҲА БОШҚАРУВИНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСЛУБЛАРИ, ЛОЙИҲА МУВАФФАҚИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ЭЛЕМЕНТЛАР

Мадраҳимова Шавкатхон Адхамжон қизи,
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси магистранти
Телефон: +998(91) 788 85 00
madraximovbaxtiyor667@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Мақолада сўнги ўзгаришлар ва лойиҳа бошқарувида замонавий услублар ишлаб чиқиш, амалиётда қўллаш дастурини амалга ошириш ва оммалаштириш ғоялари илгари сурилган. Ҳар қандай лойиҳанинг моҳияти фаолиятда ётади, лекин унинг муваффақиятли бўлиши учун ушбу лойиҳани пухта ўйлаш керак, бу самарали фаолиятнинг кафолати бўлиб хизмат қилади ва уни яқуний мақсадга эришишга йўналтиради. Лойиҳани бошқаришда ташкил этиш, режалаштириш, етакчилик, меҳнатни мувофиқлаштириш, молиявий санъат томонидан ўз мақсадларига эришишга қаратилган бутун лойиҳа цикли давомида моддий-техника ресурслари лойиҳа устидан назоратни таъминлашни назоратга олиш асосий вазифа ҳисобланади. Лойиҳа бошқарувида замонавий услубларнинг асосий тамойиллари таҳлил қилиниб, амалий таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқишдан иборат.

КАЛИТ СЎЗЛАР: Лойиҳа менежменти, инвестиция муҳити, инвестицион жозибadorлик, инвестицион риск, инвестиция салоҳияти, минтақа, баҳолаш усуллари, рейтинг, лойиҳа бошқаруви, лойиҳанинг муваффақияти, муваффақият элементлари.

ABSTRACT. The article presents the latest developments and ideas for the development, implementation and popularization of modern methods in project management. The essence of any project lies in activity, but in order for it to be successful, it is necessary to think carefully about this project, which serves as a guarantee of effective activity and directs it to achieve the final goal. In project management, organization, planning, leadership, coordination of work, control of material and technical resources during the entire project cycle aimed at achieving its goals is the main task. In project management, the main principles of modern methods are analyzed and practical proposals and recommendations are developed.

KEYWORDS. Project management, investment environment, investment attractiveness, investment risk, investment potential, region, assessment methods, rating, project management, project success, elements of success.

КИРИШ

Классик бошқарув мактаблари методологияси амалий тажрибани тизимлаштириш асосида шаклланади. Ушбу оқилона ташкилий ва бошқарув парадигмасида ташкилот фақат бошқарув амалиётининг объекти сифатида кўриб чиқилади ва менежментнинг ўзи ташкилотнинг ички муҳитига таъсир қилиш, ташкилий тизим элементларини тартибга солиш жараёни сифатида қаралади. Бошқарув усуллари ҳам соф рационал характерга эга: ихтисослаштириш, расмийлаштириш, тартибга солиш ва бошқалар.



Замонавий бошқарув тамойиллари корхона ва ташкилотлар олдида турган вазифаларни бажариш учун жамоавий ёндашувларни талаб қилади. Бугунги кунда энг самарали ва илғор бошқарув тамойилларидан бири бу лойиҳаларни самарали бошқариш ҳисобланади. Лойиҳани бошқариш тамойилларидан фойдаланиш ташкилий ривожланиш муаммоларини янада самарали ҳал қилиш имконини беради. Шунингдек, барча соҳаларда белгиланган мақсадларга муваффақиятли эришиш ишончилигини оширади.

АДАБИЁТЛАР ШАРҲИ

3. Логическая цепочка. Применяется на любом этапе урока, в зависимости от цели, которую ставит педагог. Выстраивая рассуждения путем расстановки логической последовательности элементов, учащиеся быстрее усваивают большие объемы информации и выявляют закономерности.

При критическом мышлении, педагог перестает быть главным источником информации, и, используя приемы, методы обучения превращается в совместный и интересный поиск. Данная технология позволяет учителю: давать учащимся возможность высказывать свою точку зрения по поводу изучаемой темы, не боясь аргументировать,



показать свои знания и умения, услышать другие мнения. Таким образом, достигая всех необходимых результатов и повышая, таким образом, мотивацию к изучению предмета.

Таким образом мы видим, что система креативного и критического мышления развивается только в том случае, когда есть посыл в школьном укладе жизни и в определённом классе. Она развивается определёнными методами и приёмами. Главным же условием являются наличие заданий, которые могут быть представлены в самых разнообразных видах и формах, и иметь собственные ответы. И заниматься этим нужно как в урочное время, так и во внеурочной деятельности.

Список использованной литературы:

1. Развитие критического мышления на уроках математике. URL: <https://umius.ru/news/razvitie-kriticheskogo-myshleniya-na-urokah-matematiki/>
2. Развитие креативности на уроке математики. URL: <https://s-ba.ru/conf-posts-2022-09/tpost/40268kysf1-razvitie-kreativnogo-mishleniya-na-uroka>
3. Развитие критического мышления на уроках математике. URL: <https://urok.1sept.ru/articles/213208>
4. Зязюн И.А. Основы педагогического мастерства: Учеб. пособие -М., 2009.
5. Развитие креативности на уроке математики. URL: <https://nsportal.ru/shkola/matematika/library/2020/09/20/razvitie-kreativnogo-myshleniya-na-urokah-matematiki>

WHY TO DEVELOP INDEPENDENT STUDY SKILLS

Aziza Rahimjonova,
PhD Student of Namangan State University

Abstract: Research practices prove that a student can acquire knowledge better only if he/she is an autonomus learner and works continiously on themsleves. Students' background knowledge, skills and competences are developed only in the process of independent learning as well as they will develop their ability to work independently and get interacted into creative tasks. This article describes the issues of why to develop students' independent learning skills.

Key words: independent learning, skills, independent study skills, learner autonomy, autonomous learning

Annotatsiya: Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlagagina bilimlarmi chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish qanday rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, ko'nikma, mustaqil ta'lim ko'nikmalari, talaba avtonomiyasi, mustaqil o'rganish

In today's era of globalization and digital technologies, developing students' independent study skills have become one of the main requirements of the educational process. In higher educational institutions, students are expected to learn independently, manage their time, and seek out resources. Independent study skills prepare students for these future demands, giving them the tools they need to succeed in both academic and professional environments.

Numerous studies have been conducted to reveal how students can develop their autonomy and what practices or learning strategies they apply effectively to develop their independent study skills. Holec (1981) defines that independent learning means taking responsibility for the decisions concerning the different aspects of the learning process such as selecting learning materials, methods, the place and time of learning, the partners, etc. (Holec, 1981). According to Benson (2001),



independent learning means critical thinking, planning and evaluating learning, and reflection, a conscious effort on the part of the learner to continuously monitor the learning process from beginning to end (Benson, 2001).

Independent study skills have a direct impact on the educational success of the student. These skills are demonstrated through the following aspects:

1. Self-organization and planning: The student must have the skills to effectively manage his/her time and plan the educational process. Independent learning fosters self-discipline and develops better time management skills, as they learn to prioritize tasks and manage their study schedules efficiently. Students with strong independent study skills are often better prepared for exams and assignments. They learn to manage their time effectively, review materials thoroughly, and seek out additional resources which lead to improved academic outcomes.

2. Critical thinking and Problem solving: The student should develop the ability to apply the acquired knowledge to solve real problems. Independent study encourages students to think critically, analyze information, and solve problems on their own. This helps them become more self-reliant and enhances their ability to make informed decisions without relying solely on others.

3. Self-evaluation and reflection: Self-evaluation and reflection encourages students to think critically about their learning habits, strengths, and weaknesses. By considering what they've learned and how they've approached their studies, students become more aware of their learning styles and the areas in which they need improvement. Through reflection, students can evaluate the effectiveness of their study techniques. They may discover which methods work best for them (e.g., summarizing, note-taking, or self-testing) and adjust their strategies accordingly to enhance their performance and learning outcomes (Benson, 2001).

Autonomous learners take responsibility for their learning not only on the level of learning management, but also in a cognitive sense, which means, as Little puts it, that they are willing to make a conscious effort to understand what, why and how they are learning (Little 1996:4).

In order to develop students' independent study skills, it is necessary to use different methodological approaches to increase students' active participation in the learning process. Teaching practices show that independent study skills can be fostered if students work in teams collaboratively and take individual responsibility for their own contributions to group work activities. They collaborate and learn from each other while still engaging in independent research projects and solve real-life problems by independently researching, analyzing, and applying knowledge. They share insights and critique each other's work, promoting reflection, critical thinking and problem-solving skills. Group-based tasks allow students working toward a common goal. This builds both collaboration and learner autonomy. To foster student autonomy, educators must create an environment that promotes self-direction, critical thinking, reflection, and responsibility. Students can become more autonomous, self-motivated learners who have responsibility over their own education by gradually shifting power from the teacher to the student.

Hence, developing students' independent learning skills is becoming one of the important directions of the educational process today. When students control over their own learning, they gain confidence in their abilities. This sense of autonomy empowers them to take responsibility for their education, boosting their motivation and engagement. With the help of modern technologies and methodical approaches, it is possible to ensure students' independent thinking, striving for self-development and active participation in the educational process. In this way, students will be able to develop their knowledge independently without relying only on the teacher, which will ensure their future success.

References:

1. Benson, P. (2001). *Teaching and Researching Autonomy in Language Learning*. Harlow: Longman.
2. Holec, H. (1981). *Autonomy in Foreign Language Learning*. Oxford: Pergamon.
3. Little, D. (1990). *Autonomy in language learning*. In: Gathercole, I. (ed.). *Autonomy in Language Learning*. London: CILT. 7–15.



BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA BADIY-TARIXIY ASARLAR VOSITASIDA SHAXSIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mavluda Qodirova,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish pedagogika jarayonida shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bo‘lajak pedagoglar uchun bunday asarlar nafaqat bilim beradi, balki shaxsiy sifatlarni ham shakllantiradi. Mazkur maqolada badiiy-tarixiy asarlar vositasida bo‘lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda pedagogik-psixologik jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Badiiy-tarixiy asarlar, bo‘lajak pedagog, shaxsiy sifatlar, pedagogik-psixologik xususiyatlar

Аннотация: Использование художественных и исторических произведений играет важную роль в развитии личностных качеств в процессе педагогики. Для будущих педагогов такие произведения не только дают знания, но и формируют личностные качества. В данной статье анализируются педагогические и психологические аспекты развития личностных качеств будущих педагогов средствами художественных и исторических произведений.

Ключевые слова: Художественно-исторические произведения, будущий педагог, личностные качества, педагогико-психологические особенности

O‘zbek millatining kelajagi, uning istiqboli ko‘p jihatdan bo‘lajak pedagoglarga, ularning saviyasi, kasbiy tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq. Pedagogika va psixologiyada bo‘lajak pedagoglar uchun shaxsiy sifatlarning rivojlanishi ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga, ta‘lim jarayonida samaradorlikka va ijtimoiy hayotda faollikka ta‘sir ko‘rsatadi [1]. Ushbu sifatlarni rivojlantirishda badiiy va tarixiy asarlarning o‘rni katta bo‘lib, ular tarbiyaviy ahamiyatga ega ma‘lumotlarni chuqur anglash va ulardan foydalangan holda axloqiy, madaniy va intellektual jihatdan shakllanishga yordam beradi.

Bo‘lajak pedagoglarning ushbu sifatlarini rivojlantirishda ta‘lim jarayonida badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning tarbiyasi, kasbiy tayyorgarligi va shaxs sifatlarini shakllantirishda asosiy omil bo‘lib, quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega [2]:

Maqsad va mazmunning muvofiqligi. Badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish orqali pedagoglarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishda ilmiy-tarixiy, axloqiy, madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish va ularni qabul qilishga qaratiladi. Bo‘lajak pedagoglar o‘quv materiallarining mazmuni, tarixiy voqealarni, qahramonlarni va ularga xos shaxsiy xususiyatlarni ijtimoiy va madaniy kontekstda o‘rganadi;

Emotsional intellekt va empatiya. Badiiy-tarixiy asarlar o‘quvchilarda emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradi. Asarlarni mutolaa qilish orqalu o‘quvchilar boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishga, ularning holatini, hissiyotlarini va xarakterlarini anglab etishni o‘rganadilar. Bo‘lajak pedagoglarda kelajakda o‘quvchilarga ta‘lim-tarbiya berishda, turli vaziyatlarda tushunish va o‘quv jarayonida yordam berishlari uchun ushbu sifatlarni shakllantirish zarur.

Tahlil va tanqidiy fikrlash. Badiiy-tarixiy asarlarni tahlil qilish jarayonida bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Ular asarlarni tahlil qilishda sabablar va natijalarni aniqlay olishlari, turli nuqtai nazarlarni o‘rganishlari zarur. Tahliliy yondashuv pedagoglarni muammolarni hal etishga tayyorlash va ularning kasbiy faoliyatlarida tanqidiy fikrlashlarini qo‘llashga yordam beradi.

Tarbiyaviy va axloqiy jihatlari. Badiiy-tarixiy asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, pedagoglarda ijtimoiy mas‘uliyat, axloqiy qadriyatlar va etika asoslarini shakllantiradi. O‘quvchilar tarixiy shaxslar va qahramonlarning xatti-harakatlari orqali axloqiy saboqlar olishlari mumkin, bu esa



ularning shaxs sifatlarini rivojlantiradi. Tarixiy va badiiy asarlar o'quvchilarga ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni anglash imkonini beradi, bu esa pedagoglarning o'zi ham keng ko'lamli fikrlash imkoniyatiga ega bo'lishlariga yordam beradi. Bunday yondashuv talabalarni butun insoniyat tarixidan va madaniyatidan saboq olishga va ularni o'z hayotlariga tatbiq etishga undaydi.

Kreativlik va ijodkorlik. Badiiy-tarixiy asarlar bo'lajak pedagoglarga o'z ijodiy fikrlarini rivojlantirishga va o'quvchilarga ijodiy yondashuvni o'rganish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilarning ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun turli ijodiy faoliyatlar, masalan, drammatizatsiya, rasm chizish yoki yozuv ishlari tashkil etilishi mumkin. Bu jarayonda talabalar interaktiv usullar orqali bir-birlari bilan ijodiy fikr almashish, bahs-munozaralar olib borish va o'zaro tajriba o'tkazish imkoniga ega bo'lishadi. Bu yondashuv talabalarni faol ishtirok etishga undaydi va ularning ta'lim tajribasini qiziqarli va samarali tashkil etishga ko'maklashadi [3].

OTMlarda bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning tarixiy-badiiy adabiyotlardan mavzu mohiyatini yoritishda ta'lim jarayonida, talabalarda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish yoki rivojlantirishda ma'rifiy ishlar jarayonida foydalaniladi. Tarixiy-badiiy asarlarning ta'sirchanligi ularning qanchalik to'g'ri tanlanganiga bog'liq. Mutolaa uchun badiiy asarlarni tanlash nafaqat bolalar, hatto kattalar uchun ham qiyin kechadi. Shu bois bu jarayonda, tajribali, jahon va o'zbek adabiyotining eng sara namunalaridan yaxshi xabardor mutaxassislar, pedagoglarning metodik yordamiga, pedagogik maslahatiga ehtiyoj seziladi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, badiiy-tarixiy asarlar vositasida bo'lajak pedagoglar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlarga ega bo'lishi zarur. Ushbu jarayon nafaqat ularning bilim va ko'nikmalarini, balki shaxsiy axloqiy qadriyatlarini, empatiya va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga, dunyoqarash va ijtimoiy mas'uliyat bilan to'ldirishga yordam beradi. Bu, bir tomondan, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, pedagoglarning kasbiy o'sishlariga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
2. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007.
3. Nuriddinovna, Y. K. (2023, December). PEDAGOGIK MAHORAT OQITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI ASOSI SIFATIDA. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 12, pp. 516-519)*.

GEOGRAFIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TALABALARNING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Qo'ldasheva Maxmuda Nurmatjonovna,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi


Annotatsiya: Mazkur maqolada geografik modellashtirish orqali talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarb masalalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetentligi, kommunikativ universal o'quv faoliyati, talabalarining dunyoqarashini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: modellashtirish, geografik modellashtirish, kompetentlik, kompetensiya, universal kompetensiya, axborot kompetensiyasi, o'quv faoliyat.

Barchamizga ma'lumki, respublikamizda ta'lim uning mazmunini modernizatsiya qilish, standartlashtirish ko'rsatkichlari qatorida zamonaviy bilimlarning rivojlanish tendensiyalariga olib chiqish, shuningdek, geografik modellashtirish bo'yicha universal ta'limni rivojlantirishga asoslangan didaktik loyihalashning tarbiyaviy asosi sifatida foydalanish imkoniyati uning madaniy



yoʻnalishini kuchaytirish, oʻquv jarayonini tashkil etish metodikasi va texnologiyalarini optimallashtirishni taqozo etadi.



1- rasm. Talabalarning kompetensiyasini rivojlantirish modeli



Shu uchun ham geografiya fani sohasida geografik bilimlar tabiiy va ijtimoiy birlashishga intiladi, bu ham uning talabalarining dunyoqarashini shakllantirishdagi noyob ahamiyatini belgilaydi:

- faoliyatini tashkil etish, maqsad va vazifalarini aniqlash, maqsadga erishish vositalarini tanlash va ularni amalda qo'llash, erishilgan natijalarni baholash;

- maqsadlarga erishish yo'llarini mustaqil ravishda rejalashtirish, o'quv va kognitiv vazifalarni hal qilishning eng samarali usullarini ongli ravishda tanlash;

- tarbiyaviy vazifani amalga oshirishning to'g'riligini, uni hal etishning o'z imkoniyatlarini baholash;

- texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil qidirish, axborotni tanlash, uni o'zgartirish, saqlash, uzatish va taqdim etish;

-o'z-o'zini boshqarish asoslarini bilish, o'z-o'zini hurmat qilish, o'z harakatlarini va boshqa odamlarning harakatlarini ijtimoiy me'yorlar nuqtai nazaridan baholash qobiliyati;

- ta'lim va kognitiv faoliyatda qarorlar qabul qilish va ongli tanlov qilish;

-axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat (1-rasm).

Kommunikativ universal o'quv faoliyati:

- o'qituvchi va tengdoshlari bilan tarbiyaviy hamkorlik va birgalikdagi faoliyatni tashkil etish; yakka tartibda va guruhda ishlash: pozitsiyalarni

muvofiqlashtirish va manfaatlarni hisobga olish asosida umumiy yechim topish va nizolarni hal qilish;

- individual va guruhda ishlash: pozitsiyalarni muvofiqlashtirish va manfaatlarni hisobga olish asosida umumiy yechim topish va nizolarni hal qilish; turli xil ijtimoiy rollarni bajarish, o'zini namoyish etish va hokazo;

- muloqotga kirishish, shuningdek muammolarni jamoaviy muhokama qilishda ishtirok etish, munozarada qatnashish va o'z pozitsiyasini bahslashish, og'zaki ntq jarayonida o'zbek tilining grammatik va sintaktik me'yorlariga muvofiq nutqning monologik va dialogik shakllarini o'zlashtirish;

- sheriklarni hurmat qilish, boshqasining shaxsiga e'tibor berish, yetarli shaxslararo idrok etish, boshqalarning ehtiyojlariga yetarlicha javob berishga tayyorlik, xususan sheriklarga yordam va hissiy yordam ko'rsatishga asoslangan aloqa va hamkorlikning axloqiy, axloqiy, psixologik tamoyillariga rioya qilish. qo'shma tadbirlar;

- samarali munozaralarini tashkil etish va birgalikda qaror qabul qilish uchun guruh a'zolari o'rtasida bilim almashinuvini ta'minlashga erishiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida geografik modellashtirish va ijobiy dinamika orqali universal ta'lim harakatlarini shakllantirish metodologiyasining samaradorligi bir nechta parametrlar asosida aniqlanadi. Shuningdek, geografik modellashtirish vaqt o'lchovidagi o'zgarishlarni kuzatishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160 sonli qarori

2. Жўраев Р, Зуннунов А. Таълим жараёнида ўқув фанларини интеграциялаш. Шарк нашриёти. – Т.: 2005. – Б. 52

3. Солодухина Н.Н., Географическое моделирование как условие формирования универсальной учебной деятельности в основной школе. Автореф. кандидата педагогических наук: 13.00.02.- Москва. 2015. – С. 93



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA KUZATUV VA DALILLAR METODLARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI

Sailova Manzura
Biologiya fani o'qituvchisi
TTA UF akademik litsey

Annotatsiya: Bu maqolada biologiya fanini o'qitishda kuzatuv va dalillar metodlaridan foydalanishning ahamiyati, bu metodlar o'quvchilarga biologik jarayonlarni chuqurroq tushunish va amaliy tajribalar orqali bilimlarni mustahkamlash imkonini berishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Biologiya, metod, kuzatuv, dalil, o'simlik, hayvon, tajriba.

Biologiya fanini o'qitishda kuzatuv metodlaridan foydalanish o'quvchilarga biologik jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu metodning bir qancha foydali jihatlari bor:

1. **Amaliy tajriba:** O'quvchilar hayotiy muhitda biologik hodisalarni kuzatish orqali nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etadilar. Masalan, o'simliklar va hayvonlar hayotini, ularning o'zaro ta'sirini o'rganish.
2. **Tabiat bilan aloqani o'rnatish:** Tabiatda kuzatuvlar o'tkazish o'quvchilarga tabiatga yaqinlashishga va biologik xilma-xillikni baholashga imkon beradi. Bu ularning ekologik ongini rivojlantiradi.
3. **Tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish:** Kuzatuv metodlari o'quvchilarga o'z tadqiqotlarini o'tkazish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu ilmiy tadqiqot jarayoniga tayyorgarlik ko'rish uchun muhimdir.
4. **Tanqidiy fikrlashni oshirish:** O'quvchilar kuzatuvlar asosida xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Bu jarayon tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.
5. **O'z-o'zini baholash:** O'quvchilar o'z kuzatuvlarini baholash va tahlil qilish orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu sababli, biologiya fanini o'qitishda kuzatuv metodlari o'quvchilarni faollashtiradi va ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Biologiya fanini o'qitishda dalillar metodlaridan foydalanish, o'quvchilarga ilmiy fikrlashni rivojlantirish, biologik jarayonlar va hodisalarni chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Bu metodlarning asosiy afzalliklari quyidagilar:

1. **Ilmiy asos:** Dalillar metodlari orqali o'quvchilar biologik fenomenlarni ilmiy asosda o'rganadilar. Olingan dalillarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tadqiqotlar o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2. **O'zaro bog'liqlikni tushunish:** O'quvchilar turli biologik jarayonlar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
3. **Tajribaviy ishlar:** Dalillar metodlari eksperimentlar va kuzatuvlar orqali ma'lumotlar to'plashni o'z ichiga oladi. Bu o'quvchilarga amaliy tajriba orttirishga va biologik tadqiqotlar olib borishga yordam beradi.
4. **Analitik fikrlash:** O'quvchilar dalillarni tahlil qilish jarayonida analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ular ma'lumotlarni qiyoslash, muammolarni hal qilish va yangi fikrlarni yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
5. **Ilmiy metodologiya:** Dalillar metodlari ilmiy metodologiyalarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarga ilmiy tadqiqotlarni qanday o'tkazish va natijalarni qanday baholashni o'rgatadi.
6. **O'z-o'zini baholash:** O'quvchilar o'z dalillarini baholash orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa o'z-o'zini o'rganishga yordam beradi.

Shu tarzda, dalillar metodlari biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarga ilmiy fikr va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.-T, 2001.



2. Safin D.V., Musina R.G. Ta'lim berish va o'qishning interfaol usullari. O'quv qo'llanma.-1-modul. Interfaol o'qitishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2007.
3. Yo'ldashev J. "Yangi pedagogik texnologiya:yo'nalishlari, muammolari, yechimlari", "Xalq ta'limi"1999-yil, 4-son.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF SCAFFOLDING AND ITS IMPACT ON THE EDUCATIONAL PROCESS

Sevara Toshburieva
Master's student, Webster University

Abstract: This study explores scaffolding's impact on EFL learners' linguistic skills and autonomy, showing that scaffolded instruction significantly enhances proficiency and practical communication through structured support and gradual independence.

Keywords: scaffolding, instruction, communication, learners' linguistic skills.

Scaffolding is an educational technique grounded in the sociocultural theory of learning, particularly the works of Lev Vygotsky. In the context of education, scaffolding refers to the temporary support provided by teachers, peers, or educational tools that helps students achieve a deeper understanding or higher performance than they would be capable of independently. As students' knowledge and skills increase, the scaffolding is gradually removed, allowing learners to take more responsibility for their own learning. This dynamic and adaptive process is essential in helping students bridge the gap between what they can do independently and what they can achieve with guidance. The following article explores the theoretical foundations of scaffolding and its significant impact on the educational process.

One of the most significant impacts of scaffolding is its ability to increase student engagement and motivation. When students are provided with appropriate support, they are more likely to succeed in challenging tasks, which boosts their confidence and encourages them to take on more difficult assignments. Scaffolding helps students feel a sense of accomplishment, fostering a growth mindset in which they believe they can improve their abilities through effort and persistence.

Moreover, scaffolding can make learning more enjoyable by breaking down complex tasks into smaller, achievable steps. This approach reduces frustration and allows students to experience success incrementally, which increases their intrinsic motivation to learn.

Vygotsky argued that learning is a social process and that interaction with others is critical for cognitive development.

Jerome Bruner expanded on Vygotsky's ideas by coining the term "scaffolding" to describe the supportive strategies teachers use to guide students through the learning process. Bruner emphasized the importance of engaging learners at the right level of difficulty and using language or tasks that are just beyond their current understanding but within their ZPD. He believed that effective scaffolding involves providing learners with enough support to succeed while still challenging them to stretch their abilities.

Scaffolding is designed to be temporary and flexible, with the primary goal of fostering learner independence. The support provided by the teacher is gradually adjusted based on the student's progress. Initially, the teacher may offer extensive guidance, modeling strategies, providing cues, or breaking down complex tasks into manageable parts. As the learner becomes more confident and skilled, the teacher reduces the amount of assistance.

For instance, in language learning, a teacher may initially provide sentence starters or vocabulary lists to help students write essays. As students improve their writing skills, the teacher reduces these supports, allowing students to generate their own sentences and use the vocabulary they



have internalized. This flexibility ensures that learners remain challenged but not overwhelmed, promoting steady progress toward independence.

Scaffolding encourages a collaborative approach to learning, where the teacher and student actively engage in dialogue and problem-solving. Teachers provide feedback, ask guiding questions, and encourage students to reflect on their learning process. This interaction helps learners articulate their thought processes and identify areas where they need further support.

The interactive nature of scaffolding aligns with constructivist theories of learning, which suggest that students learn best when they actively participate in the construction of their knowledge. Through collaboration, learners are not passive recipients of information but active participants in their own learning journey.

Scaffolding also helps students develop problem-solving skills, critical thinking, and adaptability—essential skills in today’s rapidly changing world. By learning to approach challenges systematically, students become more independent and resilient learners, capable of applying their knowledge and skills in various contexts.

The impact of scaffolding on the educational process is profound, as it not only improves learning outcomes but also fosters the development of autonomous, self-directed learners. As students gain confidence and competence, they are better equipped to take ownership of their learning, which prepares them for lifelong success in both academic and real-world settings.

Scaffolding, therefore, remains an essential pedagogical tool for educators aiming to guide students toward independence while ensuring they receive the support needed to overcome learning challenges.

REFERENCES

1. Vygotsky, L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press, 1978.
2. Bruner, J. S. *The Culture of Education*. Harvard University Press, 1996.
3. Wood, D., Bruner, J. S., & Ross, G. The Role of Tutoring in Problem Solving. *Journal of Child Psychology and Psychiatry*, 1976, 17(2), pp. 89-100.
4. van de Pol, J., Volman, M., & Beishuizen, J. Scaffolding in Teacher–Student Interaction: A Decade of Research. *Educational Psychology Review*, 2010, 22(3), pp. 271-296.

ОТМЛАРДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ТУРЛАРИ ВА МАЗМУНИ

Сайёра Инамова,

Наманган давлат университети таянч докторанти

Аннотация: Маълумки, ОТМларда мустақил таълим талабани таълим олишнинг замонавий усуллари егаллашга, ўз ижодий қобилиятларини ўстиришга, фикрлаш тарзини такомиллаштиришга йўналтиради. Мазкур мақолада талабалар мустақил таълимини ўқув жараёнида амалга ошириладиган турларига эътибор қаратамиз.

Калит сўзлар: мустақил таълим, мустақил таълим турлари, мустақил иш, мустақил таълим мазмуни

Талабаларда мустақил таълим олишга қизиқиш уйғотувчи куч, мотив сабабларга боғлиқ ҳолда улар ўз олдларига мустақил таълим мазмунини ташкил этувчи мақсад ва вазифаларни белгилаб оладилар. Буни қуйидагича ифодалаш мумкин 1-расм:

1. Мустақил фаолият олиб боришда муҳим ҳисобланган **сиёсий мустақил таълим**, замонавий воқелик ва уларга бўлган муносабат;



2. Танлаган йўналиши бўйича фаолият олиб бориш, талабанинг мустақил таълим олишларини ўзлаштиришга йўналтирилган тайёргарлик давридаги **касбий мустақил таълим**;



1-расм. Мустақил таълим мазмунини ташкил этувчилари

3. Ўқув фанларини янада чуқурроқ ўрганишга, шахсий-ҳаётий режалари, **шахсий қизиқиш асосида йўналтирилган мустақил таълим**;

4. Ўз истеъдодини ва севимли машғулотларини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган мустақил таълим.

5. Ўз характерини тарбиялашга қаратилган мустақил таълим.

Талабалар мустақил ишларининг олий ўқув юртининг ўқув жараёнида амалга ошириладиган турларига эътибор қаратамиз. Ушбу муаммога нисбатан турли тадқиқотчиларнинг ёндашуви турлича. Айрим тадқиқотчилар мустақил ишларни уларнинг дидактик мақсадларига кўра, бошқалари ўқувчилар томонидан мустақил ишлар жараёнида ҳал этиладиган билиш топшириқларининг хусусиятига қараб, учинчилари эса билиш топшириқларини ҳал этиш жараёнида ўқувчилар билиш фаолиятининг хусусияти бўйича таснифлашади. Тўртинчи турга мансуб тадқиқотчиларнинг ишларида мустақил ишлар турларининг барча юқорида санаб ўтилган асосларни ҳисобга олувчи таснифини яратишга уриниб кўрилган. П.И.Пидкасистий мустақил ишларни билиш топшириқлари ва билиш фаолиятининг хусусиятига қараб гуруҳлайди ҳамда мустақил ишларнинг қуйидаги турларини ажратади: 1) мустақил ишларни намуна бўйича амалга оширувчи; 2) реконструктив-вариатив; 3) эвристик; 4) ижодий (тадқиқот) [1].

Ушбу турларнинг ҳар бири уни ўзгартириш бўйича бажарилаётган билиш фаолиятининг мазмуний-манتيкий хусусиятлари билан тавсифланади, шунга қараб эса ўқувчининг фаолият жараёнидаги мустақиллиги даражаси белгиланади. Н.Б.Фадеева мустақил фаолиятнинг учта турини ажратади: нусха кўчирувчи, ўзгартирувчи ва ижодий [2].

Бизнинг назаримизда, мустақил ишлар турларининг таснифи Г.А.Лозовская томонидан энг тўлиқ ҳолда тақдим этилган бўлиб, у мустақил ишларни таълим мақсадлари бўйича табақалаган [3].

1) Маъруза жараёнида ишлаш. Таълим мақсади – қабул қилиш, англаб етиш, аниқлаш, таснифлаш даражасида янги билимларни ўзлаштириш; мустақил чуқурлаштириш ёки материални ўрганишга тайёргарлик.

2) Ўқув адабиёти билан ишлаш (шу жумладан маърузаларни конспект қилиш). Таълим мақсади – материални ўрганишни чуқурлаштириш, материални ўқув дастурида белгиланган



даражада ўзлаштириш, амалий машғулотга тайёргарлик, навбатдаги маъруза материални қабул қилишга тайёргарлик.

3) Амалий машғулотларда ишлаш. Таълим мақсади – билимларни мустаҳкамлаш, чуқурлаштириш, кўникмаларни шакллантириш.

4) Уй вазифасини бажариш. Таълим мақсади – кўникмаларни мустаҳкамлаш, назарий билимларни чуқурлаштириш, навбатдаги амалий машғулотларга, маърузадаги кейинги материални қабул қилишга тайёргарлик.

5) Назорат ишига, коллоквиумга тайёргарлик. Таълим мақсади – билимлар ва кўникмаларни мустаҳкамлаш, уларга мустақил тузатишлар киритиш.

6) Назорат ишини бажариш, коллоквиумда жавоб бериш. Таълим мақсади – ўзлаштиришни назорат қилиш ва ўзини ўзи назорат қилиш.

7) Индивидуал топшириқларни бажариш. Таълим мақсади – билимлар ва кўникмаларни мустаҳкамлаш. Билимларни субъектив янги вазиятга кўчириш, индивидуал қобилиятларни ривожлантириш.

8) Имтиҳонга тайёргарлик. Таълим мақсади – билимлар ва кўникмаларни мустаҳкамлаш, уларга мустақил тузатишлар киритиш.

9) Имтиҳон топшириш. Таълим мақсади. – мустақил ишни назорат қилиш ва қисман билимларнинг мустаҳкамлигини текшириш, тескари боғлиқликнинг амал қилиши.

10) Талабанинг ўқув-тадқиқот иши. Таълим мақсади – билимларни кенгайтириш ва чуқурлаштириш.

Ушбу тасниф муаллифининг таъкидлашича, «мустақил ишларнинг кўриб чиқилган турларига талаба фаолиятидаги мустақилликнинг турли даражаси хос». Шу нуқтаи назардан тадқиқотчи мустақил ишларнинг турларини бешта гуруҳга ажратиб, уларни шартли равишда босқичлар деб атади: учта ўқитиш босқичи ва иккита назорат қилиш босқичи. Бир босқичдан иккинчисига ўтишга қараб, катта номер билан, ўқитувчи ёрдамнинг сусайиши юз беради, иш янада мустақил тус олади.

Мустақил ишлар турларининг Р.А.Лозовская томонидан таклиф этилган таснифи, педагогик адабиётлардаги энг тўлиқ тасниф ҳисобланса-да, у ҳам кўплаб таснифларга хос бўлган камчиликлардан ҳоли эмас. Уй вазифасини, индивидуал топшириқни бажаришда, синонга, имтиҳонга тайёргарлик жараёнида талаба ҳамма вақт ўқув адабиёти билан ишлайди ва шунинг учун таклиф этилган мустақил иш талабига айрим номувофикликлар кузатилади.

Бизнингча, ОТМларда мустақил таълимни фақат мустаҳкам билимлар асосида, ҳамда билиш-қидирув ва репродуктив йўналишдаги турли-туман ўқув вазифаларни мустақил бажариш жараёнида ақлий фаолиятнинг аниқ усуллари ишлаб чиқиш орқали амалга ошириш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении. - М., 1980. - 240с.
2. Фадеева Н.Б. Самостоятельная работа учащихся 6-7 классов на уроках иностранного языка при овладении устной (монологической) речью: Автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. - Л., 1987
3. Лозовская Г.А. Организация самостоятельных работ студентов младших курсов вуза: Дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. - Новочеркасск, 1975. - 197с.
4. Инамова, С. (2024). Mustaqil ish jarayonida talabalarning didaktik kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4), 345-350.



**ТЕХНИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RGATISH ORQALI TALABALARDA ILMIY
DUNYOQARASH DOIRASINI RIVOJLANTIRISH**

Ravshanova Roxila

Maxmadaminovna

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti "Oliy
matematika va axborot
texnologiyalari" kafedrası
assistenti (O'zbekiston)
Tel:934399690

Ravshanovaroxila1988@gmail.com

Ramazanov Javohirbek Jonibek

Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti liseyi
o'quvchisi

Annotasiya: Hozirgi kunda talabalarda raqamli texnologiyani yanada mukammalroq o'rgatish maqsadida, chet tillaridan unumli foydalangan holda talabalar dunyoqarashini yanada oshirishga qaratilgan. Bu tezisda raqamli texnologiyalarni talabalarga samarasi yuqoriligi ko'rsatib berilgan .

Talabalar bilimlarini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalardan turli xil foydalanish ham yordam beradi. Raqamli texnologiyalar bilim saviyani oshirishda juda samarali vazifani bajaradi. Chet davlatda raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qishni o'rganish avtonom, umrboqiy bilim, malaka, ko'nikma asosidir. Ko'p jihatdan bu texnologiyadan foydalanish dars faolligini oshirish, o'qish strategiyalarini yanada mukammal tushunish, yodda saqlanadigan qilib o'rgatish bilan talabalarning bilim va xulosalar chiqarish va talabalarda taraqqiyotni tezlashtirish vazifasida asosiy rol o'ynaydi.

Masalan, ayniqsa chet tilini o'rganuvchilar uchun lingvistik bilimlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'qish va tadqiqotda muvaffaqiyatga erishish birinchi o'rinda emasligini, kognitiv qobiliyatlar bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Chet tilida ma'lum bir malaka chegarasiga erishilgunga qadar raqamli texnologiyadan foydalanish doim yuqori samara berib kelmoqda.

Bundan tashqari, internet talabalarga chet el tilidagi cheksiz o'qish materiallariga oson kirish imkonini beradi. Barcha talabalarga o'tiladigan fanlarda IT sohasi, raqamli texnologiyalarni qo'llash zamonaviy bilim berish darajasini oshiradi. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mavjud bo'lgan materiallarning ko'pligi kerakli va unumli ma'lumotlarni tez va qulay topishda yordam beradi.





Talabalarni kengroq o'qishga va ularni yuqori darajadagi matnlarga kirishga undashi mumkin. Ular odatda auditoriyada shug'ullanishadi. Bundan tashqari, ba'zi talabalar raqamli yoki mobil qurilmalarda o'qishni yanada qiziqarli, qulayroq va ko'proq deb bilishadi. Qog'ozga asoslangan matnlarni o'qishdan ko'ra texnologiyalardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli matnlarga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlar ularni o'qishni ko'proq qiladi.

Talabalar uchun qog'oz matnlardan ko'ra raqamli texnologiyalardan foydalanish foydalidir. Masalan, giperhavolalar mavjudligi qo'shimcha ma'lumotlarga va onlayn lug'atlar yoki lug'atlar o'qishni rivojlantirishga yordam beradi.

Tushunish xususan, ushbu vositalardan foydalanish qulayligi, qog'ozga asoslangan versiyalar bilan taqqoslash, oxir-oqibatda, talabalarning ularni ishga olish motivatsiyasini oshirishi mumkin.



O‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, bundan tashqari, tasvirni birlashtirgan multimedia matnlaridan foydalanish, audio va matn - raqamli texnologiyalar yordam beradigan yondashuv, ayniqsa, ko‘rsatilgan xar bir ma’lumot samarasi yuqori ekanligini statistika ko‘rsatmoqda. Hamkorlik va interaktiv raqamli vositalar xorijiy tilda o‘qish endi bo‘lishi shart emasligini anglatadi. Ochiq yoki ko‘p tanlovli savollar ishlab chiqish uchun sun‘iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan chet tilini o‘rganishda kommunikativ ko‘nikmalar.

			
O‘qish	Tinglash	Gapirish	Yozish
Matnga asoslangan generativ sun'iy intellekt talabalarga yordam berishi mumkin. Osonroq o‘qishni farqlash material va bog‘langan tushunish tadbirlaridir.	Ovoz generatorlari va boshqalar texnologiyalar talabalarni qo‘llab-quvvatlash, yaratish osonroq amalga oshiriladi.	Chatbotlari talabalarni yaxshilash uchun past baholi suhbatdoshlar bilan ta'minlaydi og'zaki o‘zaro ta'sir kursatish jarayoni yuqori.	Avtomatlashtirilgan baholash va tuzatish, fikr-mulohaza va tahrirlash vositalarini taqdim etadi va sifatini oshiradi.

1-rasm: Raqamli texnologiyalarni chet tilini yordamida o‘rganishdagi kommunikativ ko‘nikmalar

Ko‘pincha ijtimoiy media platformalarida, blog saytlarida, vikilarda bo‘lib o‘tadigan interaktiv o‘qish yoki chat xonalarida o‘quvchilarga chet tilidagi matnlarni tarjima qilishning kognitiv yukini baham ko‘rish imkonini beradi. Bir nechta tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bunday vositalar talabalarining o‘qishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Tushunish bundan tashqari talabalar hamjamiyatini qurish orqali, texnologiya o‘rganishni yanada ijtimoiy va qiziqarli qilish, maqsadga yo‘naltirilganlikni oshirish, motivatsiya va qat‘iyatlilik va yanada samarali ta‘lim strategiyalarini rag‘batlantirish juda rivojlangan. Shunga qaramay, talabalar ushbu yondashuvlar haqidagi tasavvurlar ularning chet tilini bilishi bilan bog‘liq ko‘rinadi.

Ilg‘or talabalar ko‘proq ijobiy munosabatlar haqida xabar berishadi. Aksincha, yangi boshlanuvchilar mumkin ko‘proq tizimli yondashuvlardan, xususan, fikr-mulohazalarga nisbatan foyda olish yaxshi deb fikrlashadi, sun‘iy intellektga asoslangan texnologiyalardagi ishlanmalar o‘qishni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Masalan turli xorijiy tillarni bilish bu talabalarga mos keladigan o‘qish materiallarining kengroq turlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

“Adabiyotlar ro‘yxati”

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi. O‘zbekiston. Toshkent. 2022-y. 165-b
2. Xolmatov T.X. Informatika: OO‘Y talabalari uchun darslik. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2003. – 256 b.



БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

УДК: 618.333-002.7

ҲОМИЛА АНТЕНАТАЛ ЎЛИМИДА ЎПКАЛАР МОРФОЛОГИЯСИ

Шукурова Юлдуз Ўтқуровна

Аллаберганов Дилшод Шавкатович

Холиева Нигора Худайбердиевна

Электрон манзил: shukurova_1003@mail.ru

Тел: +99890 984-66-95

Электрон манзил: dilshodbek9347225@mail.ru

Тел: +99890 934-72-25

Электрон манзил: nigoraxalieva@gmail.com

Тел: +99890 322-70-06

Аннотация. Антенатал даврда чақалоқлар ўлимининг, характерли жиҳатларидан бири, фетоплацентар етишмовчиликка олиб келувчи ҳар қандай жараёнларни ривожланиши ва чақалоқ гипоксиясининг устунлиги билан изоҳланади. Антенатал чақалоқлар ўлимини суд тиббий баҳолаш, танатогенез механизмини моҳиятини очиш, оғир асоратларини олдиндан башоратлаш ва ўлим кўрсаткичини камайтириш муаммони долзарблигини аниқлатади. Айнан, ўпка тўқималарида морфологик чалалик белгилари: бирламчи ателектаз, альвеоляр деворнинг қалинлашганлиги, бирламчи альвеолоцитларни йирик ўлчамда бўлиши белгиларини яққол намоён бўлганлиги билан жиҳатланади.

Калит сўзлар: патоморфология, антенатал ўлим, бирламчи ателектаз, морфологик чалалик.

Муаммонинг долзарблиги. Дунёда оналар ва болалар ўлимининг ҳозирги пайтда, ривожланаётган давлатларда юқори кўрсаткичи, дастлабки ташҳислаш ва даволаш жараёнидаги босқичларни тўла тўқис амалга оширилмаганлиги билан жиҳатланади. Айнан, перинатал даврдаги патологияларни оғир асоратлари, уларни бартараф этиш учун аниқ бир амалий тавсияларни тўла тўқис ишлаб чиқарилмаганлиги ва танатогенез жараёни босқичларида, даволаш ишларини пала партиш қилиниши билан намоён бўлади. Жумладан АҚШ ва Европада перинатал патологияларда муддатидан олдинги туғруқларда ўлим кўрсаткичи 1000 туғруққа, 6-8 тани ташкил этса, Россия Федерациясида 8-12 тани, МДХ давлатлари ва Ўрта Осиёда ушбу кўрсаткич 30-60 тагача аниқланади. Мамлакатимизда, перинатал патологиялардан айнан, антенатал даврдаги чақалоқлар ўлими 1000 туғруққа ўртача 60-62 тани ташкил этиб, суд тиббий жиҳатларини баҳолашда, танатогенез механизмини аниқлашда, онадаги мавжуд бўлган соматик касалликлар, инфекцияли касалликларни биринчи звеноларда тўлиқ аниқланмаганлиги, клиник анамнестик маълумотларни ўз вақтида амалга оширилмаганлиги билан изоҳланади. Бу эса, ҳар бир давлатнинг иқтисодий, сиёсий ва тиббий ислохотларини баҳолашда муҳим ҳисобланиб, ЖССТ ининг 2022 йил маълумотларига кўра, демографик кўрсаткичларни баҳолаш учун асосий мезон ҳисобланади.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Тадқиқотда анамнез, макроскопик, суд-гистологик, суд-тиббий криминалистик, ўлчовли, қиёсий ва статистик усуллардан фойдаланилди. Мазкур тадқиқот давомида ҳомиланинг антенатал ўлимини аниқлаш бўйича 72 та суд-тиббий экспертиза хулосалари таҳлил қилинади.



Натижа ва муҳокама. Антенатал даврда ҳомила ривожланишида ҳали тўлиқ такомил топмаган ва такомиллашиш даврида бўлган ўпка тўқимасининг морфологик чалалик кўринишда намоён бўлиш, шу муддатда туғилган чақалоқлар ўпкасида бирламчи ва иккиламчи ателектазларнинг юзага келиши билан характерланади. Муддатдан олдинги даврда 37 ҳафтагача бўлган чақалоқлар туғруғида асосий ўлимга олиб келувчи сабаблардан бири, бу ҳомила ичи инфекцияси таъсирида ривожланган ўпка тўқимасидаги яллиғланиш ривожланганлиги ҳисобланади. Натижада альвеолалар бўшлиғида макрофаглар, нейтрофиллар, кўчиб тушган альвеолоцитлар аниқланади. Юзага келган альтератив-пролифератив жараёнлар авж олиши, ўпкаларда туғма ателектазли пневмония ривожланганлигини ва ўпканинг альвеоляр тузилишини гистотопографик тузилишидаги мутлоқ ўзгаришлар аниқланади. Шу билан бирга, парателектаз соҳаларда бириктирувчи тўқима ўсиши, эрта склерозланиш пайдо бўлишидан ўпканинг томирлар тизимида периваскуляр склерозланган ўчоқлар аниқланади. Морфологик текширишларда, ўпка тўқимасида морфологик чалалик, альвеоляр девордаги макрофагларнинг ҳажман катта бўлиши, цитоплазмасида вакуол киритмаларнинг кўпайганлиги ва альвеоляр деворнинг қалинлашганлиги, сурфактант тузилмаларининг оч эозинофил бўялиши, таркибида фосфолипидларнинг камлиги ва сероз суюқлик кўринишда плазматик бўккан интерстициал тўқималар аниқланади. Ўпка тўқимасида фақат бронхлар ва бронхиолалар ҳар хил катталиқдаги, ноаниқ шаклдаги найсимон тузилишга эгаллиги ўпка тўқимасини морфофункционал етилмаганлигини англатиб, альвеоляр деворларнинг морфологик чалалаги аниқланади.

Хулоса

1. Чақалоқлар ўпкаси ателектази “нафас бузилиши синдромига (НБС)” кириб, унинг умумий ҳолдаги учраш даражаси, барча чақалоқларнинг 1% ини ташкил қилади, чала туғилганларда эса 14%да учрайди. Педиатрия учун ателектаз муаммосининг долзарблиги, чақалоқлар бир ойлик даврида ўпка альвеоляр тўқимаси пучайиб қолиши сабабларининг кўплигидадир.

2. Микроскопик текширувда ўпка тўқимаси бир қарашда чала ривожланган кўринишга эгаллиги аниқланади. Ўпка тўқимасида фақат бронхлар ва бронхиолалар ҳар хил катталиқдаги, ноаниқ шаклдаги найсимон тузилишда намоён бўлади. Альвеоляр тўқиманинг тўрсимон кўриниши фарқ қилинмайди. Респиратор альвеолалар ва уларнинг бир-бири билан туташган бўшлиқлари аниқланмайди.

3. Альвеолалар оралиғи тўқимаси бир-бири билан қўшилиб кетган зич ҳолдаги тўқима ва хужайрали тутамлардан иборатлиги, қон томирлари кенг ва тўлақонли, атрофига қон қуйилишлар пайдо қилган тузилишга эгаллиги кузатилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Виноградова И.В., Краснов М.В. Состояние здоровья детей с экстремально низкой массой тела при рождении в отдаленные периоды жизни. Вестник современной клинической медицины. 2013;6(2):20-25.

2. Ширалиева Р.К., Гурбанова Г.М., Рагимова Н.Д. Особенности перинатального поражения центральной нервной системы у недоношенных детей с внутриутробной вирусной инфекцией.

3. Зубжицкая Л.Б., Кошелева Н.Г., Семенов В.В. Иммуноморфологическое состояние плаценты при акушерской патологии. СПб.: Нордмедиздат; 2005.

4. Головачев Г.Д. Наследственность человека и внутриутробная гибель. М.: Практика; 1983.

5. Ауесханова А. Д., Гринберг В. Б. К вопросу о причинах смерти плодов и новорожденных с критической массой тела // Вестник Казахского Национального медицинского университета. – 2013. – №. 4-1. – С. 160-162.

6. Алиева Т. Д., Нишанова Ф. П. Содержание средних молекулярных пептидов при антенатальной гибели плода // Наука о жизни и здоровье. – 2011. – №. 4. – С. 50-51.



7. Амонов И. и др. Гемокоагуляционные расстройства при антенатальной гибели плода. Анализ. Перспективы // Журнал проблемы биологии и медицины. – 2012. – №. 2 (69). – С. 133-136.

8. Барановская Е. И., Будюхина О. А., Баранчук С. А. Патоморфологическая характеристика хронической плацентарной недостаточности // Здоровоохранение (Минск). – 2011. – №. 8. – С. 4-9.

УДК: 616.98:578.828.6039:616.31-053.2

АФТОЗ СТОМАТИТЛАРНИ ЮЗАГА КЕЛИШИДА ИММУН АЪЗОЛАРНИНГ МОРФОЛОГИЯСИ

Хамидова Фарида Муиновна

Эшмуродов Фирдавс Азаматович

Электрон манзил: xamidova.m.05@mail.ru

Тел: +99893 998-83-84

Электрон манзил: firdavs_eshmurodov4737@mail.ru

Тел: +99897 917-50-06

Самарканд давлат тиббиёт университети

Аннотация: Ёш болаларда орттирилган иккиламчи иммунотанқислик ҳолатлари асосан, инфекция қасалликлар фонида юзага келиши билан намоён бўлади. Жумладан, сепсис, септицемияларда барча қон томирларнинг иккиламчи жавоб реакцияларида, МАЛТ тузилмасининг блоккланиши барча шиллиқ қаватларда ярали некротик яллиғланишларни юзага келтириши оқибатида жараёнга иккиламчи замбуруғли инфекцияларни қўшилиши оқибатида, болалар оғиз бўшлиғи шиллиқ қаватида оғир даражадаги афтоз стоматитларни ривожланишига олиб келади. Натижада, шиллиқ қаватнинг оғир яраланиши, МАЛТ тузилмасининг биринчи звеноси бўлган Пирогов Валдер халқасини ҳам издан чиқишига олиб келади.

Калит сўзлар: патоморфология, афтоз стоматит, иммунодефицит, МАЛТ тузилмаси, сепсис.

Муаммонинг долзарблиги. Дунёда, демографик кўрсаткичлари юқори бўлган давлатлардан Хитой, Хиндистон, Япония, Сингапур ва АҚШ давлатлари бўлиб, ёш қатламида иммун аъзоларнинг ўткир ва сурункали етишмовчилиги билан ривожланадиган жами қасалликлари ўртача 11,3% ни ташкил этиб, шулардан ўртача, 8,9% болаларда стоматитнинг турли кўринишдаги клиник морфологик турлари юзага келади. Айнан, юқорида келтирилган 8,9% да ривожланадиган стоматитларни қарийб 4,1% да афтоз стоматитларнинг юзага келиши аниқланган. Бу эса, юқорида келтирилган давлатларда ўртача йилига 85 млн болани ташкил этади. Россия Федерацияси ва МДХ давлатларида бу кўрсаткич ўртача, жами аҳолини 1,3% ни ташкил этиб, ўртача сон жиҳатдан 12,8 млн ёш болани ташкил этади. Ўзбекистон Республикасида, йилига стоматитлар билан қасалланганлар сони ўртача 750-850 мингтани ташкил этади. Афтоз стоматитларни профилактикаси асосан, иммун аъзоларнинг функционал ҳолатини, баҳоловчи аъзолардан бўлган ёнбош ичакнинг фаолияти билан баҳоланади. Айнан, болаларда мавсумий ривожланадиган ўткир ичак қасалликлари инфекция турида, ёнбош ичак МАЛТ- тузилмаларини ўткир етишмовчилиги билан стоматитларни турли кўринишлари юзага келишининг патогенетик сабаблари ханузгача аниқланмаган.

